

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TARIXSHUNOSLIK FANIDAN MA‘RUZALAR MATNI

(3-kurslar uchun)

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar
Ta‘lim sohasi: 110 000 – Pedagogika
Bakalavriat yo‘nalishi: 5110600- Tarix o‘qitish metodikasi

QO‘QON – 2020 yil

1-mavzu: TARIXSHUNOSLIK FANI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI HAMDA METODLARI

Reja:

1. Tarixshunoslik fani predmeti, uning maqsad va vazifalari.
2. Tarixshunoslik fanining manbalari.
3. Tarixshunos fanining davrlanishi va turlari.
4. Tarixshunoslik fanining metodologiyasi.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: *Tarixshunoslik fani predmeti, fanning maqsad va vazifalari, manbalari, davrlanishi, turlari, metodologiyasi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.*

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Tarix haqidagi fan, ilmiy kadrlar, ilmiy tarixshunoslik markazlari, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Yusufbek Bayoniy, Abu Bakr Narshaxiy, tarixshunoslik sektori, fanning metodologiyasi, qiyosiy tarixiy usul, aniq tahliliy usul, xronologik usul.*

Tarixshunoslik fani predmeti, uning maqsad va vazifalari. Tarixshunoslik tarix fanlari tizimida o‘ziga xos mustaqil o‘ringa ega. Fanning o‘z manbalari, tadqiqot usullari mavjuddir. Tarixshunoslik fanini oliy ta‘lim tizimida o‘qitishdan asosiy maqsad talabalarda qadimgi davrdan hozirgi kungacha yaratilgan tadqiqotlar, ularning haqqoniyligi, qimmatini, fikrlar xilma-xilligi, tarixiy shaxslar va voqealarni baholash, tarixiy bilimlarni to‘plash, tarixchilarning monografiya, ilmiy tadqiqot va maqolalarini o‘rganishda tarixiylik tamoyillarga asoslanib xulosa chiqarishga o‘rgatishdir. Fanning vazifasi esa adabiyotlarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish, tarixiy voqealarni tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil qilish, mualliflarni klassifikatsiya (guruhlariga bo‘lib o‘rganish) qilishdir.

Tarixshunoslikning ob‘ekti tarixiy jarayonning o‘zi bo‘lmay, balki tarixiy tafakkur, uni o‘rganish, tarix haqidagi fan hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston tarixida O‘rta Osiyoning ilk o‘rta asrlar tarixi mavzusida O‘rta Osiyo hududida ilk o‘rta asrlarda mavjud davlatlar, arablar istilosi, islom dinining yoyilishi, markazlashgan davlatlarning paydo bo‘lishi va hokazolarni o‘rganilsa, tarixshunoslik fanida esa bu davr tarixi o‘rta asrlarda, yangi davrda va bizning kunlarda qanday tadqiq etilganligini tahlil etadi.

Tarixshunoslik tushunchasi ikki ma‘noda qo‘llaniladi: 1. Tarixiy bilimlar taraqqiyoti va tarixiy tadqiqot usullariga doir fan ma‘nosida. 2. Muayyan tarixiy davrga yoki muammoga bag‘ishlangan tarixiy tadqiqotlar majmuasi ma‘nosida (masalan, hozirgi davrda istoriografiya).

Tarixshunoslik tarixiy bilimlar taraqqiyotini, muayyan tarixiy bosqichda yaratilgan yoki ma‘lum bir muammoga bag‘ishlangan tarixiy tadqiqotlarni o‘rganadi va tahlil qiladi. Tarixshunoslik nafaqat tarix, balki maxsus tarix fanlari

(masalan, sharqshunoslik, etnologiya, arxeologiya va boshqalar) tarixi bilan ham shug'ullanadi. Tarixshunoslikning asosiy vazifasi tarix fani rivojini chuqur va har tomonlama xolisona o'rganish, muayyan taraqqiyot davrida to'plangan tarixiy bilimlarni tahliliy tadqiq etishdan, amalga oshirilgan ishlarning natijasini chiqarishdan hamda shu asosda tadqiq etilgan dolzarb muammolarni aniqlab, kelgusi tadqiqotlarning yunalishlarini belgilashdan, tarixchilarni muayyan tarixiy ilmiy muammo doirasidagi adabiyotlarga yunaltirishdan iborat.

Tarixshunoslik shuningdek, fan taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ilmiy tarixshunoslik markazlari tarixini, unda faoliyat ko'rsatgan ilmiy kadrlarning salohiyati, ularning fan rivojiga qo'shgan hissalarini o'rganish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Tarixshunoslik tadqiqotlarda tadqiqotchining vazifasi o'zidan avvalgi bosqichlarda yaratilgan ilmiy asarlarni zamonaviy bilimlar nuqtai nazaridan o'rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini taxlil qilishdan iborat.

Tarixshunoslik Vatan tarixini o'rganishda, tarixiy muammolar ustida bahs yuritishga, ijodkorlikka ilhomlantiradi.

Tarixshunoslikda eng asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

- tarixshunoslik tahlilining nazariy masalalari, metodologiyasi rivoji masalalari, mazkur soha nazariy va metodologik muammolari haqidagi fikrlar kurashi;
- tarixchilar tomonidan o'rganilayotgan mavzular, shuningdek masalani yoritishda jalb qilingan manbalarning kengayishi va o'zgarishi evolyusiyasi;
- ilmiy tahlil usullarining takomillashuvi, tadqiqotning manbashunoslik vositalari, manbalar tanqidi;
- tarixiy materialni bayon qilish xarakteri, turli davrdagi tarixchilar stili.

Xullas, tarixshunoslik tarix fanining tarixini o'rganuvchi fandır.

Tarixshunoslik tarix faniga nisbatan yangi fan hisoblanadi. O'rta asrlarda yaratilgan ba'zi tarixiy asarlarda, jumladan, Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston", Abu Bakr Narshaxiyning "Tarixi Buxoro", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Boburning "Boburnoma", Muhammad Yusufbek Bayoniyning "Tarixi Xorazm", "Shajarai Xorazmshohiy", Ahmad Donishning "Buxoro amirlarining tarjimai hollari" va boshqalarda muayyan ma'lumotlarni umumlashtirishga, fakt va tarixiy jarayonlar bayonida tahliliy yondashuvga bo'lgan harakatlar kuzatiladi.

O'zbekistonda tarixshunoslikning akademik ma'nodagi institutsional shakllanishi XX asrning 60 yillarida, Fanlar akademiyasi Prezidiumining maxsus qarori bilan Tarix instituti bazasida tarixshunoslik sektorining tashkil etilishi bilan amalga oshdi. 1968 yilda Tarix instituti qoshida "Tarixshunoslik" sektori, keyinroq bo'lim tashkil etilishi bu sohaning rivojiga katta hissa qo'shdi (bo'limni 1968-1988 yillarda tarix fanlari dori B.V.Lunin, 1988-1992 yillarda tarix fanlari nomzodi

V.A.Germanov boshqargan, 1992 yildan esa tarix fanlari doktori, professor D.A.Alimova rahbarlik qilib keldi).

O'zbekiston FA Tarix instituti tashkil topgach, bir qator tarixshunoslar, jumladan, V.Ya. Nepomnin, R.N.Nabiyev, I.K. Dodonov, L.M.Landa, X.I.Inoyatov, B.V.Luninlar muayyan muammolarning tarixshunosligini tadqiq qilishga kirishdilar. Tarixshunoslik bo'limi tomonidan o'tkazish an'anaviy bo'lib qolgan "Tarixshunoslik o'qishlari" O'zbekiston tarix fani sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni sarhisob qilib boradi. O'zbekistonda tarixshunoslik fani ilmiy maktablariga B. V. Lunin, G.I.Jeltova, F.H.Qosimov, R. Rajapova, D.A. Alimova kabi olimlar tomonidan asos solindi.

Mustaqillik yillarida tarixshunoslik tadqiqotlari ancha kengaydi. 5 ta doktorlik, 20 dan ortiq nomzodlik ishlari himoya qilindi. Ayniqsa, xorijiy tadqiqotchilar (AQSH, Koreya, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya) O'zbekiston tarixshunoslari bilan ilmiy-amaliy aloqalar o'rnatib, O'zbekiston tarixshunosligining muhim muammolarini o'rganishda davom etmoqdalar.

Tarixshunoslik tarix fanlaridan manbashunoslik bilan juda yaqin aloqada bo'lib, har bir davr manbalarning ko'pligi, ularga tanqidiy yondashuv va foydalanish tarixiy tafakkurning, bilimning darajasi, saviyasini belgilaydi.

Tarixshunoslikning rivojlanishida manbalar doirasining kengligi va o'sha davrdagi tarixiy tadqiqot usuli asosiy omil hisoblanadi. Tarixiy tadqiqot usullarining takomillashishi (masalan: tanqidiy yondashuv, tarixiy taqqoslash va boshqalar), yangi (epigrafik, arxeologik, numizmatik) manbalarning paydo bo'lishi tarix fanining saviyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Tarixshunoslik tarixning manbashunoslik, arxeologiya, etnografiya, numizmatika va lingvistika fanlari bilan chambarchas bog'liq.

Tarixshunoslik fanining manbalari. Tarixshunoslik fan sifatida o'z manbalariga egadir. Mazkur fanning manbalarini jahon xalqlarining eng qadimgi zamonlardan hozirgacha bo'lgan, tarixga manba bo'lib xizmat qiluvchi tarixiy tadqiqotlar, ya'ni tarixshunoslik asarlari tashkil etadi.

Yozuvlar ixtiro qilingandan so'ng toshlar yoki binolardagi bitiklar va yilnomalar – eng qadimgi yozma tarixiy manbalari hisoblandi. O'sha davrlardagi voqealarning guvohlari yoki zamondoshlari yozib qoldirgan manbalar keyinchalik xattotlar, shoirlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan yoki og'izdan-og'izga ko'chib bizgacha etib kelgan manbalar qadimiy manba hisoblanadi. Yozuvi bo'lgan barcha xalqlarda bitiklar va yilnomalar uchraydi.

Arablarning O'rta Osiyoni istilo qilishi ham tarixshunoslik manbalarga o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi. Arablar O'rta Osiyoga yangi diniy ta'limot-islom ta'limoti bilan birga yangi yozuvni ham olib keldilar. Arab yozuvi asta-sekin butun Eron va Turonga yoyilib, Abbosiylar hukmronligining ikkinchi asriga (ya'ni X asrga) kelib, murakkab o'rta forsiy - pahlaviy yozuvini siqib chiqardi. Buning oqibatida shu bo'ldiki, sharq xalqlarining boy yozma obidalari bizning kunlarga

juda kam saqlanib qoldi. «Qur'oni Karim» arab yozuvida bitilgani, shuningdek arab alifbosi nisbatan ilg'orligi, tovushlarga asoslangani, ya'ni har bir fonema-tovushga alohida belgi - harf borligi ham katta ta'sir ko'rsatdi. O'rta Osiyo xalqlari orasida kimlar va qachon birinchi bo'lib, arab yozuvini qo'llay boshlaganligi noma'lum. Arablar qo'l ostidagi o'lkalarda asta-sekin tabiiy ravishda shu yozuv qo'llana boshlagan bo'lsa kerak. Samarqand yaqinidagi Mug' g'oridan topilgan Divashtich tilxati shu yozuvda bitilgan. Ishonch bilan shuni tahmin qilish mumkinki, arab yozuvi dastlab ma'muriy-xo'jalik ehtiyojlari uchun ishlatilgan bo'lsa kerak. Chunki arab yozuvi sodda, qulay va tez yozishli edi. Har holda dastlabki vaqtlarda qo'lyozmalarining qaysi tilda bitilishi muhim bo'lgandir.

Shunday qilib, VIII-asrdan XX-asrning boshlariga qadar bo'lgan O'rta Osiyo tarixshunosligiga doir qo'lyozma asarlarga egamiz.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutidagi qo'lyozmalar fondida 40 mingdan ortiq qo'lyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq toshbosmalar kitoblar, 10 mingdan ortiq sharq tillarida yozilgan hujjatlar mavjud.

Tarixshunoslikning davrlanishi va turlari. Jahon tarixi tarixshunosligi insoniyat sivilizatsiyasi va tarixiy tafakkur darajasi harakteriga qarab bir necha bo'limlarga bo'linadi. Bular qadimgi, o'rta asrlar (medievistika), yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligidir.

O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligi deganimizda, O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi zamonlardan hozirgacha bo'lgan tarixiga manba bo'lib xizmat qiluvchi tarixiy tadqiqot, ya'ni tarixshunoslik asarlarini tushunamiz.

O'zbekiston tarixi tarixshunosligi ham shartli ravishda davrlar va tarixiy tafakkur hamda tadqiqot usullaridan kelib chiqib davrlarga bo'lish mumkin. Bular: O'zbekistonning qadimgi, o'rta asrlar, Rossiya mustamlakachiligi, sovetlar davri va mustaqillik davri tarixshunosligidir.

Tarixshunoslik fanining metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov asarlari tarixshunoslik fanining metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. I.Karimov «Tarixiy xotarasiz kelajak yo'q» asarida shunday yozadi: Modomiki, o'z tarixini bilgan undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz xalqimizni millatimizni ana shunday tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur.

Bugungi kunda o'zbek xalqining keng ommaga etkazishga arziydigan haqqoniy tarixini yaratish tarixshunoslarimiz oldida turgan dolzab masaladir. I.Karimov ta'kidlaganidek: «Sovetlar davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgaralar yozib bergan tarixni o'qishga mutloqo qarshiman. Mustamlakachi o'ziga qaram bo'lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar». Bir so'z bilan aytganda, davlatimiz,

milatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim.

Tarixiy asarlar mafkuradan holi, ob'ektiv, haqqoniy yozilishi kerak. Ammo har doim ham bunday bo'lmagan. Tarixiy asrlarni tarixshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etish, tarixni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimiz tarixiga oid juda ko'p tadqiqot va asarlar mavjud bo'lib, ularning o'rganish yozilish uslubi, ilgari surilgan muammolari, xarakterli xususiyatlaridan xabardor bo'lish foydadan holi emas.

Tarixshunoslik va manbashunoslik tarix fanining muhim yo'nalishlaridan biri, uning nazariy asosi hisoblanadi. Bugungi kunda tarixni o'rganishda tarixshunoslik o'zining uslubiy va texnik doirasidan chiqqan. Muammoning tarixshunosligini bilish tarixchi tadqiqodchining metodologiyasini aniqlab bersa, muammoga oid manbalardan xabardorlik unga adabiyotlar bilan qiyosiy solishtirgan holda xolis (ob'ektiv) xulosalarni chiqarishga imkon beradi.

O'tgan yillar mobaynida tadqiqotlarning metodologik bazasi ham yangilandi, tarix fani bilan arxeologiya, etnologiya, san'atshunoslik, sotsiologiya kabi yondosh fanlar o'rtasida o'zaro metodologik tajriba almashinuvi yuz berdi.

Tarixshunoslik tadqiqotlarining bir qancha tahlil usullari mavjud:

Qiyosiy tarixiy usul - turli tarixiy davrlarda tarixiy ma'lumotlar qanday paydo bo'ldi, harakatlandi, o'zgardi va rivojlandi, jamiyat taraqqiyotida tarixiy fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayonini aniqlashda qo'llaniladi;

Aniq tahliliy usul - olib borilgan tarixshunoslik tadqiqoti voqea-hodisalar tafsilotini kelib chiqish sabablari, rivojlanish jarayonini nazariy va faktik materiallarning o'zaro aloqasida taxlil qiladi, ularning fanda qanday yoritilganligini o'rganadi;

Mantiqiy tahliliy usul - tarixshunoslikda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, tarixiy muammoning o'ziga xos xususiyatlari, tuzilishi, boshqa tarixiy hodisalar bilan bog'liqligini o'rganishda qo'llaniladi. Boshqacha aytganda, ma'lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishi bilan bog'liqlikda ifodalaydi;

Xronologik usul - voqea-hodisalar haqida turli bosqich yoki davrda to'plangan tarixiy faktlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganishda qo'llaniladi. Bu esa turli zamonda ilmiy fikrlarning harakatini, muammoga yondashuvda konsepsiyalar, qarashlar, g'oyalarning o'zgarib borishini xronologik tartibda takroriy yoki xilma xil jihatlarini ochib beradi; davriylashtirish usulida ma'lum bir tarixiy davriy chegarada tarix fanining sifat, uslub va xususiyatlarining o'zgarishiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ta'siri, har bir yangi bosqichda vujudga kelgan ilmiy g'oyalarni harakatlantiruvchi omil va yo'nalishlar aniqlanadi;

retrospektiv tahlil - har bir ilmiy adabiyot o'z davriga taalluqli bo'lib, uning kuchli va kuchsiz jihatlarini o'zida aks ettiradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Tarixshunoslik fanini oliy ta'lim tizimida o'qitishdan asosiy maqsad nima?
2. Tarixshunoslik fanini asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Tarixshunoslik tushunchasi necha xil ma'noda qo'llaniladi?
4. Tarixshunoslik fanida eng asosiy e'tibor nimalarga qaratiladi?
5. O'zbekistonda tarixshunoslikning akademik ma'nodagi institutsional shakllanishi qachon yuz berdi?
6. Tarixshunoslik fanining manbalarini nimalar tashkil etadi?
7. Tarixshunoslik tadqiqotlarining qanday usullari mavjud?

2-mavzu: YOZMA TARIXIY ADABIYOTLARNING TARIXIY BILIMLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI

Reja:

1. Yozuvni paydo bo'lishi va uning tarixiy bilimlar ravnaqidagi ahamiyati.
2. Avesto - O'rta Osiyo tarixi bo'yicha muhim tarixiy manba.
3. O'rta Osiyoda yaratilgan turkiy qo'lyozmalar.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: *Yozma tarixiy adabiyotlarning tarixiy bilimlar rivojidagi ahamiyati, Avesto tarixshunosligi va O'rta Osiyoda yaratilgan turkiy qo'lyozmalar haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.*

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Epik asarlar, "Odisseya" va "Illiada", yozuv, oromiy yozuvi, zardushtiylik, Avesto, Ksanor, Ktesiy, "Anabasis", Abu Rayhon Beruniy, "Avesto"ni o'rganish muammolari, Anketil Dyuperron, Meri Boys, turkiy qo'lyozmalar, "Qutadg'u bilig", "Hikmat", «Tarixi mulki Ajam», «Ravtus-safo».*

Yozuvni paydo bo'lishi va uning tarixiy bilimlar ravnaqidagi ahamiyati. Kishilik jamiyati tarixida tarixiy bilimlarga kuchli ehtiyoj dastabki davrlardan oq vujudga kelgan. Zero, jamiyat taraqqiyoti tarixiy bilimlar rivojidan kelib chiqib belgilanadi. Bu ehtiyoj kecha yoki bugun emas, kishilik jamiyati vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan. Moddiy madaniyat qurollarining paydo bo'lishi insonlar hayotiga qanchalik katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, qo'lyozma va bosma kitoblarning paydo bo'lishi ham insoniyat madaniyati taraqqiyotiga shunchalar katta ta'sir ko'rsatgan.

Ma'lumki, yozuvlar vujudga kelgunga qadar epik asarlar tarixni o'rganish uchun yagona manba hisoblangan. Kishilik jamiyatining dastlabki davrida kishilar dunyoning paydo bo'lishi va voqea-hodisalarni tushuntirish uchun afsonalar yaratganlar. Bu asotir va afsonalar asta-sekin to'planib ko'payib borgan va ma'lum bilimlar majmuini tashkil etadi. Shubhasiz, har qanday afsona va asotirlar asosida ma'lum bir haqiqat bor. Zero, faylasuflar aytganidek, "Afsonalar haqiqatdan darak beradi". Shunday ekan, asotir va dostonlar emas, balki to'qimalar bilan voqealar rivojlantirib yuborilgan afsonalarda ham haqiqat mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, eng qadimgi, hali yozuv ham to'la shakllanmagan davr haqida ma'lum bir tassavvurlar paydo etish muhim rol o'ynovchi afsona va dostonlarni o'rganish ham muhim ahamiyatga egadir. Masalan: "Odisseya" va "Illiada" dostonlaridagi voqea va hodisalar qadimgi Troya shahri tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mashhur "Go'rog'li", "Alpomish" dostonlarida qadimiy turk xalqlari tarixidan ma'lumotlar olishimiz mumkin. Biroq keyinchalik ijtimoiy-

iqtisodiy munosabatlarni shakllanishi va rivojlanish jarayonida o'z-o'zidan yozuvga ehtiyoj vujudga keladi.

Kishilik jamiyati o'z tarixining ko'proq qismini yozuvsiz o'tkazgan. U yozuvga etib kelguncha uzoq yo'lni bosib o'tgan va nutqni yozib olish uchun bir necha ming yil ilgarigina belgilar qo'llanila boshlagan.

Yozuv bu - biror tilda qabul qilingan maxsus belgilar yig'indisi hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoda hammasi bo'lib taxminan 5621 ta til va sheva bor bo'lib, hozirgacha ulardan 500 tasigina o'rganilgan xolos. Lekin ularning hammasining ham yozuvi bo'lmay, faqat og'zaki nutq shakliga egadir. Demak, hamma tillarda ham yozma shakl mavjud bo'lavermas ekan.

Yozuvning paydo bo'lishi kishilik jamiyati yaratgan eng yirik madaniy kashfiyot hisoblanadi. Insoniyatning qo'lga kiritgan eng yirik davrga xos madaniy obidalar yig'indisi, fikriy natijalarning hozirgi davrga yetib kelishida yozuvning roli kattadir. Agar yozuv bo'lmaganda, qadimgi ajdodlarimizdan qolgan meros, ular yaratgan ijodiy yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan bo'lar edi.

Til makon va zamonda cheklangan bo'lsa, yozuv makonda ham, zamonda ham cheklanmagan. Agar yozuv bo'lmaganda edi, taraqqiyot juda ibtidoiy holatda qolgan bo'lar edi. Negaki, buyuk kashfiyotlarning barchasi: atomdan tortib elektr tokigacha, mashinalardan tortib internetgacha qilingan ixtirolar yozuv bilangina amalga oshirildi. Yozuv tufayli bilim, hayotiy tajriba keyingi avlodlarga etib keladi. Yangi avlod o'tgan ajdodlarning ishini yangidan boshlamay, balki uni davom ettiradi. Ya'ni, tayyor tajribaga ega bo'lib boraveradi.

Hayotimiz davomida to'plangan g'oya va tajribani yozuvsiz avlodlarga etkazish juda qiyin va katta yo'qotish orqali ma'lum foizlardagina amalga oshiriladi. Buning uchun tinimsiz takror qilib turish shart bo'lar edi biroq og'zaki nutq ko'p mehnat talab etadi. Yoki boshqacha qilib aytmoqchi bo'lsak, psixologlar bir voqeani 6 kishi bir-biriga so'zlab berish orqali ma'no butkul o'zgarib ketishini tajribada sinab ko'rganlar. yozuv mana shularga yo'l qo'ymaydi, fikrni o'zgartmasdan boshqa birovlariga etkazib berishga imkon beradi.

Odamning tajribasi va bilimi orta borgan sari unda bilganlarini yodda tutish va boshqalarga berish zarurati tug'ildi. Zamonaviy til bilan aytganda, axborotni saqlash va uzatish problemi kelib chiqdi.

Bevosita aloqa bog'lash yo'li bilan buni amalga oshirish qiyin emas edi, biroq bu holda inson xotirasining mukammal emasligi tufayli ko'p axborotlar

esdan chiqib qolgan, yo'qolgan. Bunga fazo hamda vaqt asosiy to'sik bo'lib, yozilgan so'zgina ulardan ustun kela olardi.

Xalqimizning o'tmishidagi yozuvlari xaqida gap borganda, 20 dan ortiq yozuv haqida gapirishga to'g'ri keladi. Negaki, yurtimizning turli joylaridan topilayotgan arxeologik topilmalardagi yozuvlar mana shularni taqozo etadi.

Quyida biz O'rta Osiyoda oromiy yozuvi asosida vujudga kelgan qadimgi mahalliy yozuvlar bilan tanishamiz:

- Oromiy yozuvi asosida mil.avv. III-II asrlarda So'g'd yozuvi shakllandi, bu yozuv qoldiqlari Panjikent yaqinidagi Qal'ai Mug'dan (1932 yil topilgan, 74 ta so'g'dcha, 2 ta Xitoycha, 2 ta arabcha, 1 ta turkcha), Sharqiy Turkistonning Turfon shahri yaqinidan, Samarqanddagi Afrosiyob yodgorligidan topilgan.
- Oromiy yozuvi asosida yana Xorazm yozuvi kelib chiqqan. Bu yozuvning mil.avv. V-IV asrlarga oidlari Oybuyrqa'adan topilgan. Mil.avv. IV-III asrlarga oidlari Qo'yqirilganqa'adan topilgan.
- So'g'd yozuvi va Xorazm yozuvlari asosida 25 harfdan iborat Toxariston yozuvi shakllangan, bu Yozuv ko'ndalangiga chapdan o'ngga qarab bitilgan.
- So'g'd yozuvi asosida Turk yozuvi shakllangan, bu yozuv fanda ko'k turk yoki Runik bitiglari deyiladi, XVII asrdan o'rganila boshlangan. Sibir, Mo'g'iliston (Tunyuquq, Kultegin, Bilga Xoqon, Ongin bitiglari), Oltoy, O'rta Osiyo (Farg'ona, Ettisuv, Zarafshon vodiysi) dan topilgan. 38-40 harfdan iborat bo'lgan.
- Oromiy yozuvi asosida yana Kushon (bu yozuv burchakli, to'rtburchakli va aylana shaklda bo'lgan) – Baqtriya yozuvi shakllangan, bu yozuv qoldiqlari qadimgi Termiz shahridan topilgan.
- Oromiy yozuvi asosida yana Baqtriya yozuvi, Baqtriya yozuvidan esa Eftaliylar yozuvi (25 harfli) shakllangan.
- So'g'd yozuvi va Xorazm yozuvlari asosida yana bir yozuv uyg'ur yozuvi kelib chiqqan, Uyg'ur yozuvidan Manjur hamda Mo'g'ul yozuvlari shakllangan.

«Avesto» kitobining o'rganilishi va uning tariximizda tutgan o'rni.
Zardushtiylik dunyodagi eng qadimgi dinlardan bir bo'lib, insoniyat madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu din juda ko'p Sharq mamlakatlarida, xususan O'rta Osiyoda ham uzoq vaqt asosiy dinlardan bo'lib keldi. Zardushtiylik dinning muqaddas kitobi «Avesto» bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida istiqomad qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir. Unda markaziy Osiyo xalqlari bundan 3 ming yil oldingi davrlarda yoritib berilgan.

Evropada Zardushtiylik ta'limoti antik davr - qadimgi zamonlardayoq katta qiziqish uyg'otgan, Zardo'sht va uning ta'limoti haqida ko'pchilik yunon va rimlik yozuvchilar, faylasuflar va tarixchilar ilmiy asarlar yozishgan. Sosoniylar sulolasi davrida, III-VII asrlarda zardo'shtiylikning muqaddas kitobi - "Avesto" matnlari o'rta forsiy tilga ko'chirila boshlagan vaqtlardayoq mazkur din tarixshunosligi tug'ila boshlagan edi.

Miloddan avvalgi V asr oxiri tarixshunoslarining yozishicha, Gerodotning zamondoshi lidiyalik Ksanor Zardo'sht nomini tilga olgan. Keyingi tarixshunoslarning yozishicha, Ktesiy o'z asarida Zardo'shtning ossuriyaliklardan engilgan Baqtriya podshosi sifatida tilga oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, Ktesiy asari ancha ilgari qayta ishlangan bo'lib, keyinroq o'tgan qadimiy olimlari ana shu qayta ishlangan nusxadan foydalanganlar. Ammo Ksenofontning "Kiropediya" va "Anabasis" asarlarida Zardo'sht haqida ma'lumot uchramaydi. Holbuki, Ksenofont Ahomoniylar davlatining ahvoli, xalq urf-odatlar va marosimlari bilan yaxshi tanish edi. Gerodot, Ktesiy va Ksenofont asarlarida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib aytish mumkinki, Ahomoniylar davri (mil av VI-V asrlar)da hali Zardo'shtni hukmron din asoschisi deb hisoblashmagan. Zardo'shtiylik dini tadqiqotchilari E. Benvenist, A.K.Kristensen, X.Nyuberg, V.Struve va boshqalar ham shu fikrdalar. Zardo'shtiylik dini tarixiga oid ko'plab maqolalar va asarlar yaratilgan bo'lsa-da, ammo mamlakatimiz xalqlari tarixida zardo'shtiylikning o'rni va ahamiyati haqida jiddiy, umumlashma asarlar yaratilmagan.

Ilk o'rta asrlarda mazkur din o'rnini asosan islom dini egallagan. Natijada bundan avvalgi davrlarda mavjud bo'lgan zardushtiylik diniga oid adabiyotlarning juda ko'p qismi, sosoniylar davrida amalda bo'lgan "Avesto" to'plamining taxminan to'rt dan uch qismi yo'qolib ketgan.

Tarixdan ma'lumki, Aleksandr Makedonskiy O'rta Osiyoga yurish qilgan davrda bu erda yuksak sivilizatsiya mavjud edi. Haqiqatda esa, «Avesto»ga qarshi hujum Aleksandr Makedonskiy davridayoq boshlangan edi. Abu Rayhon Beruniy yozadi: «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida Abisto(Avesto)ning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Aleksandr otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Abisto o'ttiz «nask» edi, majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi. Biz Qur'oni Karim bo'laklarini xaftiyak deganimizdek, nask Abisto bo'laklaridan har bitta bo'lakning nomidir».

Eramizning VII-VIII asrlarida ro'y bergan arablar bosqini O'rta Osiyo xalqlari boshiga misli ko'rilmagan talofatlar olib kelgani ham ma'lum. Abu Rayhon Beruniy yozadi: «Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi. Keyin Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy xorazmliklarning kitoblarini halok etib,

bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar. Uzoq zamon shunday bo'lgach, ular ixtilofli narsalarini unutib kelishib qolganlarini yodda saqlab qoldilar».

Qadimgi Xorazm tarixining chuqur bilimdoni S.P.Tolstovning arxeologik dalillar asosida isbot etishicha, islomgacha bo'lgan sivilizatsiyaning nodir yodgorliklari, tarixiy adabiyot, ma'naviyat durdonalari yonib kulga aylantirilgan. Binobarin zardushtiylik ta'limoti va uning muqaddas «Avesto» kitobi ham yondirilib, yo'q qilib yuborilgan. Uzoq tariximiz va ma'naviy merosimizning bu noyob yodgorligi keyingi asrlardagi pahlaviy, fors tillaridagi talqini asosidagina bizgacha etib kelgan. Mana shu hol zardushtiylik ta'limoti tarixi va tarixshunosligini o'rganish uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi.

Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda "Avesto" muhim manbadir. Chunki "Avesto" faqat zardushtiylik dinining urf-odatlarini, e'tiqodi jamlangan muqaddas kitob bo'libgina qolmay, unda O'rta Osiyo va Eronning qadimgi tarixi, madaniyati va siyosiy tuzumi ham aks ettirilgan. Er yuzidagi eng qadimgi dinlar, jumladan, zardushtiylik haqida ilmiy-tadqiqotlar vujudga kelgan. Amerikalik olim R.Fray, fransuz olimi E.Benvenist, belgiyalik olim J.Dyushen - Gyuyimen, shved olimlari X.Yu.Nyuberg, G.Videngran, daniyalik K.Barr, nemis olimi B.Xins boshqalarning asarlarini ko'rsatish mumkin.

Zardushtiylik tarixini o'rganish bir qator muammolarni o'z ichiga oladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ni o'rganish muammolari quyidagilar:

1. Zardushtiylikning vatani qayer ekanligi.
2. Avestoning o'rganish masalalari.
3. Zardushtiylik dinining tarqalish bosqichlarini o'rganish.

"Avesto"ni tadqiq qilish va uni o'rganishni o'rta asrlarda yashab, ijod qilgan alloma Abu Rayhon Beruniy boshlab bergan bo'lsa (alloma o'zining "Osor ul-boqiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarida zardushtiylik dini haqida ancha mufassal fikr yuritgan), Evropada 1723 yil Jorj Bouje va ayniqsa fransuz olimi Anketil Dyuperronning xizmati katta bo'ldi. London universiteti professori Meri Boys Eron tarixi va madaniyatiga oid asarlar bilan zardushtiylikning o'rta asrlardagi va yangi zamonlardagi tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Meri Boys 1963-1964 yillarda Yazd vodiysi shimolidagi olib borgan dala-qazilma ishlari vaqtida zardushtiylikning e'tiqodlari va rasm-rusumlarini o'rgandi. Yuqoridagi ishlari natijasida Meri Boys 4 jilddan iborat "Zardushtiylik tarixi" nomli yirik ilmiy asarini tayyorladi va qisman nashr etdi. Shuningdek, Meri Boys zardushtiylikning qachon vujudga kelganligi haqida fikrlari munozaralidir.

Zardushtiylik dini paydo bo'lgan zamin haqidagi bahs uzoq asrlardan buyon davom etib kelmoqda. G'arb olimlaridan A.Meye va P.Tedekolar

zardushtiylikning vatani Parfiya (hozirgi Turkmaniston) degan farazni bildiradilar; Daristetir, Jeksonlar zardushtiylik Antropatenda, Xarsfel'd esa Midiyada paydo bo'lgan deyдилar; I.Markvart, B.A.To'raev, X.Nyuberg, E.Benvenist, E.E. Bertels, Gayger, Bartol'd, Shpigellar fikriga qaraganda, zardushtiylik Baqtriyada paydo bo'lgan; E. Gersvel'd o'zining dastlabki arxeologik qazilmalariga binoan hamda V.V.Struve, K.V.Trever, Yu.A.Rapoport, S.F.Oldenburg, V.M.Lukonin, B.I.Avdiev singari olimlarning fikricha, zardushtiylik Turonzamin (Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Farg'ona)da paydo bo'lib, so'ngra Eron va boshqa mamlakatlarga tarqalgan.

Zardushtiylik dini haqida fundamental tadqiqotlar muallifi Meri Boys uning bundan uch ming besh yuz yillar ilgari paydo bo'lgani va boshqa dinlarning shakllanishi va rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siridan tashqari, oliyanob din ekanligini, asrlar mobaynida quvg'inlikka uchrasa-da, unga e'tiqod qo'yganlar sa'y-harakati tufayli bizgacha etib kelganligini ta'kidlaydi. Meri Boys ham otashparaslar dinining muqaddas kitobi «Avesto» qadimgi Xorazm vohasida paydo bo'lganini qayd etadi.

Zardushtiylik ta'limoti va «Avesto» ning Xorazmda paydo bo'lganligi haqidagi faraz B. G'ofurov, N.Mallaev, X.Homidov, A.Qayumov, Y.Jumaboev, M.Ishoqov, M.Rahmonov, F.Sulaymonova, I.Jabborov, G.Dresvyanskaya, Y.Xo'jamurodov, A.Irisov, M.Qodirov, S.Hasanovlarning maqola va tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan.

Zardo'shtiylik dinining nainki qaerda paydo bo'lganligi, balki qachon paydo bo'lganligi xususida ham arxeologik qazishmalar davomida ajoyib natijalarga erishgan S. P. Tolstovning fikriga qaraganda, bu dalillar zardushtiylik dini va uning payg'ambari Zaratushturaning Xorazmda tug'ilganligini isbot qiladi. Avesto ham boshqa ko'plab muqaddas kitoblar singari murakkab va ko'p qatlamlidir - deb yozadi S. P. Tolstov, - biroq unda, shubhasiz, O'rta Osiyo tarixining arxaik davriga borib taqaluvchi ma'lumotlar ustunlik qiladi, hozir bizning qo'limizda bor materiallarga asoslanib, bu davrni yangi eradan avvalgi 1 ming yillikning birinchi yarmiga mansub deb hisoblash mumkin.

Zardushtiylik bilan bog'liq etnografik va lingivistik tadqiqotlar ham juda ko'p narsalarni oydinlashtirishi mumkin. Masalan B. I. Avdievning zardushtiylikning Xorazm bilan bog'liqligini quyidagicha izohlaydi: zardushtiylikning birinchi muqaddas olovi Xorazmda yoqilgan. «Avesto»da tasvirlangan «Aryonam Vayjo» degan mamlakat Xorazm bo'lishi extimol. «Avesto»ning hozirgi bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi 1324 yili ko'chirilgan nusxasi Kopengagen shahrida saqlanadi. 1771 yilda «Avesto»ni tarjima qilgan A.Dyupperon 1288 yilda ko'chirilgan qo'lyozma nusxasidan foydalangan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, sostoniyalar davridan «Avesto»ning 21 kitobi (nask) saqlanib qolgan.

O'rta Osiyoda yaratilgan turkiy qo'lyozmalar. Bugunki kunda dunyoda 25 dan ortiq turkiy xalqlar mavjud. Bu xalqlarning tili ming yillardan beri yashab

kelmoqda. So'zlashuvchilarning soni jihatidan turkiy tillar dunyoda 5-o'rinda turadi.

Turkiy qo'lyozmalar juda katta geografik hududda yaratilgan va ko'chirilgan. Bular: O'rta Osiyo, G'arbiy Sibir, Ular, Volga bo'yi, Shimoliy Kavkaz, Kavkaz orti o'lkalari, Qrim, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Kashmir, Misr, Iroq, Suriya, Bolgariya, Ruminiya, Yugoslaviya o'lkalaridir. Va bu qo'lyozmalar juda ko'p turkiy tillarda, tatar, qrim-tatar, bashqird, qozoq, va boshqa tillarda yaratilgan.

O'rta Osiyo qo'lyozmalari haqida gapirar ekanmiz, yana shuni ununtmasligimiz kerakki, O'rta Osiyoning chegarasi doimo o'zgarib turgan. Temuriylar davrida Xirot ham shu rayonga tegishli bo'lsa, Boburiylar davriga kelib, Hindistonning shimoliy qismi ham regionga qarashli bo'lgan.

Arab grafikasida bitilgan turkiy, qo'lyozmalarning eng qadimiysi XI asrga mansub bo'lib, u Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asaridir. U 1069-1070 (462 xijriy) da yozilgan. Uning bizgacha etib kelgan eng qadimiy qo'lyozmasi XIII asrda bitilgan. Undan keyingi qo'lyozma Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» asaridir. U 1073-1074 (466 xijriy) da yozilgan. Uning eng qadimgi qo'lyozmasi 1266 (664 xijriy).

Turkiy tilda eng ko'p qo'lyozma bitilgan davr XVIII-XIX asrdir. XI-XIII asrlarda esa ular barmoq bilan sanarli edi. Buning sababi: turkiy qo'lyozmaning ko'pi yo'qolib ketgan yoki u davrda asosan arab va fors tillaridagina qo'lyozmalar yaratilgan.

O'rta Osiyodagi ilk qo'lyozmalar Ahmad Yassaviyning «Hikmat» laridir. (1166 yilda-562 xijriyda vafot etgan). She'riy uslubda yozilgan bu hikmatlar o'sha davrdayoq devon shakliga keltirilgan va turkiyzabon aholi o'rtasida keng tarqalgan.

Temuriylar davriga kelib O'rta Osiyoning madaniy markazlari Samarqand bilan Xirot edi. Bu shaharlarda fanlarni o'rgatishga, she'riyatga va san'atga ko'proq e'tibor qaratilgan edi. Bu davrdagi shoirlardan XIV asr oxiri - XV asr boshlarida yashagan Xo'jandiy, XV asr birinchi yarmida yashagan Sakkokiy, Lutfiy (1366-1465), Atoyi (XV asr)larni eslab o'rish kerak. Sulton Husayin Boyqaro hukmronlik qilgan davrga kelib (1469-1506), she'riyat o'zining eng yuqori cho'qqisiga etishgan edi. Bu esa, mashhur shoirimiz mutafakkir Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq edi. Navoiydan tashqari Husayin Boyqaroning o'zidan tortib, Durbek va boshqa juda ko'p shoirlar etishib chiqqan edilar. Bu davrda juda ko'p forsiy zabon she'riy asarlar turkiy tilda qayta ishlanib, turkiy adabiyot boyitilgan. Bunday badiiy adabiyot namunalaridan tashqari Navoiy 1481-1482

(886 xijriy) yilda «Vaqfiya» asarini yozgan va bunda o'ziga qarashli bo'lgan er-mulkni Xirotdagi Ixlosiyya masjidiga vaqf qilib berish masalasi ko'tarilgan. 1488-1489 (894 xijriy) yillarda Xurosonda yashab xukmronlik qilgan podshohlarning tarixiga bag'ishlangan «Tarixi mulki Ajam» nasriy asarini yozgan. Bu asarning barchasi qo'lyozma shaklida vujudga kelgan.

Tarixdan ma'lumki, XVI asrda O'rta Osiyoni Shayboniylar sulolasi boshqargan. Ularning poytaxti ham Samarqand shahri edi. Bu sulolaning asoschisi bo'lgan Shayboniyxonning o'zi ham shoir bo'lgan (1506-1510) va o'sha davrdagi olim va shoirlarga homiylik qilgan. Uning saroyida «Shayboniynoma» asarining muallifi Muhammad Solih (1534-941 xijriy) yilda favot etgan. Shuningdek, «Tavorixi guzida Nusratnoma» nomli tarixiy asar muallifi (ismi no'malum) ham saroyda yashagan. Bu asar 1502-1503 (908 xijriy) yilda yozilgan. Bu davrda Binoiy isimli shoir yashagan. U forsiyzabon she'rlar yozgan va «Ajoyib-ul mahluqot» nomli asarini forsiydan turkiyga tarjima qilgan. 1525 (931 xijriy) yilda musulmon hukmronlarning umumiy tarixini yorituvchi «Zabdatul-asar» nomli ilmiy kitobi vujudga kelgan. Uning muallifi Nasrulloiy isimli tarixshunosdir.

XVI asrda Bobur Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. Boburning o'zi bu davrda «Boburnoma» nomli memuaridan tashqari aruz janriga bag'ishlangan «Mubayyin» nomli risolasini yozgan. Boburiylarning saroyida Baramxon isimli turkman shoiri yashagan. (1561 da vafot etgan). Uning o'g'li Abdurahim Mirzo ham shoir bo'lgan va «Boburnoma»ni fors tiliga tarjima qilgan.

XVII-XVIII asrga kelib, O'rta Osiyoning madaniy markazlari sifiga Buxoro va Xiva shaharlari ham qo'shildi. Buxoroda Imomqulixon (1640 yilda vafot etgan), Subxonqulixon (1702 yilda vafot etgan), Qulsharif (1692 yilda vafot etgan), So'fi Olloyor (1721 yilda vafot etgan), Saykaliy (1797 yilda vafot etgan), Turdi (1700 yilda vafot etgan), Obidiy (1828 yilda vafot etgan) kabi shoirlar yashab ijod etishgan. Xivada esa, turkman qabila boshliqlarining iltimosiga ko'ra 1661 yilda «Shajarayi tarokima» asarini va «Shajarayi turk» asarlarini yozgan Abulg'oz Bahodirxon, Hasanquli Axsaniy (XVII asr) yashagan. XVIII asr oxirida ismi noma'lum bir tarixshunos Shayboniyning qilgan yurishlariga bag'ishlangan «Shayboniynoma» asarini yozgan.

XIX asrda Xivada podshah saroyida bir qator tarixshunoslar, shoirlar, tarjimonlar yashashgan. Masalan, shoir Munis (1778-1829) va uning jiyani Ogahiy (1809-1874) dunyo yaratilgandan beri 1825 yilgacha hukmronlik qilgan xonlarning tarixini yorituvchi «Firdavsul iqbol» asarini yozishgan. Keyinchalik Ogahiy xonlarning topshirig'i bilan bir qator salnomalar yaratgan: 1825-1843 yillarga doir «Riyozud-davla» solnomasini, 1843-1846 yillarga doir «Zubdatul-tavorix»

solnomasini, 1845-1855 yillar voqeasiga doir «Jamiu voqioti sultoniy» solnomasini, 1855-1864 yillarga doir «Gulshani davlat» solnomasini, 1864-1873 yillarga doir «Shohiul-iqbol» solnomasini yozgan. Eshmurod Al-Alaviy ismli mudarris 1804 yildan 1864 yilgacha davom ettirgan inoqlar sulolasi hukmronligiga bag'ishlangan «Tarixi Sayyid Muhammadxoniy» (1861 yilda) va «Tarixchayi Muhammad Yoqubxo'ja» tarixiy asarini (1863-1864 yillarda) yozgan. Bundan tashqari Xivada Komil Xorazmiy (1825-1899), Feruz (Muhammad Rahimxon-II) (hukmronlik yillari 1865-1910) yashab ijod etganlar.

XIX asr boshlariga kelib, Qo'qon ham madaniy markazlar safiga qo'shildi. Bu erda Amir Umarxon (1810-1822) boshchiligida fazliiy Namangoniy, Gulxaniy, Xozik, Maxmur, Muqimiy, Fitrat, Xamza kabi shoirlar etishib chiqdi. XX asr boshlarida esa Rojiiy (1908 yilda vafot etgan), Kameb (1922 yilda vafot etgan), Mirza (1922 yilda vafot etgan) kabi shoirlar yashab ijod etishgan.

Bulardan tashqari bir qator ilmiy asarlar fors tilidan turkiy tilga tarjima qilingan. Jumladan: Tarixiy asarlardan Mirxondning (XV asr) «Ravtus-safo» asari, uni XIX asr o'rtalarida Rojiiy nomli shaxs tarjima qilgan, Mexdixonning (XVIII asr) «Durrayi Nodiriy» asari, uni Muhammad Nazar va Ogahiy (XIX asr) tarjima qilishgan. Muhammad Xakimning «Muntaxabot-tavorix» asari. Uni XIX asrning ikkinchi yarmida ismi noma'lum shaxs tarjima qilgan. Tasavvufga oid 1696-1697 yillarda Muhammad Sodiq Yangixisoriy tomonidan yozilgan «Jomiul-makomot» asari, uni Abulboqi ibn Baxouddin ibn Maxdumi A'zam tarjima qilgan. Shuningdek, Vosifiyning «Badoyiul-vaqoyi» nomli memuar asari (XVI asr) Dilovar ismli shaxs tomonidan tarjima qilingan. Albalxiyning geografiyaga oid «Majmaul-g'aroyib» asari (1566-1567 yil). Muhammad Xusayin Mahdum tomonidan tarjima qilingan. Bundan tashqari Amir Temurning biografiyasiga oid «Tuzuki Temuriy» asari ham fors tilidan 1835-1836 yillarda Xotifquli ismli shaxs tomonidan turkiy tiliga tarjima qilingan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Yozma tarixiy adabiyotlarning vujudga kelishi insoniyat madaniyati taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatganligini misollar bilan tushuntirib bering.
2. Yozuvlar vujudga kelgunga qadar qanday asarlar tarixni o'rganish uchun yagona manba hisoblangan?
3. Xalqimizning o'tmishidagi yozuvlari xaqida gap borganda nechadan ortiq yozuvlar haqida gapirishga to'g'ri keladi?
4. Zardo'shtiylik dinining tadqiqotchilaridan kimlarni bilasiz?

5. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ni yo‘qotishga urinish qachondan boshlangan edi?
6. Qaysi hududlar tarixini o‘rganishda "Avesto" muhim manba hisoblanadi?
7. Turkiy qo‘lyozmalar qaysi geografik hududlarda yaratilgan va ko‘chirilgan?

3-mavzu: O'RTA OSIYO XALQLARINING QADIMGI DAVR TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

Reja:

1. O'rta Osiyoda tarixiy bilimlarning paydo bulishi va rivojlanishi.
2. Yunon-makedon bosqini va ularga qarshi kurashning tarixiy adabiyotlarda yoritilishi.
3. Yunon va Rim tarixshunosligida O'rta Osiyoning qadimgi davr tarixi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: *O'rta Osiyoda tarixiy bilimlarning paydo bulishi va rivojlanishi, yunon-makedon bosqini va ularga qarshi kurashning tarixiy adabiyotlarda yoritilishi, O'rta Osiyoning qadimgi davr tarixining Yunon va Rim tarixshunosligida berilishi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.*

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Oromiy yozuvi, Markaziy Osiyo xalqlarining yozuv tarixi, tarixiy bilimlarning doimiy ravishda yo'q qilinishi, Aristobul, Ptolemey Lag, Nearx, Arrian, Strabon, stadiy, Yaksart, Maroqanda, «Anabasis Aleksandra», Sansafar, Umarg, To'maris, Shteyn, "Tarixiy kutubxona", "Umumiy tarixi", yunon-rim manbalrining o'ziga xos hususiyati.*

Tarixiy bilimlarning paydo bulishi va rivojlanishi. Markaziy Osiyo xalqlari dunyodagi eng boy tarixga ega bo'lgan xalqlardan biri. Bu o'lkada qadim-qadimdan yashab kelgan xorazmiylar, baqtriyaliklar, sug'diyonaliklar, parfiyonlilar, davonlar, qanglar, kushonlar va boshqalar o'z paydo bo'lishi va rivojlanish, taraqqiy qilish tarixlariga manond o'z madaniyatlari va yozuvlariga ham ega bo'lganlar. Hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan manbalar Markaziy Osiyo xalqlarining yozuv tarixi yoshini tahminin 2300-2500 yillar atrofida deb hisoblaydilar. Xorazm, baxtar va sug'dda eron tillari bir necha lahjalardan iborat bo'lgani kabi, turkiy tillar ham xilma-xil lahjalarni o'z ichiga oladi. Uzoq yillar o'tishi bilan eron tillari zaminida fors-tojik tili, turkiy tillar laxjalarini zaminida turkgo'y xalqlar tillari paydo bo'lgan. Qadim-qadimdan bu hududda yonma-yon, elkama-elka kelgan doimo iqtisodiy va ijtimoiy, madaniy jihatdan aloqador va bog'lanib ketgan eron va turk tillarida so'zlashuvchi tili jihatidan ham bir-biriga kuchli ta'sir o'tkazganlar. Buni nafaqat og'zaki so'zlashuv tilida, balki yozma madaniyatda ham ko'rish mumkin.

Miloddan avvvalgi I ming yillik o'rtalarida Eron, Markaziy Osiyo va boshqa o'lkalarida oromiy yozuvi keng tarqalgan. Markaziy Osiyoni Aleksandr Makedonskiy bosib olgach, bu erga yunon yozuvi kirib keladi. Xullas, bu davrda

Ahmoniyning oromi yozuvi asosida parfiyon, sug'd, bahtar va Xorazm yozuvlari paydo bo'lgan. Keyinchalik runn (Urxun-Enasoy), uyg'ur kabi bir qator yozuvlar vujudga kelgan.

Markaziy Osiyoda uzoq vaqtlar qo'llanib kelgan Xorazm va Sug'd yozuvlari ham qadimiydir. Xorazm yozuvi oromiy yozuvining qadimiy an'alarini o'zida saqlab qolgandi. Buni rus olimi S.P.Tolstov o'z hamkasblari bilan Xorazmdagi Qo'yqirilgan qal'asida arxeologiyaga oid tadqiqotlar uyushtirib, topgan ashyolar asosida isbotladi. Bu erdan u Xorazm yozuvi namunalarini topdi. Bu yozuvlar qadimgi Xorazm tangalari, uy-ro'zg'or buyumlarida aks ettirilgan edi.

Massagetlar va shaklar, shuningdek so'g'diylarning yozuvlari bitilgan ba'zi manbalar bizgacha etib kelgan. Jumladan, So'g'diyonadan topilgan mil.av. II asrga mansub so'g'd tangalariga zarb qilingan "Geray jabg'u", "Katfuz jabg'u" so'zlariga qarab arxeolog olimi O.N.Smernova so'g'diylar turk tilida so'zlashganlar degan xulosaga keldi. Tabariy ham buni so'g'd lashkarboshilari va hokimlari turk bo'lganligi bilan tasdiqlaydi.

O'rta Osiyo davlatlari taraqqiyotiga nazar tashlasak, doimiy bosqinchilik yurishlari natijasida davlatlar ko'p bora o'zgarib, yangilari paydo bo'lib turgan. Shu bilan bog'liq ravishda tarixiy bilimlar ham doimiy ravishda yo'q qilingan. Hokimiyatga kelgan yangi davlat rahbari ko'p hollarda eski davlat tarixi bilan bog'liq tarixiy, diniy, ilmiy asarlarni, ko'pincha yo'q qilgan. Masalan, "Avesto"ning katta qismi Aleksandr Makedonskiy tomonidan yo'q qilingan. Bunday salbiy, noxush voqealar yurtimiz tarixida ko'p bo'lganligi uchun tarixiy bilimlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'rta Osiyo xalqlari ba'zi davrlarda Hindiston va Xitoy bilan bir davlat bo'lib yashagan. Miloddan avvalgi II asrda yashagan Xan saroyi elchisi CHjan-Syan asarlari, epigrafik yodgorliklar va arxeologik qazuv natijalari bunga guvohlik beradi. Bu ishlar o'sha zamonlardagi madaniy hayot muammolari, ishlab chiqarish kuchlari, tarixiy toponomika, tarixiy jo'g'rofiya, iqtisodiy aloqalar, xalqimiz etnogenezi to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi.

Yunon-makedon bosqini va ularga qarshi kurashning tarixiy adabiyotlarda yoritilishi. Miloddan avvalgi 329 yilda makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari og'ir sharoitlarda Hindiqush tog' tizmalaridan o'tib, O'rta Osiyo hududlariga etib keldilar. Aleksandrning bu harbiy yurishlari uning istagiga muvofiq shohni kuzatib kelayotgan ba'zi adib-yozuvchilar va muarrixlar tomonidan yozib borilishi ko'zda tutilgan edi. Makedoniyalik lashkarboshilardan Aristobul, Ptolemey Lag va dengizchi darg'a Nearx ana shunday dastlabki tarixchi yozuvchilar edilar. Bu

adiblarning xotiralari keyinroq o'tgan Arrian, Strabon va boshqa muarrixlarning asarlarida keltirilgan. Ammo yozma xotiralarining ko'pchilik qismi bizgacha etib kelmagan.

Aleksadrning Sharqqa harbiy yurishlari vaqtida qanday voqealar yuz berganligi undan 300-400 yil keyin davrda yashagan tarixchilarning asarlarida tasvirlangan. Ular o'z asarlarida Aleksadr zamondoshlarining asarlari va esdaliklaridan foydalanganlar.

Aleksadrning O'rta Osiyoga yurishlari tasviri esa yunon tarixchisi Arrian (miloddan avvalgi II asr) va Rim tarixchisi Kvint Kurtsiy Ruf (milodning I asri) asarlarida saqlanib qolgan. Aleksadrning Sharqqa qilgan yurishlarini mufassal yoritgan Plutarx (I-II asrlar) bilan Yustin (II asr) esa uning O'rta Osiyoga qilgan yurishlari haqida deyarli og'iz ochmaydilar. Sitsiliyalik Diodorning «Tarixiy kutubxona» asarida (miloddan avvalgi 1 asr) ko'p o'rinlar yo'qolgan. Bu asar 17 kitobdan iborat bo'lib, Aleksadrning Amudaryo ortiga yurishi tasvirlangan boblarning faqat sarlavhalarigina saqlanib qolgan.

Tarixshunoslik an`analariga ko'ra, Kvint Kurtsiy Ruf asari ishonchli emas, muallif badiiy so'z jimjimadorligiga e'tibor beruvchi, turli-tuman latifalarni va badiiy to'qimalar bilan asarini bezovchi faylasuf-ritorikdir, degan fikr hukm suradi. Tarixchi asarini bunday yuzaki baholash haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Kurtsiy Rufning juda ko'p ma'lumotlari boshqa tarixiy manbalar bilan taqqoslanganida yuqoridagi fikrlarning to'g'ri ekanligining guvohi bo'lamiz.

Ammo Kurtsiy Ruf asarlariga nisbatan jangchi adib Arrian risolasida O'rta Osiyo voqealari bayoni ancha ishonchli hisoblanadi. Arrian o'zi Osiyodagi janglarda qatnashgan. Uning asari aslida harbiy san`atga bag'ishlansada, u Aleksadr zamondoshlari Aristobul va Ptolemey Lag esdaliklaridan foydalangan. Ba`zi o'rinlarda ulardan ko'chirmalar keltirilgan. Aristobul bilan Ptolemey Lag asarlarida faqat o'zlari qatnashgan voqealarni bayon etganliklari uchun Arrian ularda bo'lmagan voqealarning etishmagan o'rinlarini Kurtsiy Ruf kitobidagi hikoyalar bilan to'ldiradi.

Makedoniyalik Aleksadr va uning davriga bag'ishlangan juda ko'p adabiyotlar bo'lishiga qaramay, bu fothiping O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqida juda kam mualliflar yozganlar.

Ma'lumki, miloddan avvalgi 329 yilda Gretsiya-Makedoniya qo'shinlari So'g'diyona hududlariga bostirib kirdilar. Ular bu erda mahalliy aholining juda qattiq qarshiligiga uchradilar. Milliy qahramon Spitamen rahbarligidagi xalq

qo'zg'oloni tarixdan ma'lum. Aleksadrga qarshi o'rta osiyolik xalqlarning urushlari uzoq davom etdi.

Tarixiy manbalardan So'g'diyona poytaxti Maroqanda (Samarqand) qanday qilib makedoniyaliklar qo'lga o'tib qolganligini unchalik ravshan tasavvur etolmaymiz. Kvint Kurtsiy Rufning yozishicha, Aleksadr shaharda qo'shin qoldirib, atrofdagi qishloqlarga o't qo'ygan. Kurtsiy Rufning guvohligiga ko'ra Marokanda qal'asi devorini uzunligi 70 stadiy bo'lib, shahar ichkarisida yana bir devor bo'lgan.

Bunday mustahkam shahar uzoq qamal qilinmay, kon to'kilmay olinganini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchup sovet tarixchisi «Marokanda shahri jangsiz taslim bo'lgan» degan taxminni bildiradi.

Olimlar fikricha, bu fikr etarli tarixiy asoslanmagan. Aleksadr qo'shinlari Maroqandani egallagach, Yaksart (hozirgi Sirdaryo) tomonga yuradi. Bu yurish vaqtida Aleksadr qo'shinlariga qo'zg'olonchi so'g'dliklar xujum qiladilar. 30 ming qo'zg'olonchi Mug' tog'idagi oyoq etmas istehkomlarga o'rnavgan edilar. Makedoniyaliklar juda katta talafotlar evaziga Mug' qal'asini egallaydilar. Mudofaachilar juda katta talafot ko'radilar. Ularning ko'pchiligi qirilib ketadi. 8 ming yarador, ayollar va bolalar asirlikka olinadi. Oradan ko'p o'tmay, So'g'diyona yana 7 shahar istilochilarga qo'zg'olon ko'taradi. Diodor ma'lumotlariga qaraganda, Aleksandr qo'zg'olonchilardan 120 mingini o'limga xukm etadi. Bu raqam mubolag'ali bo'lib ko'rinsa-da, qo'zg'olon qanchalik keng tus olganligini ko'rsatadi.

Aleksadr O'rta Osiyoda yangi shaharlar barpo eta boshlaydi. Chekka Aleksadriya shahri (hozirgi Xo'jand) Aleksadr rejasi bilan qurilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Chekka Aleksadriyada grek-makedon qo'shinlarining horib-charchagan, yarador bo'lgan yoki qarib, qattiq janglarga yaramay qolgan jangchilari, yaqin-atrofdan ixtiyoriy ravishda kelgan so'g'diyonaliklar joylashtirilgan. Shahar aholisining ma'lum qismi asirlardan iborat edi. Aleksadr rejasiga muvofiq, bunday shaharlar makedoniyaliklarning boshqa istilolari uchun tayanch istehkomlariga aylanishi kerak edi. Ammo Aleksadr istilochilari O'rta Osiyo xalqlarini uzoq vaqt asoratda tutib turolmadi.

Miloddan avvalgi 329-327 yillarda Aleksadr o'ziga qarshi bosh ko'targan So'g'diyonani uch marta qaytadan zabt etishga majbur bo'ldi. Ayniksa O'rta Osiyo qabilalarining milliy qahramoni Spitamen boshchiligidagi vatanparvar kuchlarning istilochilarga qarshi ozodlik kurashi makedoniyaliklar uchun katta xavf tug'dirar edi. O'ziga qarshi xalq harakatlarini bostirish uchun Aleksadr juda ko'p harbiy va

moddiy kuchlarini sarflashdan tashqari mahalliy zodagonlar bilan «do'stona» aloqalar o'rnatishga harakat qildi. Aleksandr mahalliy zodagonlarning siyosiy ta'sirini va er-mulklarini kengaytirdi. U mahalliy zodagonlarga saxovat bilan mol-dunyo, qul, cho'rilar sovg'a qilishdan tashqari, So'g'diyonaning boy va ta'sirli mansabdori Oksartning qizi Ravshanak (yunon-rim manbalarida Roksana) ga uylandi. Aleksandrning Ravshanakka uylanishi uning So'g'd-Baqtriya zodagonlari bilan aloqalarini mustahkamlash bilan birga ularni o'z tarafiga og'dirib olishga imkon berdi. Aleksandr mana shu yangi siyosati bilan O'rta Osiyoni batamom o'ziga bo'ysundirishga erishdi, shunga qaramay, Aleksandrning qo'shinlari orasida uning siyosatidan norozi bo'lgan ayrim lashkarboshilar isyon ko'tarishga urindilar. Ammo ularning noroziligi shafqatsizlarcha bostirildi.

Mahalliy zodagonlarning makedoniyaliklar tarafiga utishi Aleksandrga O'rta Osiyodagi dehqonlar va chorvador jamoalari qarshiligini engishga hamda O'rta Osiyoni o'zining juda katta monarxiyasi qatoriga qo'shib olishga yordam berdi. Makedoniya istilochilariga ittifoqchi bo'lib olgan mahalliy zodagonlar O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotining barcha sohalarida hukmron siyosiy va iqtisodiy kuchga aylandi. Keyinchalik xam Aleksandr va uning vorislari (Salavkiylar va boshqalar) O'rta Osiyo xalqlari hayotida tarixan tarkib tolgan bu vaziyat bilan hisoblashishga majbur edilar.

Xullas, Makedoniya istilosidan so'ng O'rta Osiyo xalqlarining xalqaro iqtisodiy, savdo aloqalari kuchayib bordi. Ayniqsa O'rta osiyoliklarning Aleksandr qo'shinlari fath etgan Hindiston bilan yaqin aloqalar o'rnatishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. So'g'diyona va Baqtriyada ham yangi-yangi shaharlar qad ko'tardi. Tarixiy manbalarda Aleksandr va uning lashkarboshilari O'rta Osiyoda 12 ta shahar bunyod etganligi aytiladi. Shu bilan birga olimlardan I. Sh. Shifman Aleksandr qo'shinlarining So'g'diyonadagi vayrongarchiliklarini Chingizxon istilosiga o'xshatadi. Bu vayrongarchiliklar oqibatida mamlakat xalqi keskin kamayib ketdi. So'g'd aholisi Vatanlarini tark etib, boshqa yurtlarga bosh olib ketishdi. Grek-makedonlar Farg'ona, Ettisuv, Markaziy Osiyoni ham mustamlakalariga aylantirdilar. Aleksandrning istilochilik siyosatini uning vorislari (selevkiylar) davom ettirdilar. Aleksandr vafotidan 75 yil o'tgach, Baqtriya satrapi (noibi) Diodot o'zini mustaqil hukmdor deb e'lon qildi. Pompey Trog mubolag'a qilib ezishicha, minglab shaharlar Diodot qo'l ostiga o'tdi. Selevkiylar davlati miloddan avvalgi 255-250 yillarga kelib bo'shashdi.

Yunon va Rim tarixshunosligida O'rta Osiyoning qadimgi davr tarixi. O'zbek davlatchiligi tarixi haqida eng qadimgi manbalar "Avesto", Eron (Behustun qoyatosh bitiklari, Suza saroyi devorlaridagi yozuvlar va hokazo), hind, Xitoy

manbalari qatoriga yunon-rim manbalarini ham kiritishimiz mumkin. Ulardan Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Polibiy, Diador, Arrian, Strabon, Pliniy, Plutarx, Kursiy Ruf, Pompey Trog va boshqa yunonlik va rimlik mualliflar qoldirgan yozma guvohlilarda miloddan avvalgi 1 ming yillikning birinchi yarmidan boshlab o'tgan bir necha asrlik davrga oid ko'plab ma'lumotlar uchraydi.

Yunon va Rim olimlarining tarix va geografiyaga oid asarlari ma'lum darajada musulmon, shu jumladan yurtimiz olimlari Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy va boshqalarning ijodiga asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbek davlatchiligi tarixi haqidagi yunon-rim manbalarida boshqa xitoy, hind, eron manbalrida uchramagan ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Eng qadimgi davrdagi qabilalar, ularning turmush tarsi, davlatchilikka asos solganlari, ularga qo'shni xalqlarning o'zaro aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Masalan, massaget qabilalarining dini, urf-odatlari, malikalari To'maris haqida va Kirning ayol malikadan sharmandalarcha mag'lubiyatga uchragani haqida faqat Gerodot va Poliyen manbalaridagina uchraydi. Biz Shiroq afsonasi haqida ham faqat Poliyenning asari orqali bilishimiz mumkin.

O'rta Osiyo Ariy aholisining bir qismi bo'lgan Xorazmiylar mashhur qadimgi yunon tarixchisi Geradotning (miloddan avvalgi V asr) «Tarix» kitobida ham tilga olinadi. Geradotning fikricha Xorazmiylar O'rta Osiyoda keng vodiylarni egallaganlar. Yirik qadimgi grek tarixchisi Arrian Flaviy (taxminan 95-175 yy.) o'zining «Aleksandrning yurishlari» («Anabasis Aleksandra») asarida xorazmlik podshoh Fratafern (Farasmon) haqida va uning 1500 otliq qo'shin bilan Aleksandr oldiga kelganligi haqida hikoya qiladi.

Rim tarixchisi Kvint Kurtsiy Ruf (milodning 1 asri) o'zining «Buyuk Aleksandrning tarixi» asarida Xorazm podshohi Fratafern haqida, uni massaget va sak qabilalarining Aleksandr zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatiga qo'shilganligi haqida hikoya qiladi.

Strabonning fikricha, xorazmliklar massaget elatlaridan tashkil topgan ekan. To'maris afsonasi ham xorazmliklar haqidadir.

Eron shohi Kir o'z yurishida massaget qabilalarini tor-mor qilishni o'ylab harakat qiladi. Kirning yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Doro ikkinchi marta yurish qilishga hozirlanadi.

Poliyening yozishicha, Doroning hujumi xabarini eshitgan massaget va saklarning uchta podshosi Sansafar, Umarg va To'maris personajlarining nomlariga juda o'xshash. To'miris - Geradot tasvirlagan massagetlar «malikasi»

To'marisning xuddi o'zginasidir. Umarg - Ktesiy rivoyatlaridan birida uchraydigan nom, saklar podshosi Sakoforgga kelganda, bu nom, shubhasiz, Xorazm Siyovushlari sulolasidan Shaushafarning o'zidir. Shundan ma'lum bo'ladi-ki, derbeklarning ayol hokimi Xaumavarga, saklarning va Xorazm hokimi Doroning hujumiga qarshi ittifoq tuzib mudofaa uyushtirganlar.

Gerodot, Ktesiy va boshqalarning yozishicha massagetlarda ayollar yuqori mavqeni egallaganlar. Massaget qabilalari haqida ayolga hurmat kuchli bo'lgan. Shu tufayli bo'lsa kerak, Gerodot asarlarida «Malika To'maris», Ktesiy hikoyalarida esa «Malika Sparetra» boshchiligidagi ayollar qo'shinlari to'g'risida to'lqinlanib yozadilar. To'maris qissasining qisqacha mazmuni shundan iboratki, To'maris miloddan avvalgi VI asrda Massaget halqiga bosh bo'lgan Xorazmga tajovuz qilgan Eron shohi Kirga qarshi mardona kurash olib borgan Malikadir. Bu ayol haqida qadimgi grek tarixchisi Gerodot o'zining «Tarix» kitobida «Kirning massagetlarga qarshi yurishi» degan sarlavha ostida hikoya qiladi. Mazkur hikoyaning keng bayoni «Vestnik drevney istorii» jurnalida bosilgan, V. V. Latishevning «Drevnie pisateli, o Skifii i Kavkaze» maqolalari 1974 va uning qisqacha mazmuni «O'zbekiston SSR tarixi», N. Mallaevning «O'zbek adabiyoti tarixi kitoblarida keltirilgan.

Strabonning o'zbek davlatchiligi haqidagi ma'lumotlari qimmatli bo'lib, uning ta'kidlashicha Massaget va Sak qabilalari ittifoqiga xorasmiylar ham kirgan. Axamoniylar davrida xorasmiylarning yangi to'lqini Amudaryo etaklariga janubdan kelgan degan fikrlar ham mavjud. Lekin bu fikr hali arxeo-logik jihatdan isbotlangan emas.

Gekatey va Gerodotlar xorazmiylarni O'rta Osiyo janubiy rayonlari qabilalari bilan aloqalari to'g'risida ma'lumotlar beradilar. Gekatey ko'rsatishicha, miloddan avvalgi VI asrda xorazmiylar parfyanelardan sharqda yashaganlar. Strabon Xorasmiylarni etnik jihatdan "sak va massagetlar"ga mansubligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning antik davrdagi tarixini o'rganishda qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari hamda geograf olimlarining asarlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Gerodot (miloddan avvalgi 490-480 yillar o'rtasi - 425 y.) - yirik qomusiy olim, tarix fanining "ota"si, asli Kichik Osiyoning Galikarnas shahridan, 455-447 yillari Yevropa, Osiyo va Misr bo'ylab sayohat qilgan. U Ellada va Sharq mamlakatlari (Liviya, Misr, Assuriya, Vavilon, Eron va Skifiya)ning qadim zamonlardan to miloddan avvalgi 479-yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan hikoya

qiluvchi 9 kitobdan iborat "Tarix" nomli asari bilan shuhrat topgan. Bu asar umumiy tarix yo'nalishida yozilgan birinchi kitob hisoblanadi. Shu tufayli ham Geradot, Sitseronning (miloddan avvalgi 106-43-yy.) so'zlari bilan aytganda, tarix fanining "ota"si hisoblanadi.

Geradot, garchi o'zi bayon etayotgan voqealar ustida chuqur mulohaza yuritmasa ham, ularni to'g'ri bayon etishi, o'zga xalqlar va mamlakatlar tarixiga hurmat nuqtayi nazaridan qarashi bilan ba'zi tarixchilardan ajralib turadi.

Geradotning asarida O'zbekistonning qadimiy xalqlari bo'lmish agrippiylar, issedonlar, massagetlar, daylar va saklar haqida, ularning turmushi, urf-odatlarini hamda qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

Gerodot ahamoniylar hukmronligi davrida boshqaruvi haqida shunday degan: Kir va uning o'g'li Kambiz hukmronlik yillarida (miloddan avvalgi 529-522-yillarda) ularga qaram mamlakatlardan muayyan bir soliq olinmagan. Biroq tobe mulklardan ularga sovg'a-salomlar yuborib turilgan. "Doroni forslar savdogar deyishiga sabab,-deb yozadi Herodot, - u birinchi bo'lib soliq tizimini joriy etganligidadir".

"Tarix"ning Shteyn tarafidan tayyorlangan tanqidiy matni 1869-1871 yillarda chop etilgan. Asar ingliz (Roulinson, London, 1856-1860) hamda rus (F.G. Mishchenko, Moskva, 1858-1860) tillariga tarjima qilingan. 1982 yilda asarning mamlakatimiz tarixiga oid qismlari zarur izohlar bilan A.I.Davatur, D.P.Kallistovhamda I.A.Shishova tornonidan yangidan nashr etilgan.

Gerodotning tarixiy an'alarini davom ettirgan yunon tarixshunosi Ktesiy Kichik Osiyodagi Knid shahridan bo'lgan. U miloddan avvalgi 414 yildan boshlab, ahamoniylar podshosi Artakserks II saroyida tabib vazifasini bajargan. Podsho saroyida u Sharq chegaralarida joylashgan uzoq shaharlar, davlatlar va xalqlar haqida ko'p hikoyalar eshitgan. Erondan yurtiga qaytganidan keyin Ktesiy qadimgi forslar tarixini yoritishni rejalashtirgan. Ammo to'plangan ma'lumotlar aynan forslardan tashqari keng tarix tasavvuriga asos solgan.

Ktesiy keltirgan ma'lumotiga ko'ra Eron podshosi Kir miloddan avvalgi VI asrda saklar podshosi Amorg'ning xotini Sparetra bilan jang qilgan. Kir shu jangda halok bo'lgan, uning o'limining To'maris bilan jangga aloqasi yo'q deb aytib o'tgan. Bular Gerodot keltirgan ma'lumotlarga butunlay qarama-qarshi. Bundan tashqari Ktesiy Baqtriya davlati haqida ham yozib qoldirgan. U ossuriyalik podshoh Nin Belidning Baqtriyaga harbiy yurishi haqida so'zlab, Nin baqtriyalik ayol Semiramidaga uylanganini aytadi. Semiramida miloddan avvalgi

IX-VIII asr boshlarida Ossuriya malikasi bo'lgan. Ninning Baqtriyaga qarshi yurishida Semiramida ham qatnashgan va ular Baqtriya podshosi Aksiart bilan obdon urushganlar. Xullas, Baqtriya davlatida hukmronlik qilgan sulolalar haqida haqiqatdan ko'ra afsonalar ko'proq uchraydi.

Qadimgi yunon tarixchilaridan Gekatey Milet shahridan bo'lib, (miloddan avvalgi VI-V asrlar) olimlarning fikriga ko'ra birinchi bo'lib ahamoniylar o'lkalarining ro'yhatini keltirgan va qadimgi Sharq xalqlari haqida xabar qilgan. Ular orasida O'rta Osiyo xalqlari haqida ma'lumotlar ham bor.

Diodor (miloddan avvalgi 90-21yillar) yirik tarixchi olim, asli Sitsiliyaga qarashli Argiriya shahridan. U "Tarixiy kutubxona" nomli 40 kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Umumiy tarix yo'nalishida yozilgan bu asar, asosan Yunoniston va Rimning qadim zamonlaridan to milodning I asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Unda Sharq xalqlari, shuningdek, O'zbekistonning qadimiy xalqlari skif, sak, massaget, baqtriyaliklar, yurtimizning Eron bilan bo'lgan munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Diodorning mazkur asari ko'p jihatlari bilan ko'chirma - kompilyatsiya hisoblanadi. Muallif Efor, Polibiy asarlaridan keng foydalangan. Bundan tashqari, ko'p hollarda bayon etilayotgan voqealar uzviy bog'lanmay qolgan. Shunga qaramay, bu asar dalillarga boy va katta ilmiy ahamiyatga egadir.

Diodorning asari to'la holda bizning zamonamizgacha yetib kelmagan. Uning faqat 15 kitobi - qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya qiluvchi 1- 5-kitoblari, Yunoniston hamda Rimning Yunon-Eron urushlari (miloddan avvalgi 500-449)da to miloddan avvalgi 301-yilgacha bo'lgan tarixini O'z ichiga olgan 11-20-kitoblarigina saqlangan, xolos.

Bu asar 1774-1775-yillari L.Alekseev tomonidan olti qismda va 1874- 1875-yillari F.G. Mishchenko tarafidan ikki qism qilib nashr etilgan.

Polibiy (miloddan avvalgi 201-20) - yirik yunon tarixchisi, 40 kitobdan iborat "Umumiy tarix" asari bilan mashhur. U Yunoniston, Makedoniya, Karfagen, Misr, Suriya va Rimning 220-146-yillarorasiidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Umumiy tarix yo'nalishida yozilgan bu asarning katta qismi saqlanmagan, bizgacha faqat 1-5-kitoblargina yetib kelgan, xolos.

Polibiyning "Umumiy tarixi" daliliy ma'lumotlarga boyligi, voqealarning nisbatan xolisona yoritilishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Unda Oks - Amudaryo va Yaksart - Sirdaryo haqida, Antiox 1 ning Baqtriya podshohi Eftidemga qarshi harbiy yurishi haqida muhim ma'lumotlar bor.

"Umumiy tarix"ning matni 1889-1905-yillar orasida to'rt jildda Leyptsigda chop etilgan. Uning inglizcha (V.R.Paton, London, 1922-1927; ikkinchi nashri, London, 1957-1960) va ruscha (F.G.Mishchenko, 1-3-jildlari. M., 1890-1899) tarjimalari mavjud.

O'zbekistonning qadimiy tarixini o'rganishda Yunoniston va Rim tarixchilarining asarlari benihoyat qimmatlidir.

Uning yozishicha sak podsholari Saksafar (Xorazm hukmdori), Amorg'(saklar podshosi), To'maris (massagetlar malikasi), Doroga (Dorush) qarshi kurash rejasini tuzib turganlarida, ular huzuriga Shiroq ismli otboqar keladi va agar oilasi va tirikchiligidan xabar olib turishga va'da berilsa, yakka o'zi dushman hafvini qaytarishga urinib ko'rajagini aytadi. Podshohlar taklifini qabul qilib, qasam ichadilar. Shiroq afsonasi haqida biz faqat Poliyenning ma'lumoti orqaligina bilishimiz mumkin.

Strabon (miloddan avvalgi 63 - milodning 23) qadimgi Yunonistonning atoqli geograf olimlaridan, asli amosiyalik (Pont podshohlarining qarorgohlaridan), nufuzli va badavlat oiladan chiqqan, mashhur yunon faylasufi Aristotelning (miloddan avvalgi 384-322) shogirdi, qariyb 80 yil umr ko'rgan.

Strabonni dunyoga tanitgan uning 17 kitobdan iborat "Geografiya" nomli asaridir. Asarning 1-2 kitoblari "Muqaddima" deb ataladi va unda geografiya ilmi va uning hokimlar, sarkardalar va savdogarlar faoliyatidagi o'rni va roli haqida gap boradi. Eratosfen, Poseydon va Polibiyning yer tuzilishi haqidagi ta'limoti tanqid qilinadi, yer yuzini tavsiflash haqida umumiy tushuncha beriladi.

3-10-kitoblarida Yevropa mamlakatlarning tavsifiga, shundan 8-10-kitoblar Ellada va unga tutash mamlakatlarga bag'ishlangan.

Asarda Osiyo mamlakatlariga katta o'rin berilib, ular to'g'risida 11-16-kitoblarda ma'lumot berilgan. 17-kitob Afrika mamlakatlariga bag'ishlangan.

Strabon Polibiyning "Umumiy tarix"ini davom ettirib, unga miloddan avvalgi 146-31 yillar orasida bo'lib o'tgan voqealarni qo'shgan. Afsuski, bu muhim asar bizning zamonimizgacha yetib kelmagan, lekin uning ayrim qismlari, xususan O'zbekiston tarixidan xabar beruvchi ayrim parchalar olimning "Geografiya" nomli asariga kirib qolib saqlangan.

Strabonning "Geografiya"sida Girkaniya, Parfiya, Baqtriya va Marg'iyonaning tabiiy holati, shaharlari, qisman ularga borish yo'llari, Oxa (Harrirud), Oks va Yaksart daryoiari haqida, O'zbekistonning qadimiy xalqlari - sak, massaget, day, atasiya, toharlar hamda xorazmliklar va ularning kelib chiqishi, bu xalqlarning

turmushi, urf-odati va e'tiqodi, shuningdek Parfiya va Baqtriyaning miloddan avvalgi III asrning birinchi choragidagi ichki ahvoli va o'zaro munosabatlari haqida muhim va qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Strabonning ushbu asari 1844 va 1848 yillari Kramer va Myuller tarafidan, maxsus xarita va tarhlar bilan qo'shib nashr qilingan. Uning nemischa (Grosskurd, Berlin, 1831 - 1834) hamda ruscha (F.G.Mishchenko. M., 1879; G.A.Stratanovich. M., 1964) tarjimalari ham mavjud.

Shunday qilib, yunon tarixchilarining asarlari eng qadimgi va qimmatli manba ekanligi bugun o'z tasdig'ini topmoqda.

Efor (miloddan avvalgi taxminan 405-330-yillar), Klavdiy Ellian (taxminan milodning 170-235-yillari), aleksandriyalik Kliment (milodning II asri), Korneliy Tatsit (taxminan milodning 56-117-yillari), Ksenefont (taxminan miloddan avvalgi 430-355-yillar), Plutarx (milodning 46-127-yillari), Polien (milodning II asri) va boshqalarning asarlari ham ana shunday qimmatga egadir.

Geograf olimlardan Strabon va Ptolomey asarlari ham zo'r ilmiy qiymatga egadir.

Pompey Trog (milodgacha 1 - milodning I asrlari O'rtasida yashab o'tgan) - "Filipp tarixi" asari bilan mashhur bo'lgan Rim tarixchisi. 44 kitobdan iborat bu asar afsonaviy Assuariya podshohlari zamonidan to Rim imperatori Avgust (miloddan avvalgi 63 - milodning 14 yili) davrigacha dunyoda bo'lib o'tgan voqealarni bayon qiladi, lekin asosiy e'tibor Yunonistonning makedoniyalik Filipp II (miloddan avvalgi 359-336) va Iskandar Zulqarnayn davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etishga qaratilgan.

Mazkur asarning qimmatini shundaki, u birtalay noma'lum kitoblarga suyanib yozilgan, Rim, Yunoniston kabi yirik davlatlarning paydo bo'lishi va tarixini keng yoritib bergan. Muhimi shundaki, muallif bunday davlatlarning oxir-oqibatda inqirozga uchrashini aytadi. Pompey Trog tarixni harakatga keltiruvchi kuch urf-odat va taqdir deb hisoblagan.

"Filipp tarixi"da skiflar, Baqtriya, Iskandar Zulqarnayn davrida Baqtriya va Sog'dda qurilgan shahar va katta imoratlar, Iskandar Zulqarnayn vafotidan keyin yuz bergan voqealar, parfiyaliklarning kelib chiqishi, ularning urf-odatlari, Parfiya podshohligining tashkil topishi, Baqtriya, Parfiya va Midiyaning o'zaro munosabatlariga oid muhim ma'lumotlar mavjud. Bu ma'lumotlar juda qimmatli hisoblanadi.

Pompey Trogning bu asari Yustin (II-III asr) tarafidan qisqartirilib qayta

ishlangan shaklda bizning zamonimizgacha yetib kelgan va Ruxl tomonidan 1935-yili chop qilingan. Uning ruscha tarjimasi A.A.Dekonskiy va M.M.Rijskiy tomonidan "Bectnik drevney istorii" jurnalining 1954-yil 2-4 va 1955-yil 1-sonlarida bosilgan.

Arrian Flaviy (taxminan 95-175) - yirik yunon yozuvchisi, tarixchisi va geograf olimi, asli Kichik Osiyoning Nikomadiya shahridan. U "Iskandar haqida", "Parfiyaliklar haqida", "Hindiston" va 7 jildlik "Iskandarning yurishlari" nomli kitoblar muallifidir.

O'zbekiston va Eronning qadimiy tarixini o'rganishda Arrianning "Iskandarning yurishlari" nomli asari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda fotihning O'zbekiston, Eron hududlari va boshqa mamlakatlarga istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon qilingan.

Faqat Arriangina Xorazmning hukmdori Farasman va uning mohir diplomatligi sabab, Xorazmning mustaqilligi saqlab qolinganligini yozib qoldirgan. Arrianning guvohlik berishicha miloddan avvalgi 329-yili Aleksandr Samarqandda turganida Farasman (Xorazm hukmdori) tashrif buyuradi. Xorazm hukmdori bu uchrashuv chog'ida Aleksandrqa harbiy ittifoq tuzib, Qora dengiz tomon yurishni taklif qiladi. So'g'dlik Spitamen qo'zg'olonini bostirish bilan band bo'lgan Aleksandr Farsmanga tashakkur aytib, u bilan do'stlik ittifoqini tuzadi. Shu bilan birga hozir Qora dengizga hujum qilish vaqti emas, deydi. Aleksandr ishonchini oqlagan Farasman yunonliklarning keyingi harbiy rejasi Hind zaminiga yurish ekanligini ham aniqlab oladi.

Asar panegrizm - maddohlik ruhida yozilgan. Muallif Iskandar Zulqarnayn va uning faoliyatini ko'klarga ko'tarib ulug'laydi. U ko'p qo'lyozma manbalar va rasmiy hujjatlar asosida yozilgan bo'lib, mavzu bo'yicha muhim va asosiy manbalardan hisoblanadi. Iskandarning Spitamendan mag'lubiyatga uchragani haqida ham yozgan.

Arrian Flaviyning "Iskandarning yurishlari" asari nemis (Myuller Leyptsig, 1886) hamda rus (Korenkov, Toshkent, 1912 va M.E.Seigeenko M.-L., 1962) tillarida nashr etilgan.

Ptolomey Klavdiy (taxminan 90-160) - mashhur qomusiy olim, Aleksandriyada yashab ijod qilgan. U astronomiya, geometriya, fizika (optika, mexanika) hamda geografiyaga oid asarlar yozib qoldirgan.

Jahonga mashhur "Almagest" - "Al-majastiy" (18 kitobdan iborat, astronomiya va trigonometriya ilmlarini o'z ichiga oladi), "Optika" (5 kitobdan iborat),

"Germanlar haqida tushuncha" (3 kitobdan iborat) va, nihoyat, "Geografiya" shular jumlasidandir. Lekin, olimga shuhrat keltirgan asarlari "Almagest" va "Geografiya"dir.

"Geografiya"ning (8 kitobdan iborat) birinchi kitobi, aniqrog'i uning 24-bobi jahon mamlakatlarini tavsiflashga bag'ishlangan va katta ilmiy qiymatga ega. Shunisi muhimki, asarda shahar, mamlakatlar va ularning koordinatalari keltirilgan va unga 27ta xarita ilova qilingan.

Ptolomeyning "Geografiya"sida Girkaniya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona hamda skiflar mamlakatining geografik holati, Baqtriya va So'g'diyonaning mashhur shaharlari, shuningdek o'sha mamlakatlar va ular bilan tutash o'lkalar va ularning aholisi haqida asl va qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Kvint Kurtsiy Ruf (milodning I asri) - mashhur Rim tarixchisi, Iskandar Zulqamaynning Eron, Turon va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlari haqida 10 kitobdan iborat "Buyuk Iskandar tarixi" nomli asar yozib qoldirgan. Muallif Ptolomey Lag va Iskandar Zulqarnaynning safdoshlari Onesikrit va Kallisfenning xotira va asarlaridan keng foydalangan

Kvint Kurtsiy Rufning asarida O'zbekiston hududining Iskandar Zulqarnayn qo'shinlari tomonidan istilo qilinishi, xalqlarning chet el bosqinchilariga qarshi kurashi, xususan, Spitamen boshliq qo'zg'olon keng yoritib berilgan.

Kvint Kursiy Rufning guvohlik berishicha, Iskandar miloddan avvalgi 329-yilda Oks daryosidan kechib o'tayotganda askarlarga somon to'ldirilgan meshlarni tarqatishga qaror qiladi. Ular meshlar ustida daryodan suzib o'ta boshlaydilar.daryodan birinchi bo'lib kechib o'tganlar qo'riqchilar xizmatini bajarib, boshqalarni kutib oladilar. Shu tariqa askarlar oltinchi kuni daryoning narigi qirg'og'iga o'tib olishga muvaffaq bo'ladilar.

Kursiy Ruf miloddan avvalgi 327 yilda O'rta Osiyoni to'liq bosib olgach, mahalliy aholi vakillaridan viloyatlarga hokimlar tayinlagani haqida shunday deydi: "Iskandar baqtriylar viloyatini Artaboz idorasiga topshirib, bu joydagi qo'riqchilar qo'shini bilan birga ot-arava yuklarini qoldiradi. O'zi esa harakatdagi qo'shinlarga yo'l boshchi bo'lib, So'g'diyona sahrosoga yo'l oladi", deya xabar beradi.

Bundan tashqari Arrian mahalliy aholining Iskandarning harbiy harakatlariga bildirilgan munosabatlari haqida bunday yozadi: "Tanais (Sirdaryo) ortidagi skiflar (saklar)davlatining podshosi makedonlar tomonidan datyo bo'yida solingan shaharni qullik bo'yinturug'i bo'lishini sezib, uni vayron qilish va

makedonlarni daryo qirg'og'idan uzoq masofaga quvib chiqarish uchun katta bir otliq qo'shinga yo'l boshchi tayinlab, o'z akasini yuboradi".

"Buyuk Iskandar tarixi" 1841-yili Myuttzel, 1867-yili T.Nyoldekeva 1885-yili Fogel tomonidan nashr etilgan. Ruscha yangi tarjimasi V.S.Sokolov tahriri ostida chop etilgan (M.,1963).

Gay Pliniy Sekund (24-79) - rimlik mashhur yozuvchi, tarixshunos olim va davlat arbobi, 79-yili mashhur Vezuviy vulqonining otilib chiqishi natijasida yuz bergan umumxalq fojiasi vaqtida halok bo'lgan.

Gay Pliniy Sekund - sarmahsul olim, 20 kitobdan iborat "Germanlarning urushlari", ikki jilddan iborat "Pomponiy Sekundning hayoti" va 37 kitobdan iborat "Oddiy tarix" nomli asarlar yozib qoldirgan ma'lum.

Pliniyning germanlar tarafidan Reyn va Dunay bo'ylari mamlakatlarining bosib olinishi tarixidan bahs yurituvchi "Germanlarning urushlari" nomli asari bizning davrimizgacha yetib kelmagan, lekin u Korneliy Tatsitning (taxminan 56—117) "Solnomalar" (imperator Oktavian Avgust vafotidan (milodning 14-yili) Neronning halok bo'lishigacha (milodning 68-yili) bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi) hamda "Germaniya" (unda german va boshqa qabilalarning tarixi bayon etilgan) nomli asarlari uchun birinchi manba bo'lgan.

"Pomponiyning hayoti"da Pliniy sobiq boshlig'i Pomponiy Sekundning hayoti va faoliyati haqida hikoya qiladi. Bu asar ham bizning zamonamizgacha yetib kelmagan.

"Oddiy tarix" Gay Pliniy Sekundning shoh asari hisoblanadi va unda antik dunyo tarixi, iqtisodiy ahvoli hamda madaniyati bayon etilgan. Unda muallifning o'z manbalariga jiddiy va tanqidiy munosabatda bo'lmaganligi, ayrim dalil va voqealarni buzib ko'rsatilganligi sezilib turadi. Bu kitob antik dunyo tarixi bo'yicha keng ma'lumot beruvchi qomusiy asar sifatida e'tiborga sazovordir.

"Oddiy tarix"da O'zbekistonning ham qadimiy tarixi, unda yashagan xalqlar, masalan, skiflar, Oks - Amudaryo, Yaksart - Sirdaryo va skifcha joy nomlari, tabiiy boyliklari, Antioxiya shahariarining barpo etilishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Shunday qilib, qadimgi dunyo yunon-rim ilk yozma manbalari Qadimgi Sharq va dunyo tarixida birinchi bo'lib o'lkamizdagi elatlarning, alohida joylar, tog'lar, daryolar va ko'llarning, afsonaviy qahramonlar va podsholarning nomlarini, aholining turmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Xullas, yunon-rim manbalrining o'ziga xos hususiyati shundaki, bu asarlar ko'pincha afsona va rivoyatlarga, oddiy mahalliy xalqlarning gaplariga asoslanib yozilgan. Shunga qaramasdan, afsonalarda ham birmuncha bo'lsa-da, haqiqat yashiringan bo'ladi. Bundan tashqari ular ko'pincha harbiy bosqinchilar bilan birga kelgan askarlar va saroy tarixchilarining ko'rgan-bilgan voqealari tasvirlangan. Mahalliy xalq ularni dushman sifatida ko'rib, ko'pincha yolg'on-yashiq gapirganlar. Bundan tashqari til tushunmasliklari ham ba'zi noqulayliklarni keltirib chiqargan. Natijada, ko'p shahar va shahslarning nomlari noto'g'ri yozilgan. Bu esa ularning bugungi kundagi nomlarini aniqlashda ba'zi bir noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Aniq va to'g'ri ma'lumotlarni faqat, chuqur bilimga ega bo'lgan holda, tarixiy asarlarni taqqoslab to'g'ri xulosaga kelish orqali olishimiz mumkin.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan manbalar Markaziy Osiyo xalqlarining yozuv tarixi yoshini necha yil deb hisoblaydilar?
2. O'rta Osiyo taraqqiyotida tarixiy bilimlarning doimiy ravishda yo'q qilinishiga qaysi nima sabab bo'lgan?
3. Aleksadrning O'rta Osiyoga yurishlari tasviri kimlarning asarlarida saqlanib qolgan?
4. Qaysi olim Aleksadr qo'shinlarining So'g'diyonadagi vayrongarchiliklarini Chingizxon istilosiga o'xshatadi?
5. Qaysi hudud etishib chiqqan allomalarning asarlari Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Beruniy va boshqalarning ijodiga asos bo'lib xizmat qildi?

4-mavzu: ILK O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYODA TARIXIY BILIMLARNING RIVOJLANISHI

Reja :

1. Tarixiy adabiyotlar IIA eftalitlar davri va Turk xoqonligi tarixining yoritilishi.
2. O'rta Osiyoga arablar bosqini va uning tarixiy bilimlar rivojiga tasiri.
3. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Movarounnaxr tarixi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: *Tarixiy adabiyotlarda eftalitlar davri va Turk xoqonligi tarixining yoritilishi, O'rta Osiyoga arablar bosqinining tarixiy bilimlar rivojiga ta'siri hamda Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Movarounnaxr tarixi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.*

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Eftalitlar davlati, Turk hoqonli davri adabiyotlari, Ammian Marselin, Prokopiy Kesariyskiy, Feofan Vizantiyskiy, "Eftalit podshohlari tarixi", eftalitlarning kelib chiqishi haqidagi mulohazalar, "Tarix ar-rasul va-l mulk", Qutayba ibn Muslim, Tabariy, V. V. Bartol'd, Turek, "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklari", Ibn Xaldun, «Insonlar ijtimoiy hayotining mohiyati», "Kitob ul-ansob", Muhammad ibn Zufar.*

Tarixiy adabiyotlar eftalitlar davri va Turk xoqonligi tarixining yoritilishi.
O'rta Osiyo xalqlarining Arab xalifaligi tarkibiga kirishi arafasidagi va undan keyingi ahvoli haqida gap borganida, arabcha, forsha va qadimgi turkiy-runiy yozuvlarga murojaat qilamiz. Tarixda uch joydan O'rta Osiyo xalqlari tarixiga doir hujjatlar arxivi topilgan: hozirgi Turkmanistonning Niso shahrida - Parfiya davlati (miloddan avvalgi I asr) hujjatlari, Tuproqqal'ada (III asr) Xorazm davlati hujjatlari, Mug' togida (Samarqand) So'g'diyona hujjatlari (VII asr) topilgan. Bundan tashqari, ko'p erlardan juda ko'plab epigrafik yodgorliklar - toshdagi bitiklar, ro'zg'or buyumlari va san'at asarlari topilgan. O'rta Osiyo tarixidan daliliy ashyolarga boy ma'lumotlarni o'rta asrda yashashgan muarrix Tabariy asarlaridan, shu asarning Bal'amiy tuzgan forsha-tojikcha nusxasidan, jahonshumul qomusiy olim Beruniy asarlaridan topishimiz mumkin. Shu ma'noda o'rta asrning buyuk shoiri Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» dostoni ham ibratlidir. Binobarin, Sharq xalqlari madaniyati muammolariga oid hozirgi tarixiy-monografik tadqiqotlarning qo'lyozma manbalarga bevosita aloqadorligi tabiiydir.

V asr o'rtalarida Eftalitlar davlati shakllanishi oxiriga etdi. Eftalitlar davri bo'yicha asosiy manbalar rimlik tarixchi Ammian Marselin (IV asr), vizantiyalik

tarixchi Prisk Paniyskiy, Prokopiy Kesariyskiy va Feofan Vizantiyskiy asarlaridir. Shuningdek, mazkur davr tarixshunosligida suriyalik yozuvchi Zenon Glakning "yunoncha" yozilgan "Eftalit podshohlari tarixi" asari ham asosiy manba hisoblanadi.

Eftalitlar tarixi bilan shug'ullanuvchilar ko'pchilikni tashkil etsada, ularning etnik tarkibi, tabiati haqida nuqtai nazar mavjud emas. Eftalitlar turli tillarda turlicha nomlanadi: kitoblarda e-da yoki i-da, armanlarda - xeptal, idal, tetal, arablarda - xaytal, yaftal, yunonlarda - adel, eftalit, suriya manbalarida - abdel, eftalit, o'rta fors tilidagi manbalarda - eftal, xeftal, tojik-fors tilidagi manbalarda - xetal, xaytal.

Xitoy manbalarda eftalitlarning kelib chiqishi haqida juda ko'p tahminlar bor, lekin ular bir-biriga qarama-qarshidir. Xitoy manbalaridagi ma'lumotlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- a) eftalitlar - yuechjilarni bir tarmog'i;
- b) eftalitlar - gaogyuy turk qabilalarini bitta bo'lagi;
- v) eftalitlar - geshi (turfon) qabilalaridan kelib chiqqan;
- g) ular qang' vorislaridir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, eftalitlarning kelib chiqishi va etnik nomning ma'nosi to'g'risida tarixchilar o'rtasida yagona fikr yo'q.

VI asr o'rtalariga kelib, Markaziy Osiyoda yirik ko'chmanchilar davlati - Turk xoqonligi tarkib topdi (551-744 yillar). Bu davlatning hududi Koreyadan to Kora dengiz bo'yigacha, O'rta Osiyo va Xitoy ham o'z ichiga olar edi. Bu davrga oid ma'lumotlar etarli, biroq ular bir-biriga qarama-qarshi bo'lib, aniq ma'lumotlar bermaydi.

Turk hoqonligi tarixi haqida o'rta asr tarixchilaridan Tabariyning "Tarix ar-rasul va-l mulk" va Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarlarida muhim ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, turk hoqonligi tarixi rus olimi L.N.Gumilev tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Ayniqsa, uning «Qadimgi turklar» asari bu borada yirik tadqiqot hisoblanadi. O'zbek olimi Nasimxon Raxmon «Turk xoqonligi» asarida turklar tarixi, yozuvlari, afsonalari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Turk xoqonligi bilan ba'zi masalalar I.Bichurin, V.V.Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, A.Bernshtam va boshqa olimlar asarida keltirilgan.

Avvalo, turk atamasi etnik mazmuni anglatmay, bir necha qabila va xalq birlashuvini bildiruvchi siyosiy atama sanalgan. S.P.Tolstoy "Turk" so'zi "yosh uylanmagan jangchi" ma'nosini anglatadi, deydi. So'ng bu so'z qabila an'analari va nihoyat siyosiy jihatdan birlashgan xalqlarning umumiy nomiga aylangan.

Tabariy yozishicha, turklarning eng kuchli, jasur va qudratli hoqoni Sinnabu Yobg'u bo'lib, uning qo'shini ham juda ko'p edi. Turk hoqonliginipg O'rta Osiyoni qo'lga kiritish niyati oshkor bo'lgach, eftaliylar o'zlarining turklar va sosoniylar eroni orasida qolganligini angladilar. Sinnabu Yobg'uning juda ko'p lashkari bo'lgan eftaliylar bilan urushib, ularning podshosi Varzuni o'ldirdi. U Varzuning barcha qo'shinini, ularning boyligini va mamlakatini qo'lga kiritdi. Eftaliylar yurtining ilgari Xusrav 1 tomonidan zabt etilgan qismi bundan mustasno edi. Eron Xusrav I Anushirvon zamonida (531-579) yiriklashib, kuchli davlatga aylangan va shuning uchun eftaliylarga xiroj to'lamay qo'ygan edi

O'rta Osiyo eftaliylariga qarshi ikkala qo'shnisi kim oldin hujum qilishga shaylanib turishardi. Chamasi, eftaliylar ikkala davlatga qarshi jang qilishgan. Tarixiy ismlarga kelsak, arab manbalaridagi Sinjabu, Rum-Vizantiya manbalaridagi Salzibulga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rgangan E. Gavenining fikricha, turklar eftaliylarni 563 va 587 yillar orasida tor-mor keltirganlar. Bu voqeani A. A. Mendel'shtam 563 yilga yaqin, G. Moravchik esa 560 yil atrofida deb hisoblaydilar.

Sanasi qachonligi juda aniq bo'lmasa-da, bu urush oqibatida, Firdavsiy yozganidek, «Chochda, Terakda (Chirchiqda S. T.), Samarqand va So'g'dda juda ko'p joylar vayrona bo'lib, boyqushlar makoniga aylandi. Chag'aniyon, Bomiyon, Xuttalon va Balx aholilari boshiga qora kunlar keldi».

Tabariyning yozishicha, turklar Erondan ilgari eftaliylarga to'plab turgan xirojlarini (Turonga) to'lashni talab etganlar. Eron-Turon munosabatlari qanchalik keskinlashganidan qat'iy nazar, shunday tarixiy vaziyat vujudga kelganki, O'rta Osiyoning janubidagi viloyatlar, xususan, hozirgi O'zbekistoniipg janubi, Tojikiston va Turkmaniston sosoniylar Eroni qo'l ostida, O'rta Osiyoning shimoliy viloyatlari esa Turk hoqonligi ixtiyoriga o'tib qoldi. Zarafshon vodiysida qolgan eftaliylar esa turklarga xiroj to'lashni davom ettirdilar.

Shuningdek, Tabariy Erondagi siyosiy vaziyat, xususan, Mazdak qo'zg'aloni haqida ham ma'lumotlarni berib o'tadi. Tabariyning yozishicha, «oddiy fuqaro fursatdan foydalanib, Mazdak va uning tarafdorlariga qo'shib, ular atrofida uyushdilar». Bu fikrni Beruniy xam tasdiqlaydi: «Son-sanoqsiz odamlar ularga ergashdilar». Eron shohi Qubod I siyosiy vaziyat taqozosi bilan, ko'nglida

xohlamasa xam o'zini Mazdak tarafdori deb e'lon qiladi. Haqiqatan ham 528-529 yil voqealari shundan dalolat beradi. Lekin keyinchalik Qubod tarafdorlari Mazdakni o'ldirib, markaziy hokimiyatni qaytarib olishdi va mazdakchilarning etakchilarini qirib tashladilar va ularning izdoshlarini shafqatsiz kaltaklab, quvg'in qildilar.

O'rta Osiyoga arablar bosqini va uning tarixiy bilimlar rivojiga ta'siri. VII asr o'rtalarida Movorounnaxrga faqat bosqinchilik yurishlari bilan cheklangan arablar 704 yilga kelib O'rta Osiyoni batomom bosib olishga qaror qildilar. 704 yilda Xuroson noibi etib tayinlangan Qutayba ibn Muslim 706 yildan Movorounnaxrni zabt etishga kirishadi. 709 yilda Buxoro, 712 yilda Samarqandni bosib oladilar. O'rta Osiyo turli harbiy xiylalar, makrlar yordamida bosib olindi va arablar o'z siyosati diniy e'tiqotlarini singdirishga harakat qilib katta zulm va shavqatsizliklar o'tkazdi. 715 yilda Farg'onada Qutayba ibn Muslim arab jangchilari tomonidan o'ldiriladi.

O'rta asr tarixchisi Tabariy O'rta Osiyoga arablarning yurishi haqida ham o'z asarlarida ma'lumot berib o'tgan. Jumladan, uning asarlarida Samarqand hokimi Turek (Turk, Torak) ning hijriy 100 (milodiy 719) yilda Xitoy poytaxtiga yuborgan maktubini keltirib o'tadi. V. V. Bartol'd o'z kitobida shu xatning tarjimai keltiriladi:

«Biz 35 yildan buyon dashiy (dashtiy) larga qarshi tinimsiz kurashib kelamiz. Har yili biz juda ko'p askar va suvoriylarni jang maydoniga chiqaramiz, ammo shu vaqtgacha imperator (hoqon) hazrati oliylariniig madad kuchlarini olish baxtiga muyassar bo'lmadik. Bundan 6 yil muqaddam dashiylarning eng katta boshlig'i I-mi Kyu-di-bo (amir Qutayba) juda katta lashkarlari bilan etib keldi. Biz jangda dushman lashkarlariga katta zarar etkazdik, ammo bizning qo'shinimizdan ko'pchilik halok bo'ldi va yaralandi. Dashiylarning piyodalari va suvoriylari son-sanoqsiz edi, shu tufayli bizning lashkarlarimiz ularga bas kelolmadi. Men o'z istehkomlarimizga qaytdim: so'ng dashiylar bizning shahrimizni qamal qildilar. Ular qal'a devorlarini buzish uchun 300 ta devorbuzar kurilmalarpi olib keldilar, 3 joyda katta-katta xandaq-zovur qazidilar. Ular bizning shahrimizni va mamlakatimizni vayron qilishmoqchi. Faqiringizning siz hoqon xazrati oliylaridan iltimosim shulki, tezroq Chin lashkarlarini bizga yordamga yuborsangiz. Ammo dashiylarga kelsak, ularning kuch-qudrati faqat yuz yilga etadi, degan karomat bor. Bu yil ana shu muddat tugamoqda. Agar Chin lashkarlari bu erga etib kelishsa, kamina va uning qo'shinlari dashiylarni tor-mor keltirishimiz mumkin edi».

Tabariy kitobida ko'p marta tilga olingan Samarqand hokimi Turek haqida uning maktubidan qanday ma'lumotlarni olish mumkin?

1. Maktubning haqiqiyliги V. V. Bartol'd ta'kidlaganidek, unchalik shubha uyg'otmaydi.

2. Muhim tarixiy dalil shuki, Samarqand Zarafshon vodiysiga arab Qutayba davrida 712-719 yillarda emas, balki noib Salim ibn Ziyod vaqtida 681-683 yillarda kelishgan. Qutaybaning harbiy yurishi va Samarqandning arablar tomonidan istilo etilishi 712 yil kuziga to'g'ri keladi.

3. Go'rak maktubida tarixiy voqealar mavhum va ziddiyatli bayon etilsa ham, bu maktub arab manbalarini, jumladan, Tabariy asarini tanqidiy tadqiq etishga imkon beradi. Tabariydan mustaqil bo'lgan arab manbalari (Madoniy, Balazuriy, Dinovariy) da esa tarixiy tahlil uchun deyarli hech bir dalil yo'q, deyish mumkin.

Arablar bosqini tarixiy bilimlar taraqqiyotiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatdi. Diniy e'tiqotlarga kurash olib borish davrida islom diniga qadar bu erda mavjud turli yozma manbalar, jumladan "Avesto" asarining asosiy qismi yo'q qilindi. Shuningdek ko'plab mavjud ilmiy asarlar, qimmatli hujjatlar, o'z davrini yorqin aks ettiruvchi yozishmalar, xatlar, ish yuritish qog'ozlari yo'q qilinib yuborilgan. Natijada shu davrni ochib beruvchi tarixiy manbalar saqlanib qolmagan. Bundan keyinroq ijod qilgan muarrixlar o'z asarlarida bu davr haqida ma'lumotlar uchratmaydi. Faqatgina Beruniyning "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklari" asarida ma'lum bir qismi shu davrga qaratilgan. Bundan tashqari 1932 yilda topilgan Mug' qal'asi xazinasi bu davrni ochib berishda muhim rol o'ynaydi.

Gap shundaki, faqat XVI asr oxirlariga kelibgina, arab faylasufi ibn Xaldun (1332-1406) ilk bor musulmon dunyosida tarixni hikoya qilib berishdan tashqari, voqealarning sababiy bog'lanishlarini ham, pragmatik bayon (tarixdagi ob'ektiv taraqqiyot qonunlarini ochib bermasdan, voqealarni faqat tashqi bog'lanishi va izchilligiga qarab tasvirlash) qilib berish va umumdunyo tarixining taraqqiyot qonunlarini belgilash borasida urinib ko'rdi. Ibn Xaldun tabiat va insoniyat tarixi o'rtasida dialektik aloqa mavjudligini isbotlash uchun harakat qilgan edi. Shuning uchun ham tanqidiy manbalarda ibn Xaldun quyidagi asosiy qoidalarga suyanadi: kishilik jamiyati tarixi ham tabiat hayoti kabi umumiy bo'lgan muhim qonunlarga bo'ysunadi va xalqlar hayotida bu qonunlarning nomoyon bo'lishi tarixiy haqiqatning asosiy mezonini bo'lib xizmat qiladi.

Ibn Xaldunning qarashlari 200 yilga yaqin vaqt mobaynida sharqshunoslik, tarix va falsafa tarixi sohasida qizg'in bahslarga sabab bo'lib keldi.

Bir qator mualliflar, shuningdek, ayrim taniqli g'arb sharqshunoslari ixtiyoriy yoki g'ayri ixtiyoriy tarzda Ibn Xaldun asarlarining asosiy mazmunini buzib ko'rsatgan holda buyuk arab mutaffakirini XIX-XX asr reaksiyon sotsiologik

ta'limotining g'oyaviy o'tmishdoshi, fanatizm yoki ashaddiy mistntsizmning apologeti (maddohi) qilib ko'rsatishga urindilar.

Evropa va asosan arab mamlakatlarining taraqqiyparvar olimlari Ibn Xaldun asarlarining tarixiy mazmunini ob'ektiv ravishda tahlil qilish asosida uning ta'limoti diniy asarlar bilangina bog'liq emasligini, Ibn Xaldunning tarixiy taraqqiyot qonunlarining xarakteri haqidagi g'oyalarini ta'kidlovchi bir qator moddiyun (materialistik) holatlarning mavjudligini kursatishadi.

Ibn Xaldunning tarixiy-sosiologik ta'limoti uning «Insonlar ijtimoiy hayotining mohiyati» nomli asarida aks etadi. Bu asar «Muqaddima» deb ham ataladi. Unda Ibn Xaldun tarixchining vazifalari haqida bunday yozadi: Tarixchi «siyosiy asarlar bilan tanish bo'lishi va ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarning mohiyatini, amaldagi huquqiy munosabatlarning o'zaro farqini, turli xalqlar, mamlakatlar va davrlar ijtimoiy hayotining xususiyatlari, turmush tarzi, mafkurasi va boshqa ko'rinishlarini bilishi lozim» Tarixchi o'tmishni hozirgi kun bilan taqqoslay bilishi, ularning o'hshash tomonlari hamda tafovutlarini farqlay bilishi, bu o'xshashlik va tafovutlarning sabablarini topishi kerak, davlatlar va dinlarning kelib chiqishini bilishi zarur. Bir so'z bilan aytganda, tarixchi jamiyatda yuz berayotgan barcha voqea-hodisalarni hamda ularning sabablarini tushuntirib berishi lozim. Ibn Xaldun tarix fani haqida o'z fikrlarini mantiqan shakllantirar ekan, kishilik jamiyati tarixi, siyosiy va tabiiy fanlarni ajratib ko'rsatadi. Ibn Xaldun kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlarini kashr etishga intilib, bu bilan u «yangi fan» yaratganiga ishonar edi. Aslida u faqat bu fan asoslarini bilishga olib keluvchi yo'lni va bu yo'lning keyingi rivojini ko'rsatgan edi. Ibn Xaldunning bu maslahatlaridan uning safdoshlari va izdoshlari musulmon tarixchilari aytarli foydalanishmadi.

Bu davrda asosan islom jamiyatining o'sib borishi, xukmdorlar va yirik shaxslar faoliyati xaqida keng ma'lumot berib borilgan.

At -Tabariy Abu Jafar Muhammad (838-923) ning "Tarix ar-rasul va -l-mulk" asari o'z davrda katta shuhratga ega bo'lgan bo'lib, 963 yilda Balamiy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan va qayta ishlangan. U o'zidan oldin o'tgan Abu-l-Xasan ibn Muxammad al-Madainiy ma'lumotlaridan foydalangan. O'z navbatida Al-Madainiy ham o'zidan oldingi manbalarda berilgan ma'lumotlardan foydalangan. Madaniy alohida faktlar asosida uzviy bog'langan hikoyalar tuzib chiqqan. Bu hikoyalar tarixiy asar emas, ko'proq xalq og'zaki ijodiyoti namunalariga o'xshab ketgan. Xullas, musulmon tarixshunosligi tarixiy asarlar yaratishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Movarounnaxr tarixi. Mazkur davrga oid yana bir muhim manba, bundan ming yil oldin yozilib, bizning kunlarga etib kelgan nodir qo‘lyozma asar - Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari. Narshaxiy Buxoro viloyatida Narshax qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning to‘la ismi Abu Muhammad ibn Ja‘far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik (899-960 i) dir. Bu asar asosan O‘rta Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dinining tarqalishi va undan bevosita oldingi davrlar hamda VIII-XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar va qishloqlarining tarixi haqida ma‘lumot beradi. Shuningdek, shu erda yashagan xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy tarixiga oid muhim ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan va bu xol “Buxoro tarixi” ning qimmatli manba sifatida tarix fanida zo‘r shuxrat topishiga olib keldi. Asarning hozirgi davrgacha etib kelishi tarixi boshqa ko‘p yozma manbalarga nisbatan o‘zgachadir.

“Buxoro tarixi” ning so‘z boshida aytilganidek, uni dastlab Buxoroning Narshax qishlog‘idan bo‘lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far an-Narshaxiy tomonidan 943-944 yillarda arab tilida yozilgan. Hozirda Narshaxiyning nomi O‘rta Osiyoning VIII-XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda keltiriladi. Lekin uning hayotiga oid ma‘lumotlar keltirilmaydi. Bunga sabab uning o‘z asarida ham va unga yaqin davrlarda yashagan boshqa mualliflar asarlarida ham bunday ma‘lumotlar keltirilmagan. Faqat Sam‘oniyning “Kitob ul-ansob” asarida uning to‘la nomi va u Buxoroda 899 yilda tug‘ilgan hamda 959-960yillari vafot etganligi eslatiladi.

Asarning bizgacha etib kelgan nusxasining so‘z boshida aytilishicha, 1128 yilda asli hozirgi Quva shahridan bo‘lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr Kuvobiy Narshaxiyning kitobini “ko‘pchilik kishilar arab tilida yozilgan kitobni o‘qishga rag‘bat ko‘rgazmaganliklari” sababli o‘z do‘stlari iltimosiga binoan arabchadan fors tiliga o‘giran. U “arab tilidagi nusxada so‘zlangan keraksiz va buning ustiga o‘qiganda malollik orttiradigan narsalarni” tarjimaga kiritmay qisqartirib yuborgan.

Tarjimon Abu Nasr Axmad Narshaxiyning arab tilidagi nusxada mavjud bo‘lgan ba‘zi mavzularni tashlab ketish bilan birga asarga katta tarixiy qiymatga ega bo‘lgan ko‘pgina ma‘lumotlarni qo‘shgan va bunda u o‘z davridan ilgarigi voqealarni yoritish uchun boshqa tarixiy manbalardan foydalangan. Bu manbalardan biri Abu Nasr Ahmad o‘zi ko‘rsatib o‘tgan Abu-l-Xasan Abduraxmon Muhammad Nishopuriyning “Xazoyin ul-ulum” nomli asaridir. Bu asarning bizning davrimizgacha etib kelgan-kelmaganligi hozircha ma‘lum emas. Ammo asarda keltirilgan parchalar o‘zidan ko‘rish mumkinki, ayrim satrlarning

o‘zi ham Abu-Xasan Abduraxmonning kitobi naqadar muhim tarixiy manba bo‘lganligini so‘rsatadi.

Undan yarim asr o‘tgach asar yana tahrirga uchragan, 1178-1179 yillar mobaynida Muhammad ibn Zufar ibn Umar fors tilidagi tarjimani ikkinchi marta qisqartirib bayon qilgan. Ammo asarni o‘qir ekanmiz, biz unda mazkur 1178-1179 yildan keyingi to 1220 yilgacha bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar haqida ham qisqa ma‘lumotlar uchratamiz. Bu xol shuni ko‘rsatadiki, Muhammad ibn Zufardan keyin ham bir yoki bir necha noma‘lum kishilar asarni tahrir qilganlar. Kitobning 1939 yilda Tehronda nashr etilgan nusxasidan ko‘rinadiki, «Buxoro tarixi»ga keyinroq ham boshqa mualliflar tomonidan qo‘shimchalar kiritilgan. Bu haqda eronlik olim Muhammad Toqi Bahor o‘zining 1958 yili Tehronda nashr etilgan «Malik ush-shuaro» kitobida guvohlik beradi. Ular ham asarni qisqartirganlar deyishga asos bo‘lmasa-da, lekin qo‘shimchalar kiritganliklari voqealar mazmunidan ko‘rinib turibdi

Tarixchi O. A. Suxareva, Eron olimi Muhammad Toqi Bahorlarning ma‘lumotlariga qaraganda, «Buxoro tarixi» biz yuqorida tilga olganimizdan boshqa ko‘p kishilar tomonidan qisqartirilgan, qo‘shimcha kiritilgan va izohlangan. Shunga qaramasdan, hamma tarjimon va sharhchilar kitobning asl muallifi Narshaxiy ekanligini bir ovozdan tasdiqlaydilar.

Bu asarning nomi haqida bir necha so‘z. O‘z asariga Narshaxiy qanday nom bergani haqida ma‘lumot yo‘q. Shuning uchun uning nomi turli yurt tarixshunoslik adabiyotlarida turli shakllarda ishlatiladi: «Tarixi Narshaxiy», «Narshaxiy tarixi», «Tarixi Buxoro» «Tahqiq ul-viloyat» («Viloyat haqiqatini aniqlash»), «Axbori Buxoro» («Buxoro haqida xabarlar») va hokazo.

Shunga qaramay, u hozirgi tarix fanida «Tarixi Buxoro» bo‘lib qat‘iy o‘rin oldi. VIII-XII asr Buxoro davlati tarixiga oid tarixshunoslik asosan «Buxoro tarixi» kitobidan olinganligini alohida ta‘kidlash lozim. Bu asarga bo‘lgan katta qiziqish uning jahon xalqlari tillariga ko‘p marta tarjima qilinishiga va ketma-ket nashr etilishiga sabab bo‘ldi. Masalan, frantsuz sharqshunosi Ch. Shefer 1892 yilda Parijda «Buxoro tarixi»ni nashr etdi. Bu asarni Samarkand uezdining sobiq boshlig‘i, polkovnik N. Likoshin rus tiliga tarjima qilib, 1897 yilda Toshkentda, o‘zbek ma‘rifatchisi Mulla Sulton so‘zboshi bilan 1904 yili Buxoroda, Eron olimi Mudaris Rizaviy 1939 yilda Tehronda, Angliya sharqshunosi R. Fray 1954 yilda Kembrijda nashr etgan. Nihoyat, 1966 yilda o‘zbek tilida Sodiq Mirzaev tarjimasida Toshkentda nashr etildi.

Shunday qilib, asl muallif Muhammad ibn Ja'far, uning tarjimoni va davomchisi Ahmad ibn Muhammad, shuningdek, keyingi mutarjim va sharhlovchi Muhammad ibn Zufar «Buxoro tarixi»da VIII-XII asrlarda yuz bergan tarixiy voqealarni bayon qilarkan, musulmon tarixshunosligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, islom asoslari va fiqhni himoya qiladilar. Shu tufayli xalqning ahvoli va arab bosqinchilariga qarshi harakat (masalan, Muqanna boshchiligidagi xalq harakati) qoralanadi. Hukmron sinflarning unga qarshi harakati ma'qullanadi. Ammo shunga qaramay, tarixiy voqealarining xolisona bayoni uni qimmatli manba darajasiga ko'taradi. Busiz O'rta Osiyo xalqlarining arablar hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoliga, keng xalq ommasining bosqinchilarga qarshi qurashiga baho berish mushkul. «Buxoro tarixi»ning hozirgi tarixshunoslik uchun qimmatli manba ekanligi shubhasizdir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. O'rta Osiyo xalqlarining Arab xalifaligi tarkibiga kirishi arafasidagi va undan keyingi ahvoli haqida gap borganida qaysi manbalarga murojaat qilinadi?
2. Kimlarning asarlari Eftalitlar davri bo'yicha asosiy manbalar hisoblanadi?
3. Xitoy manbalarda eftalitlarning kelib chiqishi haqida qanday mulohazalar keltiriladi?
4. Turk hoqonligi tarixi haqida kimlarning asarlarida muhim ma'lumotlar beriladi?
5. Tarixchi Tabariy asarlarida qanday muhim ma'lumotlarni beriladi?
6. Sizningcha, O'rta Osiyoga arablar bosqini tarixiy bilimlar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatdi. Misollar bilan fikringizni asoslang.
7. Kim ilk bor musulmon dunyosida tarixni hikoya qilib berishdan tashqari, voqealarning sababiy bog'lanishlarini ham, pragmatik bayon qilib berish va umumdunyo tarixining taraqqiyot qonunlarini belgilash borasida urinib ko'rdi?
8. Qaysi asar O'rta Osiyoga arablar istilosi natijasida islom dinining tarqalishi va undan bevosita oldingi davrlar hamda VIII-XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar va qishloqlarining tarixi haqida ma'lumot beradi?

5-mavzu: MUSULMON UYG‘ONISHI DAVRIDA O‘RTA OSIYO XALQLARI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

Reja:

1. Musulmon uyg‘onishi davri haqidagi tarixiy adabiyotlar.
2. Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari.
3. Abu Fazl Bayhaqiyning “Tarixi Bayhaqiy” asarining tarixshunoslikdagi ahamiyati.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: *Musulmon uyg‘onishi davri haqidagi tarixiy adabiyotlar, Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari va Abu Fazl Bayhaqiyning “Tarixi Bayhaqiy” asarining tarixshunoslikdagi ahamiyati haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.*

Tushunchalar va tayanch iboralar: *folklor adabiy an`analar, shariat va islom aqidalari, hadis rivoyatlaring tanqidiy tahlil qilish, tarix ilmi-usuli, Italiya Uyg‘onish davri, Adam Mets, «Musulmon uyg‘onish davri», L. Berte, sayohatnoma, ma‘muriy-jug‘rofiy ma‘lumotnoma va jug‘rofik asarlar, "hudud al-olam", Abu Rayhon Beruniy, S. P. Tolstov, «Tarix falsafasi», «Tarix falsafasi usuli va prinsiplari», “tarixi Bayhaqiy”.*

Musulmon uyg‘onishi davri haqidagi tarixiy adabiyotlar. VIII-X asrlarda Ispaniyadan O‘rta Osiyo va Volgabo‘yi, Hindistongacha bo‘lgan ulkan hududda yirik arab davlatining tuzilishi bu mintaqalar madaniyatining ravnaqi va gullab-yashnashiga olib keldi. Mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va feodal munosabatlari taraqqiyoti xalifalik mintaqalarining ma‘lum darajada ixtisoslashuviga olib keldi. Xususan, Movarounnahr paxta va ipakka ixtisoslashdi. qishloq xo‘jaligining taraqqiyoti hunarmandchilik va savdoning ravnaqiga hamkorlik ko‘rsatdi. Hunarmandchilik markazlari paydo bo‘la boshladi Sevilya, Girnota, Genuya, Toledo, Saragossa (Ispaniya), Fes, Taxorta, Seuta, Tanjer, Qohira, Tunis, Xayfa, Quddus, Nablus, Xalab, Damashq, Xims, Xoma, Antoqiya (Falastii va Suriyada) Sano, Zabid, Makka, Madina, (Arabistonda), Mosul, Basra va Kufa (Iroqda), Sheroz, Isfaxon, Xamadon, Qum, Tabriz, Ray, Nishopur, Bayhaq (Eronda) shuningdek, XI asrda qisqa vaqt turk feodal davlati Qoraxoniylar davlatining poytaxti, yulduzi bo‘lib porlagan Gazni (Afg‘oniston), O‘rta Osiyoda Marv, Samarqand, Buxoro va Urganch shaharlari shular jumlasidandir. Bu shaharlar ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish markazlariga aylangan va ularda musulmon Uyg‘onish davrinipg rivojlanib kelayotgan moddiy va ma‘naviy madaniyatining o‘choqlari to‘plangan edi.

Arablar istilosidan keyin O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyati inqirozga uchradi, zavol topdi, ammo yangi sharoitlarda bu xalqlar yana yuksak fan va madaniyatni yaratdilar.

Arab tarixshunosligi kelib chiqishi va g'oyaviy-nazariy asoslariga ko'ra, eng avvalo folklor adabiy an'analar va ilohiyot - Qur'on kompleksi bilan bog'liq. Tarixga bag'ishlangan risolalar islom jamoasining siyosiy va intellektual jihatdan faol qismi ifodalanadigan faoliyati tarixi mavzusi bilan bog'liq. Bunga islomgacha bo'lgan Arabiston rivoyatlari, qadimgi payg'ambarlar, O'rta Osiyo, fors va boshqa Sharq podsho va hokimlarining afsonaviy tarixi ham qo'shildi. Umuman, o'rta asr arab musulmon jamiyati uchun tarixan o'z-o'zini anglashning tugallangan shakllari, oy taqvimi bo'yicha yilni aniq hisoblash, tarixshunoslik an'alarining avloddan-avlodga o'tishi xos edi.

Musulmon tarixshunosligi bevosita shariat va islom aqidalari bilan bog'liqdir. Musulmon olimlari tarixiy voqealarni islom aqidalari, Alloxning qudrati va qazoi taqdir bilan bog'laylilar. Qur'oni karimda aytilishicha, inson tirik ekan, u Allohning irodasi bilan ish ko'radi. Tarixchi esa jamiyatda yuz beradigan voqealarning sabablarini shariat qoidalari bilan uyg'unlashtirishi zarur edi. Chunki har qanday mantiqiy fikrlash voqealarning sababini aniqlashni taqozo etadi. Musulmon tarixchilari bu murakkab vaziyatda o'ziga xos yo'l topdilar. Ular voqealarning kelib chiqish sabablarini bayon etib, bu sabablar ham Allohning irodasi ekanligini e'tirof etdilar. Alloh-ta'olo lozim topsa, shu voqealarni boshqa izga burib yuborishi ham mumkin. Musulmon tarixchilari ko'p o'rinlarda «Qur'on» suralari va oyatlarga asoslanadi. Ammo islom ta'limoti Arabistondan tashqari mamlakatlarga yoyilgan paytdan boshlab tarix fani sezilarli darajada rivojlandi.

G'arbdagi tarixni talqin etish va metodologik yoritishning tarixi bo'lganidek, Sharqda ham tarixni talqin etishning o'z tarixi bordir. Ilk musulmonlarning tarixni tushunish va talqin etishlari asosan, xalq og'zaki ijodi ta'sirida shakllangan va shuning uchun tarixni asosan ertak, afsona, rivoyat, doston, juda nari borsa, xronologik bayon, sulolalarning qahramonlik ishqiy sarguzashtlari deb tushunganlar.

Hadis rivoyatlarning tanqidiy tahlil qilish usuli Tabariy kabi olimlarning tarix rivoyatchiligi tizimidan ta'sirlanishlariga olib keldi. Hozirda o'zbek olimlari ham tarix ilmi-usulini yuzaga keltirishda xususan, hadis ilmining sultoni Imom al-Buhoriy yaratgan hadis ilmidagi tanqidiy usul tarix ilmi usulining shakllanishiga sabab bo'lganligi to'g'risidagi xulosani aytmoqdalar. Tarix falsafasi muammolarini yoritishda go'yo pozitivistlar va iqtisodiy omillarga urg'u qiluvchi materialistlarga

yaqin ko'ransada, uning tarixga yondoshi, birinchi navbatda insoniylik ta'sirinig kuchayib borishini hal qiluvchi sabab deb biluvchi yondashishdan iborat. Ikkinchidan, Beruniy, o'rta asr diniy, ilohiyot, tarix falsafasidagi uzlatchilik, taqdirchilik nuqtai nazaridan, balki inson aql irodasi kuchiga to'la ishonch nuqtai nazaridan tarixga optimistik yondashgan.

Ya.Burkxardning Italiya Uyg'onish davri haqidagi asarlari juda mashhurdir. U bu asarlarida tarixchilikdagi «repressansizm» oqimiga asos soldi. Oqimning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri yirik sharqshunos olim, musulmon uyg'onish davrini o'rganishga ko'p umrini bag'ishlagan Xristian Adam Mets (1869-1917) dir. Metsga Rankening shogirdi T. Vaytselning «tarixchi faqat yalang'och har xil bemaza va o'ylab topilgan arzimas xayoliy narsalardan xoli haqiqatga intilishi lozim», degan qoidasi katta ta'sir ko'rsatdi. Krachkovskiyning ta'kidlashicha, mashhur Ovrupo sharqshunosi Kremer o'zining musulmon madaniyatini tahlil etgan ikki asarida etarli bo'lmagani materiallar bilan chegaralangan bo'lsa, A. Kremerni taqlid qilgan A. Mets «O'z vazifasini ham hududiy, xam xronologik jihatdan chegaralab olardi».

Shunga qaramay biz A. Metsning asarlariga doimo murojaat qilamiz, chunki uning asarlari qimmatligiga tarix guvohlik berib turibdi. Fan taraqqiyoti shuni ko'rsatdiki, musulmon sharqi tarixi tadqiqoti unga yondoshmog'i lozim. Shuning uchun ham A. Metsning asari 1973 yili rus tilida nashr etilgan.

A. Mets 1917 yilning dekabrda «Musulmon uyg'onish davri» asarini tugatishga ulgurmay vafot etdi. Uning noshiri Rekendorf kitob ustida ishlab, 1922 yilda asar chop etildi. Hind sharqshunosi Salohiddin Xudobaxsh kitobni birinchi bo'lib ingliz tiliga tarjima qilgan, kitobning nashr etilishida Xudobaxshga ingliz arabshunosi professor D. Margolius yordam bergandi. Asarning dastlabki 7 bobi 1927 yilda Haydarobod jaridasida bosilgan. Xudobaxsh butun umr asarni tarjima qilish bilan shug'ullandi va 1937 yildagina alohida kitob holida nashr qildi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, inglizcha tarjimada asar mazmunini buzuvchi juda ko'p harfiy va boshqa xatolar bor. Asarning ispan tilidagi nusxasi 1936 yili chop etildi. 1939 yildan boshlab turk sharqshunosi Shamol Kyoprul uni tarjima qila boshladi va 1941 yili tugatdi. Biroq u o'z mamlakati shart-sharoitlarini hisobga olgan xolda kitobning har qismiga o'zi sarlavha qo'ydi. Birinchi qismning nomi «Uchenie v tyurko-ispanskom mire» va hokazo.

1940-1941 yillarda Misrda A.Metsning ikki tillik arabcha tarjimasi chiqdi. Bu kitobning arab dunyosida paydo bo'lishi shov-shuvga sabab bo'ldi. Tez orada asar ikkinchi bor nashr etildi. D. Bertel'sning yozishicha, «bu ikki nashrni ham kutubxonalarimizda topib bo'lmaydi». Biroq XX asrning 70 yillarida Ma'ruf

Xaznador Bertel'ga A. Metsning arabcha ikkinchi nashrini sovg'a qildi. Arabcha tarjimaning kirish so'zi muallifi Ahmad Aminning guvohlik berishicha, bu kitobning qimmatida unda juda ko'p manbalardan foydalangani-yu, juda kam muallif aralashuvidir. Shu bilan birga A. Amin, A. Mets ba'zi hollarda bittagina manbaga tayanadi, xolos. Bu muallif maqsadi va manbalarni talqin qilish printsipiga ziddir deb yozadi, Shuning uchun Ahmad Amin tarjimonga A. Metsning arab mualliflaridan ko'chirmalarini asl nusxasidan olishni maslahat beradi. Bu juda qiyin edi, chunki A. Mets Evropa kutubxonalarida o'nlab arab qo'lyozmalaridan ko'chirmalar olgan edi. Tarjimon bu og'ir ishning uddasidan chiqdi. Bundan tashqari tarjimon asarga arab qo'lyozmalari bilan ishlashga ko'mak beradigan o'zining 66 ta izoh va qo'shimchasini kiritdi.

Fransuz arabshunosi L. Berte (1889-1955) vafotidan so'ng uning arxividan bu kitobning frantsuz tilidagi tarjimasi chiqqan. Tabiiyki, A. Metsning asari bosilib chiqqach, olimlar, mutaxassislar va mutaxassis bo'lmaganlar, sharqshunoslar va boshqa soxa vakillari o'rtasidagi turli bahs, tortishuvlarga sabab bo'ldi.

A. Metsning ushbu asarining nomi haqida ham to'xtalib o'tish joiz. Muallif asarni «Musulmon uyg'onish davri», «Islom uyg'onish davri» deb atagan. Muallif o'z asari qo'lyozmasini nashrga to'liq tayyorlashga ham, nomlashga va asari mazmunining bayonini tayyorlab tugatishga ham ulgurmagan. A. Mets kitobining sarlavhasi yo'qligi uni hozirgacha Musulmon uyg'onish davri tarixi sifatida qabul qilib kelishga sabab bo'ldi. Rekendorf o'quvchilar diqqatini Renessans iborasi qo'llanilgan 18-bobga qaratadi, Bu termin shu erda qo'llanilgan, xolos. Asar nomining ochilmay qolgani A. Metsning bu kitobi to'g'risida har kimning har xil yozishiga sabab bo'ldi. Shunga qaramay, Reykendorf fikricha, Adam Mets X asr musulmon davlati madaniy hayotidagi chuqur o'zgarishlarni, uning hayoti va qadimgi zamol madaniyatiga vorislik belgilarini, yozganida haq edi. V. V. Bartol'dning Ovrupo Uyg'onish va musulmon madaniyati gullab-yashnashining umumiy belgisi yunon fanining qayta tiklanishi, degan fikri diqqatga sazovor. V. Bartol'dning fikricha, «Ovrupo Uyg'onishi» va «Musulmon madaniyati ravnaqi» tushunchalari asosan bir-biriga o'xshash, mone tushunchalardir. Shu bois ham uning fikricha, kitobni «Islom dunyosidagi Uyg'onish» («Vozrojdienie v mireislama») deb atash to'g'ri bo'ladi.

O'z asarlaridan birida akademik I. Yu. Krachkovskiy bunday yozadi: «A. Metsning so'nggi asari muallif «Islomning Uyg'onish davri» deb atalgan hijriy IV asrining (X asr) umumiy qiyofasini tasvirlaydi». Boshqa bir joyda I. Yu. Krachkovskiy yanada aniqroq yozadi: «O'ninchi asr (hijriy, IV asr) xalifalikning butunlay qulab tugashi, shu bilan bir vaqtda arab madaniyatining eng gullab

yashnashi A. Mets shogirdlaridan biri aytganidek, «Islomning Uyg'onish davridir». Vaholanki, N. I. Konradning fikricha «uyg'onish» nafaqat Ovrupo, balki barcha mamlakat va xalqlarga xos bo'lgan jarayon, biroq sivilizatsiyalashgan xalqlar taraqqiyotining ma'lum bir paytida yuz beradigan jarayon. Jahon tarixini o'rganish shuni ko'rsatyaptiki, uyg'onish davri uzoq davrlar mobaynida taraqqiy etib kelayotgan turmush madaniyatiga ega bo'lgan xalqlar hayotida yuz beradi. Shu bois Sharq uyg'onish davri muammosi uzoq, chuqur va izchil tadqiqotni talab qiladi.

IX asrning ikkinchi yarmiga kelib, At-Tabariyning «Tarix ar-rasul va-l-muluk» («Payg'ambar va shohlar tarixi») asari bilan tugallangan tarixshunoslikning ilk davri shakllangan edi. IX asrning ikkinchi yarmida arab tarixshunosligida yagona yoki takrorlanuvchi o'ziga xos asarlar vujudga keldi. Sayohatnoma, ma'muriy-jug'rofiy ma'lumotnoma va jug'rofiy asarlarda juda boy tarixiy-toponimik ma'lumotlar mavjud. IX-XI asrlarda yaratilgan asarlar "mashhur arab jo'g'rofiyalari kutubxonasi"ni tashkil etgan. Ibn Xurdadbehning (846-847 yy) umumjahon miqyosidagi jo'g'rofiy asari, Ibn al-Faqihning jo'g'rofiy asari, Ibn Rusta, ibn Fadlanning «Qudam» (928 y), Ma'sudiy (947-950-yillar), Istaxriy (941 yil), X asrning ikkinchi yarmida yashagan Ibn Havqal va Maqdisiylarning asarlari juda muhimdir. Shuningdek noma'lum muallifning fors-tojikcha jo'g'rofiy asari "Hudud al-olam" (982-983 yillar) jo'g'rofiy asari va Bayramning "Jahonnoma" (XIII asr boshi) asari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Arab jo'g'rofiy adabiyoti va uning ahamiyati haqida I.Yu.Krachkovskiy bunday deb yozgan edi: "Ispaniyadan Turkistongacha bo'lgan mamlakatlar va Hind tog'i etaklaridagi aholi maskanlarini aniq sanab, cho'l va madaniy joylarini tavsiflab, madaniy ekinlarning tarqalish ko'lami, foydali qazilmalar o'rnini ko'rsatgan holda", fizik-jo'g'rofiy va ob-havo sharoitini, xalq turmushi, sanoati, madaniyati, tili, diniy ilmlarini ko'rsatgan holda (ma'lumotlar xalifalik viloyatlari hududi bilan chegaralanib qolmasdan, balki greklarga tanish dunyodan ancha chetga chiqdi) u shunday keng, tugal ma'lumot beradiki, unga o'hshashini bu davrda hech qaerda topib bo'lmas edi".

Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari. O'rta asrda yashagan buyuk qomuschi olim Abu Rayhon Beruniy 973 yil 4 sentyabrda Xorazmning poytaxti Qiyot (keyinchalik, Shobboz, hozir Qoraqalpog'istonga qarashli Beruniy shahri) da dunyoga kelgan. U tarix, falsafa, falakiyot, ma'danshunoslik va boshqa fanlar bo'yicha 152 dan ortiq ilmiy asar muallifidir.

X asrda arab xalifaligida katta o'zgarishlar yuz berdi. O'rta Osiyo va Eronning xalifalikka qaram bo'lgan ko'pgina davlatlari iqtisodiy va siyosiy mustaqillikka

erishadi. O'rta Osiyo olim va mutafakkirlari xalifalikning turli shaharlarida, jumladan, o'z o'lkalarida ham faoliyat ko'rsatardilar. X asr boshida Abu Nasr Mansur ibn Iroq Qiyotda yashardi. U Ptolomey «Almajist»iga sharh bo'lgan Menelayning «Sferika» asarini qayta ishlagan edi. Beruniyning birinchi o'qituvchi va tarbiyachisi ana shu Abu Nasr Mansur ibn Iroq bo'lgan.

Beruniyning ilk yoshligi va bolaligi haqida tarixiy adabiyotlarda ma'lumot yo'q. Birun so'zining ma'nosi «tashqaridan kelgan» demakdir. «Ollah nomiga qasam bo'lsinki, deb yozgan edi u o'zining kelib chiqishi haqidagi she'rlardan birida, haqiqatdan ham men shajaramni bilmayman. Hattoki o'z buvamni, buvamni bilmagandan keyin otamni qaydan bilan». Bu gaplarda kinoya bor, albatta.

Beruniyning hayoti va ijodi uchun murakkab bo'lgan sharoitni O'rta Osiyoda hukm surgan feodalizm sharoitidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot murakkabliklaridan ajralgan holda o'rganish mumkin emas. Sarsonlik-sargardonlik qomuschi olimning qismatiga aylangan edi.

Beruniyning ko'pdan-ko'p ilmiy ishlari orasida «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» tarixiy risolasi alohida o'rin tutadi. U besh yildan ortiq Jurjonda yashaydi. Qobus saroyida yashab turgan G'ilon va Tabariston hokimi Marzubon ibn Rustam taklifi bilan tarix fanida qisqa «Xronologiya» nomi bilan mashhur bo'lgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» risolasini yozadi. Asar muqaddimasida kun va tun nima, ularning majmui va boshlanishi, oy, yil va milodlarning mohiyati, bu masalada xalqlarning tafovutlari, xalqlarning podsho, hokimlarga munosabati, Zulqarnayn degan shoh haqida, bir miloddan ikkinchi milodni chiqarish, xronologik turkumlar, soxta payg'ambarlar va adashgan xalqlar, fors, so'g'd va xorazmiylarning bayram va qutlug' kunlari va iydlari, yahudiylar, suryoniyar va nasoro xalqlarining, qadimgi sehrarlar, sabiylar, arablar, shuningdek, islomga e'tiqod qiluvchi xalqlar, arablarning johiliyat davridagi bayramlari va musulmonlarning nishonlaydigan kunlari haqida fikr yuritiladi.

Tadqiqotchi olim S. P. Tolstov haqqoniy ta'kidlaganidek, Beruniy manbalarni o'rganishda vazminlik va bilimdonlik bilan, tanqidiy aql-mulohaza uslubi asosida ish ko'radi. Manbalarga tanqidiy munosabat shubhasiz uning salaflarida ham bor edi, ammo Beruniyda manbalarni tanqidiy tahlil qilish tadqiqotning asosiy shartiga aylanadi. O'zi tarixchilarni ogohlantirgan bir yoqlamalik, taxmin va aqidaparastlikdan Beruniyning o'zi ham xalos bo'lmasligi tabiiy, ammo bu sohada u o'zining barcha salaflari va zamondoshlaridan baland turadi. Beruniy tarixiy risolalarining ko'pi yo'qolib ketishi sababi ham ehtimol shunda bo'lsa kerak. U manbalarni shafqatsiz tanqid qilardi. Bu esa tarixiy adabiyot iste'molchilariga zamondoshlarning ko'pchiligiga manzur bo'lmasligi mumkin edi.

Beruniy «Xronologiya», «Osor-l-boqiya» risolasida anʼanaviy islom dunyosi tarixshunosligida odat boʻlgan shohlar va qaxramonlar faoliyati, siyosiy voqealar oʻrniga xalqlar madaniyati tarixi, ularning urf-odati va feʼl-atvori masalalarini yoritishga eʼtibor beradi. Shuning uchun tarixchilar «Yodgorliklar»ga tarixiy-etnografik tadqiqot sifatida ham qaraydilar.

Beruniyning tarixiy tadqiqot usuli, ayniqsa bu usulning islom madaniyati fanidagi oʻrni, Qurʼoni karim, hadis shariflardagi asoslari, qadimgi va oʻrta asrlardagi tarixiy tadqiqot usullaridan keskin farq qilishi allomaning ilmiy-tarixiy tadqiqot usullaridagi tizim, yangilik Zaki Validiy Toʻgʻonning «Tarihte usul» kitobida ilk marotaba 1950 yillarda oʻrtaga qoʻyilgan va oʻrganilgan.

Beruniyning oʻz zamonasi ijtimoiy taraqqiyoti, ilm-fani darajasidan ilgari ketganligining boyisi shundaki, tarix ilmi oddiy xronologik qaydlar tarixidagi qiziqarli siyosiy-harbiy jangu-jadal, suronli voqealar haqidagi maroqli va ibratli fan, pand-nasihat manbasi emas, balki muttasil yuksalib boradigan jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqiy va maʼnaviy-ahloqiy jixatlari va qonuniyatlari mavjudligini ochib beruvchi jiddiy ilm-fan sohasi sifatida tushunishga erisha olganligini koʻramiz. Bu jihatdan Beruniyning tarixiy tafakkur va tadqiqot usullari XIX-XX asrlardagi «Tarix falsafasi»nig turli maktablari ayniqsa, O.Kontning pozitivlik istoriosofiyasi, E.Dyurkegeynig istoriosofik sotsiologiyasi, «Annalar» maktabi tarixiy tafakkur va tadqiqot usullari bilan juda hamohangdir.

Beruniy F.Nitsshe, A.SHopengauer, O.SHpenglar va boshqa gʻarb tarixchilari, mutafakkirlardan farqli oʻlaroq, tarixni, insoniyatning kelajagini faqat taqdiri azaldan bogʻlab qoʻymagan, balki insoniyatning istiqboliga umid bilan qaragan, tarixiy taraqqiyotning ilgʻor yoʻli, buning qonun va qonuniyatlarini eʼtirof etgan.

Beruniy oʻz asarlarida nihoyatda aniqlik bilan ish yuritgan va oʻzidan oldin oʻtganlar safdoshlarining xatolarini, notoʻgʻri maʼlumotlarini shavqatsizlarga ochib tashlagan. Balki, shuning uchun ham uning juda koʻplab asarlari oʻsha davrdayoq yoʻq qilib yuborilgan.

Beruniy va ayniqsa, ibn Xaldunning «Tarix falsafasi usuli va prinsiplari», hozirgi gʻarb tarixchi olimlariga shu jumladan, A.Taynbi kabi zabardast tarixchilarga sezilarli taʼsir koʻrsatgan.

Abu Fazl Bayhaqiyning “tarixi Bayhaqiy” asari. Abul-Fazl Bayhaqiyning hayot yoʻli haqidagi maʼlumotlar juda kam. Uning hamyurti, adabiyotda ibn Funduk nomi bilan maʼlum Abulhasan Ali Bayhaqiyning asari bu haqdagi asosiy manba hisoblanadi. «Maʼsud tarixi» dan keyin yuz yillardan soʻng maʼlum (1167-

1168) bo'lgan bu asarda Abul-Fazl to'g'risidagi muallifga ma'lum barcha ma'lumotlar jamlangan. Biroq, bu ma'lumotlar uzuq-yuluq va noaniq bo'lgan. Shunga qaramay, undan «Ash-shayx Abul Fazl Muhammad Husayn al kotib al Bayhaqshaning taxminan 994 yillarda Seyistonda tug'ilgani, uning otasi Sulton Mahmudning yirik amaldori bo'lgani va 470 yilning safar (1077 yilning avgust-sentyabri) oyida vafot etganini bilib olish mumkin. «Ma'sud tarixi» so'z boshisidan ham ko'rinib turibdiki, Abdul-fazl nafaqat qondosh xalqlar tarixi, balki islomning falsafiy asoslari va fiqhdan arabcha tarjimalar orqali, Arastu (Aristotel') g'oyalari hamda Gippokrat tibbiyoti bilan ham tanish bo'lgan. U 25 yoshlarida, ya'ni 411-1021 yillar atrofida G'azna davlat devoniga Abu Nasr Mishkan qo'l ostiga ishga olinadi va Abu Nasrning o'ng qo'lga aylanadi. Abu Nasr Mishkon vafotidan so'ng, devonga Abu Sahl Zavzaniy boshliq bo'ladi. U Bayhaqiyni yoqtirmasdi. Bu kelishmovchilik va saroy nayranglari hamda Abdul-Fazlning barcha siyosiy adashuvlari uni davlat xizmatidan ketishiga sabab bo'ldi. Uzining guvohlik berishicha, oradan 20 yil o'tgach ham bu voqealar uni ta'qib qildi va u davlat xizmatiga boshqa qaytmadi.

Akademik V. V. Bartol'd yozadi: «Abul-Fazl Muhammad Husayn Bayhaqiyning asari musulmon tarixiy adabiyotida alohida o'rin tutadi».

Abul-Fazl Bayhaqiy (taxminan 994-1079 yy) davr taqozosi bilan tarixshunoslikda qadimdan shakllanib kelgan an'analar doirasidan chiqolmas edi. Biroq, shunga qaramay u o'sha davr xususida to'laroq ma'lumot berishga harakat qilgan. «Mening niyatim odamlarga sulton Ma'sud haqida hikoya qilib berishdangina iborat emas, chunki ular bu voqealarni o'z ko'zlari bilan ko'rganlar va bilurlar. Mening maqsadim munosib yilnoma bitish va ulug'vor imoratni shunday yuksaklikka ko'tarishki, toki u haqdagi xotiralar asrlar so'ngida ham so'nmasun. Yolg'onga o'xshash bir narsani bitish noo'rin bo'lur erdi» Demak, o'sha davrdagi mavjud tarixchilik uni qanoatlantirmagan va u odatdagi qonun-qoidalarni buzib, tarixchilikka bir qator yangiliklar kiritgan. Bu uning asarini oldingi asarlardan ancha yuqoriga ko'taradi. O'zigacha bo'lgan tarixshunoslarga baho berar ekan, Bayhaqiy yozadi: «Boshqa yilnomalarda bunday qamrov yo'q, chunki ular voqealar haqida jo'n fikrlaydilar va juda kam qismi haqida ma'lumot beradilar. Kamina esa bu asarni bitar ekanman, tarixiy to'liq bayon qilmoqchiman, toki yuz bergan hodisalardan hech qaysisi ochilmay qolmasin». Bu bilan u nafaqat tarixchilik doirasini kengaytirib, unga yangi mazmun kiritdi, balki unga yangi shakl ham baxsh etdi.

Bayhaqiyning yuqorida keltirilgan so'zlaridan ko'rinib turibdiki, u o'sha davr qoidasiga ko'ra yozish odat bo'lmagan voqea-hodisalarni ham mufassal yoritgan.

Shuning uchun ham Bayhaqiyning «Tarixi»da voqea-hodisalarning oldingi tarixchilardagi kabi quruq aytib oʻtilishi yoʻq. Aksincha, asardagi unvonli mashhur zotlar koʻz oldimizda jonsiz qoʻgʻirchoqlar kabi emas, balki oʻz qiziqishlari, hissiyotlari, kamchiliklariga ega jonli tarixiy shaxslar boʻlib gavdalanadi. Bayhaqiy tarixan sodir etilgan yirik hodisalarga bevosita turtki va sabab boʻluvchi, bunday qaraganda arziyas mayda fakt va holatlarning ahamiyatini yaxshi tushunadi.

Gʻaznaviyilar devonidagi 25 yillik davlat xizmati muallifni koʻplab tarixiy voqealarning guvohiga aylantirdi. Uning qoʻlidan qanchalab diplomatik, elchilar bilan boʻlgan maxfiy shifr-langani yozishmalar, noiblar va boshqa xufya va noxufyalar bilan boʻlgan yozishmalar oʻtgan. «Men oʻzim xalifaga, Turkiston xonlari va beklarga yuboriladigan nomalarni oqqa koʻchirar, maxfiy axborotlarni oʻzim echardim. Bu uning asarini xolis, ishonchli, obroʻli manbaga aylantirdi va unga keyingi asr tarixchilari koʻp bora murojaat etishardi, deb yozadi A. Arends. Ilgari muallifning nomini koʻrsatmay koʻchirma olishardi, Bugungi kunda Abul Fazl Bayhaqiyning asariga suyangan holda keyingi tarixchilar tomonidan yoʻl qoʻyilgan koʻplab noaniqlik va xatolarni toʻgʻrilash mumkin .

Gap shundaki, Bayhaqiy bu hujjatlarning nusxalarini toʻplab borgan va ularni oʻz arxivida saqlagan. Biroq, xizmati oxirlarida u omadsizlikka uchradi, uyi talanib, arxiv tortib olinadi. Shu bois muallif bu haqda «Maʼsud tarixi» asari davomida qayta-qayta afsus chekadi. Suunga qaramay, oxir-oqibatda u koʻp hujjatlarni tiklashga muvaffaq boʻlgan va oʻz asarida foydalanganiki, bu asar qimmatini oshiradi. Asarning bizgacha uchdan bir qismi etib kelgan, qolgan qismn ancha ilgari yoʻqolgan. Biroq, omon qolgan qismi uning bebaholigidan guvohlik beradi va tadqiqotchilar haqli ravishda uni moʻgʻullar davrining mashhur tarixchilari Aloviddin Ota Malik Juvayniyning «Tarixi jahon-kushon» va Fazlulloh Rashididdinning «Jome` at-tavorix» asari bilan bir qatorga qoʻyadilar.

Abul Fazl Bayhaqiy fors yoki dariy tilidagi tarixshunoslikning boshlovchisi emas. Bu tilda allaqachonlardan beri yozib kelishardi. Bu davrga kelib, tarixchilikning oʻziga xos qisqa, aniq xolis ritorikasiz (jimjimadorliksiz) tili shakllangan edi. Oʻrta Sharq mamlakatlaridagi tarixchilik, yuqorida taʼkidlaganimizdek, uzok, vaqt arablar hukmronligi boshlangandan keyin ham shohlar hayoti, ularning reja va yurishlarini yozib borishdan iborat boʻlib qolgan edi. Xalq harakati esa (Narshaxiyning Muqanna qoʻzgʻoloni haqidagi hikoyasini eslang) qanchalik keng tarqalmasin, buzilgan holda talqin etilardi. Xalqning madaniy-maishiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida deyarli yozilmasdi. Abul-

Fazl Bayhaqiy tarixchining vazifasini butunlay boshqacha tushuntirdi. Shu narsa uning asarini yuksaklikka ko'tardi.

Bayhaqiy asarining omon qolgan qismi Ma`sud podsholik qilgan davr tarixini yorituvchi eng nufuzli asardir. Unda Safforiylar va Somoniylar davlatlari tarixiga oid, turkman urug'larining saljuqiylar qo'li ostiga birlashuviga oid qiziqarli ko'plab ma'lumotlar bor. Bayhaqiyning asari ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlari tarixini tiklash uchun katta ahamiyatga ega. Muallifning G'aznaviylarning O'rta Osiyo xonlari, Xorazm, Turkmaniston bilan munosabatlari xususidagi ma'lumotlari ayniqsa muhimdir.

Mehnatkash dehqon va hunarmandlarning hayoti bevosita tasvirlanmasa-da, Bayhaqiy ular to'g'risida bebosh shohlar zulmi, o'lponchi amaldorlar "shafqatsizligini yoritish orqali bexato fikr yuritadi. O'lponlar va qo'shimcha og'ir soliqlardan tashqari, shoh saroyiga katta-katta sovg'alar yuborilib turilishi shart edi. Masalan, 625-1034 yilda soliqlardan tashqari, to'rt million dirhamlik sovg'a yig'ib jo'natildi.

Ibn Fundukning ma'lumotlaridan, shuningdek muallifning o'zi tarixiy asariga qanday nom berganini ham aniqlash qiyin. Ibn Funduq uni «Tarixi O'li Mahmud», «Mahmud sulolasi tarixi» deb atagan. Biroq bu kitobning asosiy nomi emas. A. K. Arende ruscha nashr etgan A. Bayhaqiyning «Tarixi Ma`sudiy» asari sharqshunoslar o'rtasida ko'proq «Tarixi Bayhaqiy» nomi bilan mashhur. Biroq, bu unchalik muvaffaqiyatli chiqmagan, chunki uni ko'pincha «Tarixi Bayhaq» («Bayhaq o'lkasi tarixi») bilan chalkashtirib yuborishadi

Ibn Fundukning aytishicha ham Bayhaqiyning asari 30 jilddan iborat ekan. Shundan beshinchi, oltinchi, ettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi jildlarning oxiri va o'ninchi jildning bosh qismi saqlangan. Ular Ma`sud podshohligi davrini deyarli qamrab oladi. «Men bir necha o'n taboqlarga jam bo'ladigan ellik yillik tarixni bitayoturman» degan edi muallif. Boshqa paytda muallif: «Mahmud Varroq» bitishni bas qildi, men shu davrdan (to'rt yuz) to'qqizinchi yildan («Tarix»)imni yoza boshladim degandi (350 sahifa).

Shunday qilib, Bayhaqiyning o'zi nechta asarini g'aznaviylar asoschisi Sabuktegindan emas, balki 409 (1019-1020) yildan, ya'ni Sulton Mahmud hukmronligining 21-yilidan boshlab yoza boshlaganining sababini bayon qilgan. Chunki, ungacha bo'lgan davr-ni ikki tarixchi, Mahmudning saroy tarixchisi Abu Nasr Muhammad Utbiy «Kitobu-l-Iaminiy» asarida 409-411 yillargacha bo'lgan voqealarni bayon qilgan. Ikkinchisi, aftidan, yuqorida tilga olingan Mahmud Varroq «bir necha ming yilliklar tarixini yozgan» va 409 yilga kelib, o'z qalamini

«tashlagan», buning oqibatida Abul Fazl o'z «Tarix»ini yoza boshlagan. Demak, muallif «Ma'sud tarixi»,ni 1056 yil 10 iyulda yoki 1059 yilning aprelida boshlangan deydi. A. K. Arendsning hisobicha, u hozirgi hisobda 11 bosma taboq asar yozishga ulgurgan. 1063 yillarda ham u yozayotgani ma'lum bo'lsa-da, asarni qachon tugatgani ma'lum emas.

Muallifning boshqa manbalarga halol yondoshganini quyidagi dalillardan ham aytish mumkin. Jumladan, u shunday yozadi: «Abbosiy xalifalar haqida yozishlaricha yoki «Men, Abul-Fazl ko'plab kitoblarni, ayniqsa rivoyatlarki ko'rib chiqdim va ulardan foydalandim», yoki «tarixiy manbalarda aytiladiki...» va hokazo. Masalan, Xorazm haqidagi qiziqarli bobda u shunday yozadi: «SHu paytgacha uzoq vaqt men ustoz Abu Rayhon qo'li bilan bitilgan kitobni ko'rganim yo'q erdi. Alar so'zamollikda va hodisalar mohiyatini anglashda o'ta mohir kishi erdilar, hech narsani bilmay bitmasdilar. Men bu narsalarni shu bois yozayotirmanki, toki «Tarix» imni yozishda naqadar ehtiyot bilan ish tutganim namoyon bo'lg'ay». «Ma'sud tarixining barcha nusxalarida Beruniyning bizgacha etib kelmagan bu asari «Mashohir Xvarizm» («Xorazmning taniqli kishilari») deb yozilgan. Bundan tashqari «Kitob tarix ayamiassulton Mahmud va axbori abix» («Sulton Mahmud hayoti tarixi va uning otasi haqida xabarlar») va «Kitob al-musamara fi axbor Xvarizm» («Xorazm to'g'risidagi xabarlar xususida suhbat») kabi nomlardan ham ma'lumki, bular shubhasiz Beruniyning bizgacha etib kelmagan o'sha kitobining nomlanishlaridir. Bizga boshqa narsa muhimroq: Agar Beruniy Xorazm tarixini arab tilida yozgan bo'lsa, unda bu tilni yaxshi bilgan Abul Fazl Bayhaqiy ushbu asardan yaxshi foydalangan. «Beruniy kitobini bundan ancha avval kurgan edim...» deb yozgan muallif sulton Mahmudning Xorazmni bosib olishigacha va keyingi, taxminan 1018-1020 yillargacha bo'lgan voqealar bayon qilingan yuqoridagi asar materiallaridan xotiraga kelganicha, keng foydalangan. Bundan tashqari, Bayhaqiyning aytishicha, u o'rta fors tilidan ibn Muqaffa tarjima qilgan «Xuvot al-namog'» va «Kutub siyar al muluk Ajam» («Eron shohlari hasti haqidagi kitob») asarlaridan foydalangan.

A. K. Arendsning «Tarixi Bayhaqiy» asarining muallif matni tarixini jonlashtirish va uning rivoji bosqichlarini aniqlash hozir zarur ma'lumotlar yo'qligi bois, mumkin emas» degan so'zlari to'g'ridir. Aftidan, asarning etishmayotgan jildlari kitob boyliklarimizga katta zarar keltirgan mo'g'ullar bosqini davrida yo'qolgan. Bu yo'qolgan qismlardan parchalar mo'g'ullardan qochib O'rta Osiyodan shimoli-g'arbiy Hindistonga ketib qolgan Muhammad Avfiyning «Javome`u-l-hikoyot» kitobida ko'proq saqlanib qolgan. A. K. Arendsning aytishicha, bu asarning bizning davrimizda sharqshunoslar o'rganayotgan eng qadimgi qo'lyozmalari XVII asrga mansubdir. Sharqshunos

Ch. R'yo Britaniya muzeyidagi XVI asr qo'lyozmalari sanalarini aniqlamoqda. «Tarixi Bayhaqiy» ning qo'lyozma nusxalari ko'p emas. Ularning bir qismi Evropaning turli kutubxonalarida, eron, Turkiya, Misr va Hindistonda, ba`zilari xususiy-shaxsiy kutubxonalarda saqlanmoqda. Uch nusxasi Leningradda saqlanmoqda.

Ingliz sharqshunosi V. Morle bu kitobni birinchi bo'lib Kal'kuttada 1869 yili nashrdan chiqardi. Kitob Bengaliyaning Osiyo jamiyati seriyasida bosildi. Oradan yigirma besh yil o'tgach, «Ma`sud tarixi» litografiya usuli bilan Tehronda nashr etildi. Uni Eron olimi Adiy Peshavoriy nashr qildi. Shundan keyin Bayhaqiyning asarini «unutib» qo'yishdi. Faqat V. V. Bartol'dgina «Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida» asarida undan keng foydalandi. Keyin yana jimlik cho'kdi. 1319-1941 yilga kelibgina adabiyotshunos va yozuvchi Sayd Nafisiy uning birinchi jildini Tehronda nashr ettirdi. Ikkinchi jild 1325-1947 yilda, oxirgi jild esa 1332-1954 yili bosmadan chiqdi. Sayd Nafisiyning bu nashri oldingilardan sifatliroq bo'lsa-da, biroq u Morlening inglizcha nashriga asoslangan. Ayni vaqtda u Peshavoriy nashr etgan ikki nusxadan ham foydalangan. Bu davrga kelib, ya`ni 1945 yilda Tehron dorilfununi professorlari G'ani va Fayoz «Tarixi Bayhaqiy» ning matnini bosib chiqarishdi. Bu nashr ancha ishonchlidir.

V. Bartol'd asarlarini hisobga olmaganda, to 1962 yilgacha «Tarixi Bayhaqiy» to'liq Ovrupo tillariga o'girilmagan. Shu bois A. K. Arende ruschaga ugrishda G'ani va Fayozning 1945 yilgi nashri matniga asoslandi. Ikkinchi nashrda yana o'zgarishlar bo'ldi. Unda kirish qismiga qo'shimchalar kiritildi, ba`zi joylar, ayniqsa, iboralar tarjimai aniqlashtirildi. Qo'shimchalarda yo'qolgan jildlarga tegishli qismlarning yangi topilganlari bor. Bundan tashqari, yana Bayhaqiy asarida tasvirlangan tarixiy voqealarga aloqador «Maqomati xoja Abu Nasri Mishkan» asaridan ham shu voqealarni to'ldiruvchi ayrim parchalar ikkinchi nashrga kiritildi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Nima uchun arablar istilosidan keyin O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyati inqirozga uchradi?
2. Arab tarixshunosligi kelib chiqishi va g'oyaviy-nazariy asoslariga ko'ra qaysi omillar bilan bog'liq edi?
3. Hadis rivoyatlaring tanqidiy tahlil qilish usuli kimlarning tarix rivoyatchiligi tizimidan ta'sirlanishlariga olib keldi?
4. Kim tarixchilikdagi «repessansizm» oqimiga asos soldi?

- A. Kim Metsdan so'ng «Musulmon uyg'onish davri» asari ustida shilab olib bordi?
5. Nechanchi asrlarda yaratilgan asarlar "mashhur arab jo'g'rofiyalari kutubxonasi"ni tashkil etgan?
6. Beruniyning ko'pdan-ko'p ilmiy ishlari orasida qaysi asarii alohida o'rin tutadi?

6-mavzu: O‘ZBEK XALQI ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

Reja:

1. O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining o‘rganilishi davrlari.
2. O‘zbek xalqi etnogenezi tarixshunosligi.
3. O‘zbek xalqi etnogenezi tarixining ayrim dolzarb masalalari tarixshunosligi.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: *O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining o‘rganilishi davrlari, o‘zbek xalqi etnogenezi tarixshunosligi hamda o‘zbek xalqi etnogenezi tarixining ayrim dolzarb masalalari tarixshunosligi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.*

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Etnogeniz, etnik tarix, o‘zbek etnogenizi va etnik tarixining nazariy va ilmiy metodologik asoslari, Dashti qipchoq o‘zbeklari, B.Ahmedov, A.Asqarov, K.Shoniyozov, qadimgi avtohton qabilalalari, “O‘zbek xalqining etnik tarixiga oid”, qipchoqlar, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar, B.X.Karmisheva, «Chig‘atoy» atamasi, o‘zbek xalqi etnik tarixi va etnogenezining ba’zi bir ilmiy-nazariy masalalari, o‘zbek xalqi etnogenezi tarixining ayrim dolzarb masalalari, «O‘zbeklar shajarasi», skiflar, mustaqillik davri o‘zbek etnogenizi asarlari.*

O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining o‘rganilishi davrlari. O‘zbek xalqining kelib chiqishi va xalq bo‘lib shakllanishi masalasi ko‘p vaqtlardan beri nafaqat ilmiy jamoatchilikni, balki butun xalqimizning diqqat-e‘tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. O‘zbek xalqi etnogenizi va etnik tarixini o‘rganishni quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

1-davr: XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 40 yillargacha;

2-davr: XX asrning 40-yilaridan 90 yillargacha;

3-davr: Mustaqillik davri.

O‘zbek xalqi etnogenizi va etnik tarixi masalasida birinchi davr tadqiqotlariga P.P.Ivanov, H. Vamberi, X. Xovoors, M. P. Telo, M. A. Chaplichka, Makshev, V.Radlov, Z. V.To‘g‘on, Ziyo Ko‘kal va boshqalarni kiritish mumkin. Ularning asarlarida ushbu masalada ma‘lum fikrlar mavjud. Bu fikrlar har xil, ammo qat‘iy fikr yo‘q.

Ikkinchi davr tadqiqotchilariga A. Yakubovskiy, S. P. Tolstov, A .D. Udalsov, K. V. Trever, I. I. Umnyakov, A. N. Bernekov, L. A. Maqulevich, M. M.

Gerasimov, N. A. Kilyakov, V.V. Ginzburg, L. V. Oshanin B. G'ofurov, M. G. Vahobov, B.X. Karmsheva va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

O'zbek etnogenizi va etnik tarixining nazariy va ilmiy metodologik asoslarini ishlab chiqqan A.Yu.Yakubovskiy va S.P.Talstovlar «ba'zida etnos tarixi uning nomidan qadimiy bo'ladi, masalan, o'zbek xalqi tarixi uning nomidan qadimiydir», deb fandagi umum nazariy tushunchaga aniqlik kiritgan.

XX asrning 40-yillarigacha xorijiy va sobiq SSSR tarixchi olimlari o'rtasida o'zbek xalqining etnik tarixi XV-XVI asrdan, ya'ni Movarounnahr hududidagi Dashti qipchoq o'zbeklarining kirib kelishidan boshlanadi, degan fikr hukmronlik qilgan. 1942 yil 21-29 avgustda Toshkent shahrida SSSR FA tarix va falsafa bo'limining tashabbusi bilan O'rta Osiyo xalqlarining etnogeniziga bag'ishlangan ilmiy sessiy bo'lib o'tadi. Sessiyadagi ma'ruzalarda Markaziy Osiyo mintaqalarida qadimdan yashab kelgan o'zbek, tojik, qozoq, turkman, qirg'iz va qoraqalpoq xalqlarining etnik tarixi juda qadimdan boshlanganligini va bular bir necha etnik elementlarini o'z tarkibiga qamrab olib, murakkab etnik jarayonni o'tab, avval elat va keyin millat bo'lib shakllanganligini aniq dallillar bilan isbotlaydilar.

Uchinchi davrga B.Ahmedov, A.Asqarov, K.Shoniyozov, T. Xodjayovning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

Ma'lumki o'zbeklar xalq sifatida etnik asosda shakllangan. O'rta Osiyoning qadimgi avtohton qabilalari va xalqlari bilan bir qatorda (sug'dlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, farg'onaliklar, saklar, massagetlar, toxarlar va x.k.) o'tmishda turli etnomadaniyat muhitlari va qabila uyushmalariga mansub bo'lgan qator tarkiblar ham ishtirok etgan.

O'zbek xalqi etnogenezi va shakllanishining g'oyatda muhim va u bilan birga murakkab muammosi har doim olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Umuman, barcha tadqiqotchilar O'zbekistonning asosiy aholisining muqarrar avtoxonligi haqida yagona fikrga kelgan edilar. Qadimgi O'rta Osiyo aholisi – xorazm, so'g'd, massaget, sak, o'zbek, tojik, turkmanlarning ajdodlari bo'lgan edilar.

Vatan tarixshunosligida yana shu narsa belgilab qo'yilganki, Movarounnaxr mahalliy aholisi ajdodlari azal-azaldan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan va ularning tarkib topish jarayoni, umumiy etnik asosda kechgan. Ikki ming yildan ko'proq vaqt ilgari turkiyzabon qabilalarning Sharqdan G'arbga keng miqiyosda ko'chib o'tishi munosabati bilan mahalliy etnik muhit turkiyzabon qabilalar va guruhlarning ulkan qorishmasini o'ziga singdirgan.

O'zbek xalqi etnogenezi tarixshunosligida K.Shoniyozov tadqiqotlari markaziy o'rinni egallaydi. «O'zbek xalqining etnik tarixiga oid (Qipchoq tarkibi materiallari asosida tarixiy etnografik tadqiqot)» (T.1974.) risolasida muallif qipchoqlar etnik tarixining asosiy bosqichlari, kelib chiqishi, joylashuvi, ularning o'zbek elati bilan qo'shilib ketishi jarayoning batafsil yoritib bergan.

K.Shoniyozov ilmiy ishining maqsadi o'zbek xalqi etnik tarixining etnogenezida o'rta asr qipchoqlarining ishtirokiga daxldor alohida o'rinlarni tadqiq etish, deb aytganiga qaramay, uning ilmiy tadqiqoti ko'lami xiyla kengdir. Olim tadqiqoti, umuman qipchoq etnosi bilan bog'liq tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va etnik masalalarning butun majmuini atroflicha qamrab oladi. So'rab surishtirish yo'li bilan to'plangan dala materiallari va 1961-1971 yillardagi sayyoxlik ishlari jarayonida shaxsiy kuzatuvlar natijalari K.Shoniyozovga etnografik ma'lumotlarning asosiy manbalari bo'lib xizmat qildi. Muallif shuningdek ko'plab tarixiy qadimshunoslik, lingvistik, antropologik, folklor hamda boshqa manba va adabiyotlarni ham keng o'rganadi. K.Shoniyozovning ko'rsatishicha, X-XIII asrlarda qipchoqlar Sharqiy Evropa Qozog'iston va O'rta Osiyo siyosiy hayotida katta rol o'ynagan. Ular uzluksiz urushlar olib borib o'zgaralar erini bosib olganlar va o'z chorvalarini eng yaxshi yaylovlar bilan ta'minlaganlar. Muallif komil ishonch bilan ta'kidlaydiki, ko'chmanchilarning qo'shni qabilalar va xalqlar ustiga bosqinchilik maqsadidagi yurishlari feodal boylar uchun boyish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Mazkur tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'sha vaqtdagi qipchoq birlashmalarining etnik tarkibi xiyla aralash-quralash bo'lgan. Ayrim avvalgi etnosiyosiy birlashmalar (pichinek, qang'li, qipchoq, o'g'uz, o'z va hokazolarning) qoldiqlari shu jumladan, turk bo'lmagan unsurlar (masalan, ugrofin)larning ko'pchiligi X-XIV asrlar davomida asta-sekin qipchoqlarga qo'shilib ketgan yoki ularga tobe bo'lgan. Tadqiqotchining asosli ravishda ta'kidlashicha, o'zbeklar etnogenezida X-XVI asrlar qipchoqlarning ikki guruhi X-XI asrlardayoq Movarounnaxr va Xorazm aholisi bilan aloqada bo'lgan sharqiy (yoki Sirdaryo bo'yi) va XIV asrda qisman XV-XVI asrlarda o'zbeklarning etnik doirasiga kirgan, boshqa qabila birlashmalari bilan bir qatorda o'zbek xalqi etnogenezida eng keyingi tarkibni tashkil qilgan g'arbiy (yoki Sharqiy Evropa) guruhi ishtirok etgan. Mavjud aniq hujjatlarni tahlil qilar ekan, K.Shoniyozov shunda xulosaga keldi, ya'ni qipchoqlar XIX-XX asr boshlarida turli urug' qabila birlashmalari qorishmasidan iborat bo'lgan. Ular tarkibida turli etnik jamoalarga mansub qadimgi va o'rta asr unsurlari kuzatiladi. Muallif etnografik ashyolarning chuqur tahlil qilish asosida XIX asr oxiri XX asr boshlarida qipchoqlarning asosiy qisman o'troq dehqonlar tashkil etganligini qayd etadilar. Bu esa o'zbek xalqi alohida guruhlarining xo'jalik faoliyati iqtisodiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan. Xolisona

aytganda, K.Shoniyozov risolasi albatta ayrim kamchilik va xatolardan ham holi emas. Masalan, qipchoqlarning ijtimoiy-oilaviy munosabatlari muallif tomonidan atroflicha va batafsil yoritilgan deb bo'lmaydi. Islomgacha bo'lgan dinlarga g'oyat kam joy berilgan. K.Shoniyozovning boshqa risolasi «qarluq o'zbeklari: tarixiy etnografik ocherk»i (T.1964 yil.)dir. Buni uning o'zbek tarixshunosligi oldidagi buyuk yutug'i desak xato bo'lmaydi. Tarix fanidagi mavjud ilmiy metodologik ishlanmaga ko'ra, har bir xalqning kelib chiqish tarixi ikki qismdan - etnogenez va etnik tarixidan iborat bo'ladi. Xalq tarixining etnogenez qismi uning elat, xalq bo'lib shakllanishiga qadar bo'lgan tarixidan iborat.

Etnogenez yakunida etnosga xos barcha etnik belgilar va omillar mujassamlashgan bo'ladi. Fanda etnosni uyushtiruvchi zaruriy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar va etnik belgilar mavjud. Ular hududiy birlik, til birligi, etnik nom birligi. O'zlikni anglash birligi va nihoyat siyosiy uyushmalaridan iborat.

Muallif qarluqlar tarixini o'rganib, bu xalqning O'rta va Markaziy Osiyo tarixida etakchi rol o'ynaganini ko'rsatgan. K.Shoniyozov ta'rif bershicha, qarluq qabilalari Farg'ona va O'rta Osiyoning boshqa mintaqalari bo'ylab keng yoyilgan, shuningdek Toxariston va unga qo'shni viloyatlarda ham o'rnatilgan: «Qarluqlar X asrda nafaqat Toxariston, balki hozirgi Afg'onistonning shimoliy-sharqidagi keng hududni egallaganlar; qarluq ko'chmanchilarning mintaqalari Hindistonning shimoliy va shimoliy-g'arbiy qismlari - Kashmir va Peshavorga yoyilgan». Muallifning kelgindi aholi o'troq tub aholi bilan aralashib ketganligi, shimoliy Xindistonning qadimiy madaniyatini o'zlashtirganligi haqida fikriga qo'shilmaslik mumkin emas. «O'zbek xalqi etnogenezida qarluqlar tarkibining roli haqidagi» maqolasida K.Shoniyozov ta'kidlaydiki: «Qarluqlar XI asrning birinchi yarmiga kelib shakllanib o'lgurgan o'zbek xalq etnogenizida jiddiy rol o'ynadi, shakllanib bo'lgan o'zbek xalqining bundan keyingi rivojlanishi taraqqiy etgan va kech feodal jamiyati davrida kechadi». K. Shoniyozovning 2001 yil nashr etilgan "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" asari ushbu masalada so'nggi yillarda e'lon qilingan yirik tadqiqot hisoblanadi. Unda o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi masalalari atroflicha yoritib etnologiya fanining nazariy va ilmiy metodologik asoslariga aniqlik kiritdi.

K.Shoniyozov «O'zbek xalqining shakllanish jarayoni» asarida etnogenezning qator nazariy masalalarini tushuntirib berdi. O'zbek xalqi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatdi, mintaqadagi etnik birliklarning ilmiy asoslangan tasnifini ishlab chiqdi, shuningdek, O'zbekiston hududida eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha kechgan etnik jarayonlarni davrlashtirdi.

O'zbek xalqi etnogenezi tarixshunosligi. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'rganish tarix fanining murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Bu masalada XX asrning 40 yillaridan boshlab muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. 1950 yillarda O'zbekistonga qo'shni mintalarda yashovchi o'zbeklar etnografiyasi bo'yicha qator maqolalar e'lon qilindi, (Masalan B.X.Karmisheva «Laqaylarning kelib chiqishiga doir» (Sovet etnografiyasi. 1952 yil №4). «Janubiy Tojikistonning o'zbek laqaylari». (TojSSR FA tarix, qadimshunoslik va etnografiya ishlari. Birinchi bo'lim), «Inqilobgacha davrida chorvachilik tarixiy etnografik ocherki» (Stalinobod 1954 yil) B.X. Karmisheva «Semez va Kisamir o'zbek urug'lari haqida ma'lumotlar» (Toj SSR tarix qadimshunoslik va etnografiya instituti ilmiy ishlari), O'rta Osiyo xalqlari tarixi va filologiyasi bo'yicha A.A.Semyonov tug'ilganining 80 yilligiga bag'ishlangan maqolalar to'plami (Stalinobod 1953 yil 99-110 bet) ushbu ishlar bevosita o'zbek xalqi etnogenezi muammolariga bag'ishlangan bo'lmasada, ularda ushbu muammo bo'yicha ayrim ma'lumotlar mavjud.

B.Karmisheva «O'zbekiston va Tojikiston janubiy rayonlarining etnik tarix ocherklari» (etnografik ma'lumotlar bo'yicha M.1976 y.) risolasi mazkur mintaqalar etnik tarkibining yuzaga kelish tarixi tadqiq etiladi. Muallif XIX va XX asr boshlarida Sharqiy Buxoro o'zbek aholisi haqida gapirar ekan, quyidagi qatlamlarni ajratib ko'rsatadi: urug'-qabilachilik bo'laklariga ega bo'lmagan o'troq aholi (Chig'atoy, xo'ja, qarshiliq); dastlabki qabilalar, ya'niy mo'g'ullar xukmronligi davrida turk-mo'g'ul qabilalari va Movoraunnaxrning mo'g'ullargacha bo'lgan turk qabilalarining o'troq aholi bilan singishib ketmagan, balki yarim ko'chmanchi turmush va urug' qabilachilik bo'linishini saqlab qolgan qismi avlodlari (turklar-qarluqlar xalachlar va x.); keyingi qabilalar – XV asrda Shayboniyxon bilan birga Dashti qipchoqdan Movoraunnaxga kelib qolgan va bu erda XVI asr boshida mustaxkam o'rnatilib qolgan o'zbek qabilalari avlodlari (Qung'iroq, yuz, laqay, semez, kesamir, qatog'on, durmon va x.lar). Katta miqdordagi etnografir axborotlarni jalb qilgan holda B.Karmisheva tadqiq etilayotgan mintaqalarda o'zbek aholisining shakllanishidagi turli tarkiblar, mahalliy va boshqa guruhlar ishtiroki jarayonini kuzatib borgan. Jumladan, muallif aytadiki, tadqiq etilayotgan davrda Sharqiy Buxoroda chig'atoylar deb ham tojik ham o'zbek tilida so'zlashadigan o'troq aholini aytganlar. «Chig'atoy» atamasi evolyusiya va kelib chiqishiga qaraganda B.Karmisheva ta'kidlaydiki, boshida u Chig'atoyxon va uning avlodlari gvardiyasini turk mo'g'ullarning imtiyozli qatlamini (XIII-XIV asrlar) Movoraunnaxr va Sharqiy Xurosonning barcha turk aholisini (XV asr), undan ham keyinroq temuriylarning Shayboniylar bilan kurashgan davrida umuman Movoraunnaxrning ham turk va tojik aholisini

anglatadi. O‘zbekiston janubiy mintaqalar aholisining shakllanish muammosiga bag‘ishlangan maqolasida I.Xidoyatov ta’kidlaganidek, bu mintaqalardagi o‘zbek aholisi o‘zining kelib chiqishi bo‘yicha zinhor bir xil emas, u ikki guruhga bo‘lingan - qadimgi o‘troq dehqonlar avlodlari va urug‘-qabilachilik bo‘linishiga ega yarim ko‘chmanchi aholi avlodlaridir. Bunda ikkinchi guruh o‘zbeklari ko‘chmanchilarni tashkil etgan. Umuman tarixshunoslik davrlari tadqiqotchilarning maqolalarida u yoki bu nuqtai nazaridan turib aks ettirilgan mavzu muammo jihatidan turli yo‘nalishlar mustaqildek bo‘lib ko‘rinishiga qaramay ularni bir narsa birlashtirib turadi – o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammolarini umumiy va muayyan xususiy jihatlaridan turib yalpi o‘rganish. Etnogenez va etnik tarixi bo‘yicha bu maqsadga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining davomi o‘zbek xalqi milliy uyg‘onishi jarayonining chuqurlashishi va rivojlanishiga, shuningdek Markaziy Osiyo mustahkam mintaqaviy rivojlanishi va barqarorligining XXI asr voqealariga mos, O‘zbekiston va butun mintaqa jamiyatining tub ehtiyojlarini aks ettiruvchi samarasi mo‘ljallangan ishlab chiqarish bilan bog‘liq qator masalalarning hal etilishiga yo‘naltirilmog‘i darkor.

O‘zbek xalqining etnik tarixiga oid masalalar akademik B.Ahmedovning bir qator asarlarida yoritilgan. Muallif asarlarida o‘zbek ajdodlari qadim zamonlardan O‘zbekiston hududida yashaganliklarini XVI asrning boshlarida bu hududiga kelib o‘z xukmronligini o‘rnatgan ko‘chmanchi o‘zbeklar o‘zbek xalqining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lganligini ta’kidlaydi. Ushbu masalada akademik A.Asqarovning bir necha maqolalari ham e‘lon qilingan. U tarixiy arxeologik, antropologik manbalarga asoslanib, o‘zbek xalqi etnogenezini birinchi bosqichini bronza davridan boshlangan deydi. 2002 yil O‘zbekiston tarixi jurnalining to‘rtinchi sonida «O‘zbek xalqi etnik tarixi va etnogenezining ba’zi bir ilmiy-nazariy masalalari» maqolasida ushbu masalaga oid qimmatli fikrlarni ilgari suradi.

O‘zbek xalqi etnogenezi tarixining ayrim dolzarb masalalari tarixshunosligi. O‘zbekistonda istiqloq tufayli erkin ijod qilishga keng imkoniyatlar ochilgach, turli soha, ilm axli orasida o‘tmish tarixga qiziqish, milliy g‘ururi qaynab, tarixning turli yunalishlari bo‘yicha erkin fikr yuritish jonlanib ketdi.

Ayniqsa, bugungi kunda o‘zbek xalqining kelib chiqishi va uni xalq, millat sifatida shakllanishini, ya’ni o‘zbek etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortdi. Matbuotda, ilmiy-ommabop nashrlarda, ilmiy anjumanlarda o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni, etnik tarixiga oid qizgin bahs-munozaralar davom etmokda. Afsuski, chop etilayotgan ba’zi bir tadqiqotlarda qadimdan shu zaminda yashab kelayotgan xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro bir-biriga uzviy bog‘liqlik,

iqtisodiy va ijtimoiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalar hamda turli darajadagi etnik qorishuvlar tufayli milliy etnoslarning shakllanishi rivojlanishning asosiy omillaridan ekanligi ikkinchi darajaga tushib qolmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixining u yoki bu yoʻnalishi boʻyicha internet saytlarida, ilmiy jurnallar sahifalarida, hatto monografik kitob tarzida milliy nuqtai-nazarlar chuqur ilmiy tahlillsiz keng kitobxonlar ommasiga takdim etila boshlandi. Istiqloq bergan ijodiy erkinlikdan ilxomlangan va oʻz bazaviy mutaxassisligi tarixdan uzoq boʻlgan ziyolilar orasida oʻtmish tarixga bir yoqlamali yondashuvlar asosida millat tarixini yozish anʼanaga aylanib, ularning «ijod» mahsuli ilmiy nazoratsiz chop etilmokda.

Afsuski, keyingi yillarda birlamchi manbalar asosidagi tadqiqotchilikka xos ilmiy odob (etika) oʻrnini milliy ehtiroslar egallab bormokda. Natijada, jahon ilmiy jamoatchiligi eʼtirof etgan obʼektiv tarix, real geosiyosiy vaziyat hisobga olinmay, ilmga zid qarashlarni fanda paydo boʻlib qolishi tufayli, mustaqil Oʻzbekistonimiz tarix fani oldida oʻta masʼuliyatli yangidan-yangi muammolar tugʻilmokda.

Ana shunday muammolarning tugʻilishiga asos beruvchi Oʻrol Nosirovning 2011 yilda chop etilgan «Oʻzbeklar shajarasi» nomli kitobidir.

Muallif oʻzining noilmiy mulohazalari bilan turkiy etnosni jahon sivilizatsiya markazlarining asoschilari sifatida koʻrsatish maqsadida, turli adabiyotlar va manbalarga noxolis yondashgan. Shuning uchun kitobda keltirilgan maʼlumotlarning mutloq aksariyati ilmiy tahlillsiz, kuchli ehtiroslar negizida, oʻzbek etnogenezi ildizining turkiy qatlamini jahon sivilizatsiyasining beshigi sifatida koʻrsatishga uringan.

Avvalambor, kitobni «Oʻzbeklar shajarasi (Etnik tarixga xolis nazar)» deb nomlanishi uning tub mazmuniga mos kelmaydi. Chunki, shajara orqali butun bir xalqning etnogenezi va etnik tarixini yoritib boʻlmaydi. Kitob annotatsiyasida masalaga muallif yondashuvining ilmga zid, hatto tarix havasmandlari ham qabul qilishi qiyin boʻlgan farazlarni tarixiy haqiqat sifatida talqin kilinishi, jumladan, oʻzbek xalqining azaliy ajdodlari faqat skiflardan iborat deyishi, oʻzbek xalqi odamzod paydo boʻlganidan boshlab hozirgi Oʻzbekiston hududida oʻtroq va yarim oʻtroq yashab kelayotgani, oʻzbeklar mil. avv. VI-V ming yilliklarda Eron orqali Kichik va Old Osiyoga borib madaniyatlar yaratgani, mil. avv. II-I mingyilliklarda Sirdaryo va Amudaryo oraligida, yaʼni hozirgi Oʻzbekiston hududiy doirasida Skifiya davlati boʻlgani haqida yozadi. Bu maʼlumotlar tarixiy haqiqatga ziddir.

Rasmiy tarixga koʻra, skiflar mil. avv. VII-III asrlarda Shimoliy Qora dengiz boʻylarida, yaʼni Dnestr, Dnepr va Don daryolari quyi havzalarida, Azov dengizi

atroflarida va Qrim yarim orolida yashagan va ular asosan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qabilalarning konfederativ uyushmasini tashkil etishgan. Arxeologik izlanishlar va yunon-rum manbalarining xabar berishicha, mil. avv. VII-IV asrlarda shimoli-sharqiy Qora dengiz bo'ylari, Azov dengizi va Qrim yarim orolining dashtlari skiflar keng tarqalgan hududlar bo'lib, bu hududlar yunon-rum yozma manbalarida Skifiya deb nomlangan. «O'zbeklar shajarasi» kitobining muallifi esa Skifiyani O'rta Osiyoning ikki azim daryolari (Amudaryo va Sirdaryo) oraligiga joylashtiradi.

Afsuski, o'zbek etnogenezi masalasida U. Nosirov xalqimiz tili turkiy ekan, uning yagona o'k tomiri ham turkdir, turkning ajdodi skifdir, deb xalqimizning uzoq o'tmishiga tegishli o'troq sug'orma dehqonchilik madaniyati va yuksak darajada rivojlangan keng tarmoqli hunarmandchiligiga oid boy madaniy merosidan mahrum etmoqchi bo'layotganligini o'zi payqamaydi. U muammoning tub mohiyatini tushunmay, mafkuraviy-dushmanlarimizga ozuqa berayotganligining farqiga bormaydi.

Hozirgi kunda ko'p millatli O'zbekiston manfaatidan kelib chikib, etnogenez va etnik tarix masalasiga xolis yondashish lozim. Bu o'ta nozik masalada har bir olim yoki muallif aytgan so'zi uchun mas'uldir. Aks xolda, oddiy xalqni chalg'itish milliy nizo va adovatlarning sababchisi bo'lib qolishi xech ran emas. Umuman olganda, ushbu asar xalqimizning kelib chiqishi borasida sohta, noilmiy qarashlar asosida yozilgan bo'lib, uni keng o'quvchilar jamoasiga taqdim etish maqsadga muvofiq emas. Chunki, bunday «asar»lar qo'shni davlatlarda faoliyat yuritayotgan ba'zi bir g'oyaviy muxoliflarimiz uchun tayyor hurak, ularning tegirmoniga suv quyishdir.

Keyingi yillarda o'zbek xalqining etnogenez va etnik tarixi muammolari bilan bog'liq masalalarda yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar ham asar va risolalar yoza boshladilar. Ularning asarlarida tilshunos-filologlarga xos badiiy to'qimalarni tarixiy haqiqat sifatida talqin etish asosiy o'rinni egallaydi. Xususan, bir necha badiiy risolalar muallifi Anvar Shukurov rasmiy tarixga zid qarashlar asosida yozilgan «O'zbek atamasining kelib chiqishi haqida» nomli risolasini chop etgan. Anvar Shukurovning ta'kidlashicha, antik davr muallifi Diodor «Tarix kutubxonasi» asarida «biz turkiylarning jahongir bobomiz O'g'uzxon bo'lgan», deyilgan. Diodor bundan ikki ming yil avval skiflarning sardori O'g'uzxon bo'lganligi, bu tarixiy fakt Mirzo Ulugbekning «To'rt ulus tarixi» va Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarai turk» asarlarida o'z aksini topganligini qayd qiladi. «Bir zamonlari, - deydi muallif, - Hindiston, Xitoy, Eron, SHom, Misr, Rus

dengizigacha erlarni bosib olgan va turk maliklari orasida mashhur bo'lgan jahongir O'g'uzxon edi», degan xulosaga keladi.

A. Shukurov, uzoq o'tmishda «Tufon» bo'lganligi, Tufonda Nuh payg'ambar qayig'ida suzgan turkning bosh bo'g'ini Yosaf, Yosafning o'g'li Tur yoki Turkdan tarix boshlanganligi, Tufondan 270-300 yil keyin o'g'uzlar podshosi bahodir O'g'uzxon turklarning nufuzini dunyoga taratdi, deydi. Aslida fan yutuqlariga ko'ra, Tufon bundan tahminan 40 ming yil avval o'tgan. U davrda o'g'uz deb atalgan qabilalar va ularning podshosi O'g'uzxon ham bo'lmagan. O'g'uzxon Mirzo Ulug'bek va Abulg'ozii ma'lumotlariga ko'ra, turkning bosh bo'g'ini Yofasning to'qqizinchi yoki uninchi bo'g'ini bo'lgan. A. Shukurovning kitobxonga tushinishi qiyin bo'lgan hisob-kitobini arxeologik davriy sanalar bilan qiyosiy solishtirilsa, O'g'uzxon bundan 39.700 yil avval o'tgan bo'ladi. Ammo, muallif esa O'g'uzxon mil. avv. II asrda yashagan deb yozadi. Ko'rib turibsizki, ilmiy arxeologik davriy sana bilan A. Shukurovning qarashlarida mantiqiy bog'lanish yo'q.

A. Shukurov chingiziy avlodlarini turkning bir bo'g'ini hisoblab, mug'ullarni «bizning ajdodlarimiz ekanligini tan olish vaqti kelmadimikan», degan tavsiyani tarixchi mutaxassislariga bermoqchi bo'ladi. A. Shukurov «O'zbek» atamasining kelib chiqish tarixiy ildizlarini goh «Tufon» bilan, goh o'g'uz atamasining o'zagidan izlab, kitobxonni chalg'itishga qanchalik urinmasin, o'zbek atamasining kelib chiqishi haqidagi akademik B. Axmedovning mulohazalari ilmiy asoslidir.

Muallif o'zining navbatdagi «Nur ustiga nur yog'sin» kitobida o'zbek xalqining ajdodlari qachondan boshlab o'troq hayot kechira boshladi? - degan savolga javob topishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yganligini ta'kidlaydi. Biroq, bu masala kitobda o'z echimini ilmiy asosda topmagan. U bu o'lkada «kent», «tepa», «qo'rgon», «qal'a» kabi joy nomlarini uchratilishi o'troq; hayot va shaharni anglatgan, degan iboradan nariga o'ta olmaydi. Skiflar-saklar ajdodlarimizning bir tarmog'i ekanligi ma'lum. Skif-sak yuzlab, minglab chorvador qabila va urug'larning uyushmasi. Ular tarixda chorvador ko'chmanchi xalq sifatida e'tirof etiladi. Bu xalqning O'rta Osiyo hududlarida yashovchi etnik guruxlari mintaqaning eroniy til muhitida eroniylashib, ana shu tilda Avesto yaratildi. Shu bois, rasmiy tarixda O'rta Osiyo saklari eroniy tilli xalq degan tasavvur paydo bulgan. O'rta Osiyo saklarining o'troqlashgan qismi hisobiga sug'diylar, buxtariylar, xorazmiylar etnik nomlari ostida O'rta Osiyoning muqim yashovchi aholisi tarkib topdi. Demak, ular ham eroniy tilli xalq sifatida talqin etildi. Biroq, o'zbek xalqining kelib chiqish tarixini fakat skif-saklarga bog'lab qo'yish ham, tarixda kechgan murakkab etnogenetik jarayonlarni inkor etishga olib keladi. Hozirgi o'zbeklar asosan ikki tilli etnik

jamoalarning uzoq asrlar davomida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va etnomadaniy jihatdan rivoji va qorishuvidan tarkib topgan yangi etnosdir. Bu turli etnik guruxlarning qorishuvida yolgiz o'g'uzlar emas, balki qarluq, chigil, argun, kipchok va boshka o'nlab, yuzlab turkiy qabilalar ham qatnashgan. A.Shukurov tasavvurida «o'zbek» faqat skif-sak, o'g'uzlardan tarkib topgan bo'lib qolgan.

Oliy o'quv yurti pedagoglari orasida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o'rganish borasida murakkab etnogenetik jarayonlarni to'g'ri tushunib, xolis fikr va mulohazalar yurituvchi ustozlar ham yo'k emas. Samarkand davlat chet tillar institutining professori, filologiya fanlari doktori U. Sanaqulov 2010 yilda «O'zbek xalqi va tilining etnogenezi hamda etnik qatlamlari» nomi ostida talabalarga ilmiy-uslubiy materiallar chop ettirgan.

Sanaqulov akademik A.Asqarovning 2007 yilda Oliy o'quv yurtlari ijtimoiy-gumanitar fakultetlari talabalari uchun chiqargan o'quv qo'llanmasi haqida yaxshi fikrlar bildirish bilan birga, ba'zi bir masalalarda o'z qarashlarini bayon etgan. Masalan, K. Shoniyozov va A. Asqarovlar o'zbek xalqining kelib chiqish tarixiy ildizlari ikkita, ya'ni birinchisi mahalliy eronzabon sug'diylar, xorazmiylar, boxtariylar va sak-massaget qabilalari bo'lsa, ikkinchi ildiz shu hududda qadimdan yashab kelayotgan turkiy qabilalar edi, ularning uzoq asrlar davomida o'zaro qorishuvidan yangi etnos - o'zbek xalqi shakllangan, degan xulosaga keladilar. U. Sanaqulovning fikricha, o'zbek xalqining shakllanishida uchta asosiy o'k tomir bo'lgan. Birinchi tomir qadimdan turg'un holda yashab kelgan tub joyli (qarluq-chigil- uyg'ur) turkiylar bo'lsa, ikkinchi tomir ko'chmanchi (o'g'uz-qipchok) qabilalaridir. Bu ikki ildizning qorishuvidan o'zbek xalqi yuzaga keldi. SHuningdek, qadimgi so'g'diy, xorazmiy va boxtariy kabi qadimgi eroniy tilli qabilalar qorishuvidan yuzaga kelgan komponent esa o'zbek xalqining uchinchi tomiri xisoblanadi. Muallif davom etib, o'zbek xalqi tarkibida qadimiy eroniy tilli komponentlar bo'lsa-da, ammo u o'zbek xalqining shakllanishida o'q tomir bo'la olmaydi, deydi.

U. Sanaqulov kitobining 35-betida: «xorazmiylar Markaziy Osiyodagi ancha qadimiy va qudratli qabilalardan biri bo'lgan. Bu qabilaning o'tmishi tarixiy manbalarda qayd etilishicha, mil. avv. IX-VIII asrlar bilan o'lchanadi. Xorazm hududidan topilgan Amirobod madaniyati bundan dalolat beradi», - deydi. Tarixiy manbalarning tahliliga ko'ra, xorazmiylar haqida ran ketganda, mil. avv. VI asrda Xerirud-Tajan vodiysidan Amudaryo quyi xavzalariga kirib kelgan xorasmiylar va ular qoldirgan Ko'zaliqir, Hazorasp, Xumbuztepa kabi yodgorliklar tushuniladi. Ungacha bu o'lkada chorvador sak-massagetlar yashab, ulardan qolgan Amirobod madaniyati aholisi esa yarim ertula kulbalarda yashagan, ular xorasmiylarga xos

monumental qal'alar qurmaganlar, ularga mil. avv. VI asrda kelib qo'shilgan yuksak sivilizatsiyali xorasmiylardan ancha orqada edilar.

Kitobning 37-betida Abu Rayxon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida keltirilgan mil. avv. 1292 yil bilan bog'liq tarix, Xorazmning ilk bor o'zlashtirilishi haqida emas, balki bu hududda ilk bor «turk podsholigi»ni tarkib topishi bilan bog'liq edi. Beruniy xalq og'zaki rivoyatlaridan keltirgan bu dalillar arxeologik materiallarda o'z aksini topgan.

O'zbek xalqining kelib chiqishi masalalari shunchalar qiziqarli va jozibadorki, o'zini o'zbek deb bilgan har bir ziyoli u hakdagi ilmiy yoki rivoyatlarga burkangan tarixiy asarlarmi, ularni farqiga bormay, ularni o'qishga, ular asosida o'z qarashlarini bayon etishga intiladi. Internet saytlari bu masalada ochiq oyna! Istalgan mavzuda, u ilmiymi yoki uydirma, tukima va faktlarni rivoyatlar bilan omuxtalashgan karashlarmi, baribir, ularni o'z sahifasida e'lon qilinishiga imkon beradi.----Keyingi yillarda internet sahifalarida o'z kasbiga ko'ra quruvchi, iqtisod fanlar doktori Rustam Abdullaev ismli ijodkor o'zbek xalqining kelib chiqishi mavzusida «noyob nazariyachi» sifatida paydo bo'lib qoldi. Uning ana shu maqolalardan birida («O'zbekiston: sinovlar, tahdidlar, muammolar va echimlar») Alisher Navoiyning etnik kelib chiqishi masalasida turkiyalik olim Temirxo'ja o'g'li va o'zbek jurnalisti Xurshid Davron bilan bahslashib, ularni «Navoiy o'zbek shoiri emas, chunki tarixiy Turkiston 1924 yilda O'zbekiston bo'ldi. Navoiy turk shoiri, vaqti-soati kelib bu xato tuzatiladi» degan bashoratlarini to'g'ri tanqid kiladi. Ammo, uning qarashdarida tarixiy tizimlilik, xronologik ketma-ketlik, tarixiy jarayonlarga ob'ektiv baho berish va manbalar, adabiyotlar ilmiy tahlilida xolislik ko'zga tashlanmaydi. «O'zbekiston: sinovlar, taxdidlar, muammolar va echimlar» nomi ostidagi ikkita maqolasida Chingizxonning katta o'g'li Jo'jixonni turkka chiqaradi, uning onasi Burte-qung'irod, otasi Chilgir Boko baxodir merkit turklaridan, uning onasini Temuchin (Chingizxon) o'ziga xotinlikka olganda Burte yo'lda tug'ib qo'yadi, bolaga Jo'jixon ismi berilgan. «Aslida esa uning nomi yo'lda tug'ilgani uchun Yo'lchi edi». «Juji (Yulchi) ulusining avlodlaridan bulgan O'zbekxon hokimiyatga kelgach, uning ulusi, uning sharafiga O'zbek ulusi, O'zbekiston deb atala boshladi. O'zbekxonning bobosi Mangu Temir hukmronligi (1251-1259) davridayok Juji ulusi Mug'ul imperiyasidan to'liq ajrab chikib, mustaqillikka erishgan, O'zbekxon esa uning har jihatdan mustaqilligini ta'minlagan». Bu esa tarixiy haqiqatga ziddir.

Rustam Abdullaev «O'zbeklar - turk xalqlarining aslzodalari, sartlar esa - Markaziy Osiyoning tadbirkorlari» nomli maqolasida XIV asrda O'zbek davlati aslzoda beklar - xarbiylarning ixtiyoriy uyushmasi asosida tarkib topgan, sartlar

esa Markaziy Osiyoning tadbirkor turkiy savdogarlari ekanligini isbotlashga urinadi. Shuning bilan birga, o'zbeklar bilan ruslar o'rtasida etnik yaqinlik mavjudligini «asoslashga» urinadi. Muallifning rivoyatlarga asoslangan «nazariyasi»ga ko'ra, ruslar, hatto hindlar qonida turklar qoni mavj uradi, To'fondan omon qolgan Nuh, payg'ambar Ararat tog'larida emas, balki Oltoy tog'larida qo'nim topganligi haqida so'z yuritadi. «Evropaliklar Nuhning o'g'li Yofas, uning o'g'li Tur yoki Turkdan tarqalganligi, Turkning aslzodalari o'zbeklar bo'lgan» degan farazni o'rta tashlaydi. Bu masalada Rashiddin va Fazlulloh kabi fors tarixchilarining diniy rivoyatlari asosida bitilgan asarlariga suyanadi.

Muallif rivoyatlarga asoslangan holda va hech bir ilmiy asoslarsiz «mug'ullarning nasl-nasabi turk bo'lgan», «O'zbekxon davrida Oltin O'rda davlatining davlat tili eski o'zbek tili edi» degan xulosaga keladi. U o'zbek xalqining o'tmish tarixidan bilag'onlik qilib «ba'zi bir chalasavod tarixchilar hech bir isbotsiz Mo'g'ulistonning aholisi turklashtirilgan mug'ullar bo'lgan» deydi. Uningcha, qung'iroq va oyrot urug'lari etnik kelib chiqish jihatidan mug'ul emas, turk emish. Shuningdek, muallif «rus knyaz va dvoryanlarining aksariyati kelib chiqish tarixiy ildizlariga ko'ra turk bo'lgan. Ularning barchasi turklarning bahodir qo'ng'iroq urug'i bilan etnik jihatidan bog'liqdir. Bu haqda L. Gumilev o'zining «Drevnyaya rus i Velikaya step» nomli asarida «Temur barlos bo'lgan, Edigey esa - qung'iroq bo'lgan va ular buni doimo o'z yodlarida saqlashgan» deb aytib ketgan. Prof. S.Ya. Baskakov esa, asosli ravishda «rus podshosi Boris Godunov, Yusupovlar, Golitsynlar, Narishkinlar, Rostopchinlar, Glinskiylar, Romanovlar knyazlik urug'lari, pravoslav dinining namoyandasi Petr Ordinskiy, Petr, Solomoniya Saburova, Elena Glinskaya, Irina Godunova, malika Marfa Apraksinalarning kelib chiqishi turk bo'lib, turkning aslzodalari o'zbek bo'lgani bois, ular ham o'zbeklar safiga kiradi», deydi.

To'g'ri, dunyoda biror xalq yoki millat yo'kki, uning etnik tarkibi monoildizli bo'lsa. Shu bois, o'rta asrlarda Dashti Qipchok o'zbeklarining janubiy rus aholisi bilan etnik aloqalari bo'lganligini ham inkor etib bo'lmaydi. Lekin bu aloqalar ularning qonida qaysi bir o'lchamda bo'lishidan qat'iy nazar, ular rus xalqi bo'lib shakllandi. Shuning uchun ularni etnik ildizi turk bo'lgan, o'zbek bilan rus xalqi o'rtasida etnik bog'liqlik bor, demak, ular o'zbek edi, deb xulosa chiqarish xatodir. Shuningdek, oriy, o'zbek xalqi va uning davlatchiligini kelib chiqishi haqidagi fikrlari ham tarixiy haqiqatdan yirokdir.

O'zbek xalqining kelib chiqishi haqida yozilgan asarlar tanqidiy tahlilidan kelib chiqadigan yakuniy xulosalar:

1. Etnogenez va etnik tarix, tarix fanining bosh masalasidir. U yoki bu xalqning kelib chiqish tarixini o'rganmay turib, uning iqtisodiy xo'jalik tarixini, madaniyati, davlatchiligi, siyosiy va ma'naviy dunyosini o'rganish mumkin emas. Fan olamida ularni o'rganish ilmiy metodologiyasi, o'ziga xos uslubiy yondashuv prinsiplari mavjud. Masalaning muammoviy jihatlari tadqiqotchidan o'ta xolislikni, materiallar kompleks tahliliga ob'ektiv yondashishni va chuqur ilmiy tafakkurni talab etadi. Masalaning yana bir muhim jihati tadqiqotchidan muammo echimini topishda ilmiy tajriba, bilim va mintaqaga xos etnosiyosiy vaziyatini hisobga olib bilishlik, izlanishlarda milliy ehtirolarga berilmaslikni talab etadi. Xalqlarning etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda sho'ro davri tarixshunosligida qator salbiy holatlarning mavjud bo'lishiga qaramay, milliy avtohtonizm nazariyasi ruhiyatida yozilgan asarlar ilmiy fundamental xarakter kasb etdi.

2. Keyingi yillarda o'tmish tarixga ommaviy qiziqish, o'z millatining mintaqaviy tarixi va madaniy merosini o'rganishda noilmiy yondashuv kuchaydi. Natijada, etnosning shakllanishi bilan bog'liq masalalarda ilmiy professionalizmdan yiroq asarlar chop etila boshladi. Ilmiy xolislik, ob'ektiv yondashuv yo'qligi tufayli milliy ehtirolarga to'la, tarixiy haqiqatga zid asarlarning xususiy nashriyotlarda chop etilishi tabiiy xolga aylandi.

3. Fanda ijodiy erkinlik yaxshi, busiz fan rivojlanmaydi. Har bir ilmiy asar, milliy nizolarga emas, balki amaliy xayotda tinchlik va barqarorlikka xizmat etishi kerak. Bu akademik ilm-fanning ijtimoiy va gumanitar yo'nalishining nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Masala tub mohiyatini tushunmay murakkab muammoga qo'l urish millat sha'niga dog' tushiradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. O'zbek xalqi etnogenizi va etnik tarixini o'rganishni qanday davrlarga bo'lish mumkin?
2. O'zbek xalqi etnogenizi va etnik tarixi masalasidagi davrlarga kimlarni asarlarini kiritish mumkin?
3. O'zbek xalqi etnogenezi tarixshunosligida K.Shoniyoov tadqiqotlari qanday o'rinni egallaydi. Fanda etnosni uyushtiruvchi zaruriy omillarga nimalar kiradi?
4. Qachondan boshlab o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'rganish bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda?
5. Mustaqillik davrida o'zbek etnogenizi bo'yicha chop etilayotgan asarlarning mazmun-mohiyati nimalardan iborat? Misollar bilan tushuntirib bering.

7-mavzu: MO'G'ULLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA O'RTA OSIYO XALQLARI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

Reja:

1. Mo'g'ul bosqini arafasida Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy-siyosiy holati tarixshunosligi.
2. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bosqini tarixining ilmiy o'rganilishi.
3. Mo'g'ullarning Xorazmshohlar davlatiga bosqinining mahalliy manbalarda o'rganilishi.
4. Mustaqillik yillarida Sulton Jaloliddin faoliyatining o'rganilishi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: *Mo'g'ullar bosqini arafasida Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy-siyosiy holati tarixshunosligi, mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bosqini tarixining ilmiy o'rganilishi, mo'g'ullarning Xorazmshohlar davlatiga bosqinining mahalliy manbalarda o'rganilishi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.*

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Xorazm tarixi tarixshunosligi, "Gosudarstvo Xorezmshaxov-Anushteginidov", Muhammad bin Muayyad Bag'dodiy, "muhim nomlar bitish yo'l yo'riqlar", Juvayniy, Jurjoniy, Nasafiy, Ibn al-Asir, Roshiddin, Sulton Muhammad, «Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida», Chan-Chun, «Jome' at-tavorix», I. N. Berezin, "To'rt ulus tarixi", Abulg'ozixon, "Jaloliddin Manguberdi" asari.*

Mo'g'ul bosqini arafasida Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy-siyosiy holati tarixshunosligi. Qadim zamonlardan sivilizatsiya o'choqlaridan bo'lgan Xorazm tarixi bilan nafaqat mamlakatimiz tarixchilari, balki dunyo tarixchilari shug'ullanib kelishgan va qator yirik ilmiy tadqiqotlar yaratganlar. Lekin o'rta asr Xorazm tarixi fanda juda kam o'rganilgan. Vaholanki, Xorazm hududida, umuman Markaziy Osiyo hududida o'rta asrlarda dunyo ahamiyatiga molik bo'lgan buyuk voqealar ro'y bergan va ular ko'plab manbalarda aks ettirilganiga qaramay, bu asarlar hozirgi kunda o'zbek tiliga tarjima etilmagan, tahlil qilinmagan va o'rganilmagan. Ana shunday kam tadqiq etilgan muammolardan biri bu Xorazmshohlar davlati tarixidir.

Ziyo Buniyodov "Gosudarstvo Xorezmshaxov-Anushteginidov (1097-1231)" (Anushtegin - «Xorazmshohlar davlati») asarida Xorazmshohlar davlatining shakllanishi, tashkil topishi, xorazmshohlar taxti uchun kurash, xorazmshohlar davlatining yuksalishi va gullab-yashnashi, xorazmshohlar

davlatining harbiy tuzilishi, davlat va saroydagi lavozimlar, tanga va pul muomalasi, madaniy hayot to'g'risidagi keng ko'lamli ma'lumotlar beradi.

Muhammad bin Muayyad Bag'dodiyning "Kitob at-tavassul ila tarassul" asarida 1182-1184 yillarga tegishli Xorazmshoh Tekesh hukmdorligi davri hujjatlari jamlangan. Ular orasida Tekeshning 1183 yilda G'iyosiddin G'uriyga yuborgan maktubi ham bor.

Qoraxitoyliklarning 1141 yilgi g'alabasi Saljuqiylarni zaiflashtirib tashladi. Saljuqiylar mag'lubiyatning yana bir omili Xorazmning siyosiy markazi sifatida ko'tarilib chiqqani bo'ldi. Xorazmni saljuqiylar hukmronligidan ozod etish uchun izchil kurashganlardan biri Qutbiddin Muhammad Otsizning o'g'li (1127- 1156)y edi. Otsiz bo'lajak Xorazm shohlarning buyuk davlati asoschisi edi. (Eron saljuqlari XII asr o'rtalarida boshlab nomigagina hukmron edi. 1156 yili saljeqiylar davlati sultoni Sanjar 3 yillik asrligidan so'ng poytaxtga qaytib keldi va bir yildan so'ng vafot etdi. Uning o'limidan so'ng Fors va Ozarbayjonda mustaqil davlatlar vujudga keldi. Xalifalikning markaziy Bog'dod o'z hokimiyatini tikladi. Bu jarayon Xorazmshohlar mavqeini tikladi. Shoh Olovuddin Takash (1172-1200) qoraxitoyliklarga soliq berishdan bosh tortdi. U o'lpon yig'ish uchun Xorazmga kelgan qoraxitoyliklar elchisini qatl ettirdi. 1196 yilda Xorazm va Bog'dod xalifaligi o'rtasida bo'lgan jang Xorazmliklar g'alabasi bilan tugadi. Biroq xalifalik dindorlarga suyanardi va shu bois Takash janglar yordamida keng hududlarga ta'sirini o'tkazishga urindi. Lekin, mamlakat ichida o'ziga mustahkam tayanch topa olmadi.

Takashning munshiysi (shaxsiy kotib) Muhammad Bog'dodiy "At- tasviriy ila-t-t-tarssul" (muhim nomlar bitish yo'l yo'riqlar) asari asosida o'sha davrdagi ahvolni tasvirlaydi va Xorazmshoh Takashning Sirdaryo viloyat noibi Jaidga topshirig'ini keltiradi. Unda shoh noibga aholining turli tabaqalari bilan to'g'ri munosabatlarni quyidagicha o'rnatishni beradi:

1. Saidlar (Muhammad avlodidan) kamchilik ko'rmasligi, ularning ehtiyoji va tabarrukligi darajasidan kelib chiqqan holda ta'minlanishlari lozim;

2. Imom va ulamolar qonunlaridan kelib chiqqan holda sovg'a salom va turli imtiyozlarga sazovor etilishlari lozim;

3. Qozi va boshqaruvchilar qonunga rioya etib, adolatni talab qilishlari kerak;

4. So'fi va ularga yaqin kishilar shunday ta'min etilsinlarki, toki ular engilmas davlatimiz uchun bermalol duo o'qislar;

5. Obro‘li oqsoqollarga g‘amho‘rlik qilib turish kerak.

6. Noibga bo‘ysinuvchi amaldor va sarkardalarga qat‘iy boshchilik qilish, aholini talamasliklari uchun haqini o‘z vaqtida berib turishlari kerak;

7. Hudoga ishonuvchilarni qo‘llab quvatlash va ularga aholini hulqini kuzatib yurishni topshirish lozim.

Bu asarning to‘la tavsifini birinchi bo‘lib tarixchilardan A.A.Simonyonov bergan. U Niso viloyati bilan bog‘liq bir qator hujjatlarni tarixchilik nuqtai nazaridan tadbiq etdi. Niso viloyatlari o‘z feodallar mavqei kuchli bo‘lgan Xorazmshohlar davlatini janubiy hududlari hayotida katta siyosiy ahamiyatga ega edi.

Xorazmshohlar davlatida asosiy lavozimlar qanday bo‘lganligi rasmiy hujjatlarda aytib o‘tilgan. Saljuqiylar imperiyasida bo‘lgani singari xorazmshohlar davlatida vazir, qozi, mustafiy oliy lavozim hisoblangan. XII asrdagi vakil va mushrif atamalari bir qadar o‘zgargan. “Caroy vakili”dan tashqari “xususiy devon vakili” ham eslatib o‘tilgan. Vakil pul tizimini nazorat qilgan. Provensiyalarda bunday vaziaalarni mushriflar bajarishgan. Vazirlik boshliqlari tumanlarda ham o‘z ta’sirini ham o‘tkaza olgan. Faqat tumandagi vazirlar oliy buyruq bilan tayinlangan. Ayniqsa viloyatlardagi noiblar katta vakolatlarga ega bo‘lishgan. Saljuqiylar davlatiga qarama-qarshi o‘laroq, Xorazmshohlar davlatida harbiy lavozim – Jondarning ahamiyati katta edi. Hujjatlarda Takash nomidan yozilishicha, jondor – “gvardiyadagi eng ta’sirli kishidir”. U hatto sulton chiqargan o‘lim jazolarini ham ijro etgan.

Barcha tarixshunoslarning asarlarida dastlab mo‘g‘ullar bilan xorazmshohlar davlati o‘rtasidagi elchilik, savdo aloqalari batafsil berilgan. Tarixshunos olimlar mo‘g‘ullarning xorazmshohlar davlatini bosib olishini manbalar asosida yoritishga harakat qilgan Juvayniy, Jurjoniy, Nasafiy, Ibn al-Asir, Roshiddinlar yozib qoldirgan ma’lumotlarni solishtiradi. Mo‘g‘ullar bosqini arafasida Xorazmshohlar davlatidagi siyosiy vaziyat, o‘zaro ichki nizolar, Turkon xotun bilan Sulton Muhammadning o‘zaro munosabati atroflicha yoritilgan. Muhammad Xorazmshohning keyingi ahvoli, O‘tror va boshqa qator shaharlarning bosib olinishi tarixshunoslikdagi asosiy ob’ekt bo‘lib hisoblanadi.

Takashdan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Sulton Muhammad (1200-1220) o‘tirdi. U 1206 yildan Movaraunnaxrni qoraxoniylardan ozod qilishga kirishdi, 1210 yilda Talos vodiysida qoraxitoylar mag‘lubiyatga uchratildi va Ettisuvga qadar bo‘lgan hududlar Xorazmshohlar davlatiga o‘tdi. Uning hukmronligi boshlarida Xorazm

buyuk davlatga aylandi. Ammo Xorazm davlatining inqirozi ham aynan sulton Muhammad davrida yuz berdi.

Muhammadning g'arbiddagi birinchi muvaffaqiyatsizligi arab xalifasidan hutbaga uning nomini kiritishni talab qilganligida edi. Xalifa dunyoviy hokimiyat xorazmshoh foydasiga bo'lishini rad qildi. Bunday istak Takash davrida ham bo'lgan edi. Muhammad ushbu maqsadda Bog'dodga xorazmlik qozi mujjir ad-din Umar bin Said (bu nom tarixchi Nasafiy ma'lumotidan olingan) boshchiligidagi elchilarni yuborgan. Bog'dod hukumati buni qat'iyon rad qiladi. Ular ham xorazmshoh huzuriga shayx Shaxobiddin Suqravirdini yuborgan. Juvayni va Nasafiyning ma'lum qilishicha, shayx sulton saroyida qabul qilingan. Ammo unga yuksak hurmat bildirilmagan. Shayx unga payg'ambarning hadislarini kiritishni taklif qilgan. Sulton unga rozilik bildirda-da, quyidagicha javob bergan; "Men turkiy xalq bo'lsamda arab tilini yaxshi bilmayman. Ammo hadisning ma'nosini har qanday holatda ham tushunaman". Shayx boshchiligidagi elchilar o'z maqsadlariga erisha olmadilar. Faqat ikkala tomon hukmdorlari o'rtasidagi dushmanlik kuchayib borgan.

Xorazmshoh 1217 yil Eronda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Shu yili qish faslida qo'shini Hamadondan Bog'dodga yo'l oldi. Gurjistondagi qor bo'ronlari ta'sirida sultonning qo'shini muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Qolgan bir qismi kurtlar tomonidan yo'q qilingan. Kichik bir qisim Muhammad huzuriga qaytib keldi. Xorazmshohning muvaffaqiyatli holatiga qattiq zarba bo'ldi. Xalq buni muqaddas tizimga shak keltirish deb ham baholagan. Ibn al-Asrning ma'lumotlariga ishonadigan bo'lsak, Muhammad ko'chmanchilarning Movarounnahrda bosqinchilik qilishidan xavfsirab sharqqa qaytgan. Ammo bir necha bor xalifaga dushmanlik munosabatidan voz kechmagan.

1218-yil fevral oyida Nishopurda Nosirning ismi hutbadan chiqarilganligi, halifa Nosir vafot etganligi e'lon qilindi. Marv, Balx, Buxoro, Saraxsda ham bu ma'lumotlar keng yoyilgan. Ammo Xorazm, Samarqand, Hirotda bu haqida gap-so'z tarqalmagan. Nasafiyning ma'lumot berishicha, Muhammad o'zining bu muvaffaqiyatsizligidan so'ng Bog'dod bilan kelishish yo'llarini izlagan. Sulton bilan uning onasi o'rtasidagi nizolar bilan bog'liq holatda bu, ya'ni jamoatchilik fikrini o'zgartirish juda ham muhim edi. Harbiy tabaqalar va din arboblarning ko'pchiligi sultonni onasi tarafga o'tib ketdilar.

Tarixshunoslarning deyarli barchasi, avvalo Xorazmshohlarning davlatini umumiy ahvoliga e'tibor qaratishgan. Xorazmshohlar imperiyasi yanada kengayib Sirdaryodan Iroq Arabga cho'zilgan ulkan hududga ega bo'ldi va o'sha davr islom olamining eng qudratli davlatiga aylandi. Biroq shunday qudratga ega bo'lgan

sulton Alovuddin Muhammad o'z davlat mehanizmiga tamomila hukmron bo'la olmadi. Mo'g'ullar istilosi arafasida xorazmshohlar davlatida o'ziga xos ierarxiya ikki hokimlik tizimi vujudga kelgan; mutloq hukmdor deb Muhammad hisoblanardi. Ikkinchi tarafdin u o'z onasi Turkan xotunning itoatkori edi.

Tarixshunoslikda tadqiqotchilarning bu boradagi qarashlari deyarli bir xil ko'rinishga egadir. Turkan xotun esa davlatning ichki va tashqi ishlarida ikkinchi hukmdor, ayrim masalalarda hatto sultonga muxolif ham edi. Xorazmshohning ko'pincha buyruq va farmonlari ko'pincha qudratli Turkan xotun tomonidan bekor qilinardi va hech qanday kuchga ega bo'lmay qolardi.

Shahobiddin an-Nasafiy shunday yozgan; "Xorazmshoh onasiga qarshi chiqolmas edi. Kichik ishlarda ham yoki jiddiylarida ham, ahamiyatsizlarida . Bu ikki sababga ko'ra edi. Birinchisi - farzandning burchi bo'lsa, ikkinchi va eng asosiysi-mamlakatning barcha amirlari onasining urug'idan ekanligi edi".

Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bosqini tarixining ilmiy o'rganilishi. Mazkur muammoni yoritishda olim V. V. Bartol'dning «Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida» tarixiy asari muhim ahamiyatga egadir. Muallif maxsus tadqiqot uchun mo'g'ullar bosqini davri, ya'ni O'rta Osiyo tarixining muhim davrini olgan. Asarning kirish qismida muallif kitobining nomi mazmuniga to'liq kelmasligini yozadi. O'rta Osiyoning shundan avvalgi asrlar tarixiga esa o'zining maqsadi uchun zarur bo'lgani qadar murojaat qilmoqchi edi. Biroq, mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishuv muallifga o'zigacha bo'lgan tadqiqotchilarning manbalar bo'yicha xulosalar qilmaganliklarini ko'rsatdi. Ularsiz esa mo'g'ullar kelganda O'rta Osiyo qay ahvolda ekanligini aniqlash mushkul edi. Muallifning fikricha, bu kitob ilk bor O'rta Osiyo tarixini manbalar asosida, ijtimoiy va maishiy sharoitlarga e'tibor berilgan holda yoritadi.

Asar «Kirish», «To'rtta bob va ilovadan iborat. «Kirish» bu tarixshunoslik, u arab tarixchi va jug'rofiklaridan tortib, to temuriylarning tarixchilarigacha bo'lgan tarixshunoslarning O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan manbalarga bergan bahosi va tanqidiy sharhiga bag'ishlangan. Monografiyaning birinchi qismida V. Bartol'd XII-XV asr tarixiy manbalari, tarjimalari va ko'chirmalarini keltiradi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

1. Gardiziy (XI asr). «Zaynul-axbor». Matnda qo'lyozmadan alohida ko'chirmalar keltirilgan. Amirning lashkarini ko'rikdan o'tkazishi, fuqaro boshqaruvi haqidagi, somoniylar va ularning hukmdorligi, Ahmad b. Saxl haqidagi, Abu Ali Chag'oniyning harakatlari; Surxon vohasidagi shaharlar, simjuriylar haqidagi; arab amirlarining Turkistonni olishi, Mahmud G'aznaviy va Qoraxoniylar to'qnashuvi, Mahmudning Xorazmdagi

- harbiy harakatlari haqidagi. Mahmudning Qashqar xoni Qodirxon bilan uchrashuvi tasviri boshqa ko‘chirmalar shular chizmasidandir.
2. «Mujmal at-tavorix val-qisas». XII asrda yozilgan bu asarning muallifi noma'lum. Bartol'd undan Efasning o'g'li Turkning vatani Issiqko'l atrofidagi joy ekani xususidagi rivoyat va SHarq hukmdorlari unvonlarining ro'yxatini keltiradi.
 3. Al-g'arnotiy (XII asr). «Kitob tuhfat ul-albob va nuhbat ul-a'job». Balx yaqinidagi Xalifa Aliping mozori deyiladigan qabrning ochilishi haqida hikoya qilinadi.
 4. Insho (XII asr). Bu Rossiya imperiyasi ichki ishlar nozirligi huzuridagi Sharq tillari o'quv bo'limi fondidan olingan hujjatlardir.
 5. An-Nasafiy (XII asr). «Kitob al-qand fi tarixi Samarqand». Bu kitob Osiyo muzeyining qo'lyozmalar fondidan qadimgi Samarqand tarixidan manba sifatida juda qadimiy qimmatli qo'lyozma.
 6. As-Somoniyy (XII asr). «Kitob al-ansob». U Osiyo muzeyi fondidan. Bu asarda Zarafshon, Qashqadaryo vodiylari, Samarqand va Buxoro tumanlaridagi qishloq va joylarning, Samarqand va Buxorodagi ko'cha va mahallalarning nomlari haqidagi ma'lumotlar, mintaqaning dindor va boshqa taniqli kishilari ro'yxati berilgan.
 7. Imodiddin Isfaxoniy (XII asr). «Xaridat al-qasr va jaridat al-asr». XII asrning eng muhim tarixshunoslik asarlaridan biri.
 8. Muhammad Muayyad Bag'dodiy (XII-XIII asr). «Kitob at-tavassul ila tarassul». Unda 1182-1184 yillarga tegishli, Xorazmshoh Tekesh hukmdorligi davri hujjatlari jamlangan. Ular orasida Tekeshning 1183 yilda G'iyosiddin g'uriyga yuborgan maktubi ham bor.
 9. Muhammad Najib ibn Baqron (XIII asr). «Jahonnoma». V. Bartol'd bu asardagi Issiqko'l, Movarounnahr tog' boyliklari, O'rta Osiyo cho'llari, qoraxitoylar haqidagi ijtimoiy-etnografik ma'lumotlardan foydalangan.
 10. Avfiy (XIII asr). «Jome-ul hikoyot va lome ar-rivoyot». Bu asardan u Shaqiq Ibrohim Balxiyning O'rta Osiyoda Budda kohini bilan bo'lgan uchrashuvi to'g'risidagi hikoyasini, qoraxoniylar, ayniqsa, Ibrohim ibn Nasr Tamg'ochxon haqidagi ma'lumotlarni, din islohotchisi Moh Afridning harakati va bu harakatning Abu Muslim yordamida bostirilishi haqidagi, Somoniylar va ularning Simjuriylar bilan to'qnashuvi, Gurganjning SHahobiddin Guriy tomonidan qamal qilinishi, uyg'ur va boshqa turkiy urug'lar haqidagi ma'lumotlarni keltirgan.
 11. Butxona. «She'rlar to'plami». Bu erda mutasavvif shoir Sayfiddin Boharziyning Chig'atoy saroyi vaziri Qutbiddin Habash Amid (musulmon) ga nomasi keltiriladi. Noma muallifi oliy tabaqaning dindorlar faoliyatiga aralashayotgani xususida o'z fikrini keskin bayon etadi, norozilik bildiradi.
 12. Juvayniy (XIII asr), «Tarixi jahonkushoi». Xanikov shaxsiy jamg'armasidan. Bu tarixshunoslik asaridan V. Bartol'd CHingizxon avlodi xususidagi ma'lumotlarni olgan. Bular: Chingizxon davlatining boshqaruv tuzilishi, Chingizxon o'g'illariga tegishli hudud chegaralari; mo'g'ullarni Kuchluq bilan kurashi; Xorazmshoh Muhammadning qoraxitoylar bilan

kurashining ayrim lavhalari; Xorazmdagi 1056-1208 yillardagi er qimirlash, Xorazmdagi ayyorona harakatlar xususidagi ma'lumotlardir.

13. Rashiddin (XIII-XIV asr). «Jome-at-tavorix». Unda O'rta Osiyodagi Chig'atoy davlatidagi asosiy voqealar va ularning ishtirokchilari xususida juda ko'p ma'lumotlar bor.

14. Jamol Qarshiy (XIII-XIV asr). «Mulhaqat as-Suroh».

15. Hamdulloh Qazviniy (XIV asr). «Tarixi Guzida». Muallif bu erda Abu Sayyid Moyxoniyning ibn Sino bilan suhbatini ko'rsatib o'tadi, shayx Majiddin Bag'dodiy, Najmiddin Kubro va Sadaddin Hamaviy to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni keltiradi. Mo'g'ullar bosqini O'rta Osiyo xalqlariga cheksiz kulfat va fojialar olib keldi. Movarounnahr shaharlari xarobaga aylandi, hunarmandchilik va savdo inqirozga uchradi, dala-yu vodiylar bo'shab, huvillab qoldi.

Sharqning eng yirik va qadimiy o'chog'i Samarqand mo'g'ullar bosqiniga qadar juda katta shahar edi. Samarqand orqali Chingizxon huzuriga borgan Xitoy rohibi Chan-Chunning so'zlariga qaraganda, mo'g'ullar bosqinidan so'ng shaharda 25 ming oila, oldingi aholining chorak qismi qolgandi, xolos. Demak, ilgari bu erda 100 ming oila, ya'ni 400 mingdan ortiq kishi yashagan. 30 ming hunarmand Mo'g'ulistonga olib ketilib, mo'g'ul shahzodalarga tarqatilgan edi.

Bartol'd «X asrdan to XIII asrgacha (Chan-Chungacha) bo'lgan davrga tegishln Turkiston hayotini mufassal yorituvchi bironta ma'lumotga ega emas edik. Chan-Chunning ma'lumotlari shu jihatdan Xorazmshoxlar davlatini o'rganish uchun qimmatlidir» deb yozadi .

Mo'g'ullarning Xorazmshohlar davlatiga bosqinining mahalliy manbalarda o'rganilishi. Mo'g'ullarning O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq va unga tutash mamlakatlardagi hukmronlik davri manba va tarixshunoslikka juda boy. Bu davrda juda ko'p yirik asarlar yaratildi. Vardan Kirokatsi, Nasaviy, Juvayniy, Ibn Asir, Hamdulloh Qazviniy, Vassofiylar nomi juda mashhur edi. Ularning hammasi yoritilayotgan vaqealarning nafaqat guvohi, balki qatnashchilaridir, shu boisdan ular yaratgan asarlarning o'ziyoq o'sha davrning tarixiy hujjatlari bo'la oladi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari uchun mo'g'ul xoni saroylarida yozilgan tarix bilan O'rta Osiyo, Sharq, Kavkazorti xalqlari vakillari, birinchi navbatda arab, o'rta osiyolik, arman, suriyalik tarixchilar yozgan tarixni qiyoslash, evropalik sayohatchilar va elchilar keltirgan ma'lumotlar bilan tanishib, xulosalar chiqarish imkoni bor.

Chingizxon va uning qudratli davlatiga bag'ishlangan bir qator asarlar (Rashiddin, «Jome-at-tavorix» va b.) paydo bo'lgach, mo'g'ullarning harbiy yurishlariga yovvoyilarning hamma narsani bosib yanchadigan, o'zlariga notanish bo'lgan madaniyatni faqat yo'q etishnigina biladigan tartibsiz harakati sifatidagi

eskicha qarashlar butunlay uloqtirilib tashlandi, deb hisoblash mumkin. Barcha murakkabliklariga qaramasdan, ko'chmanchilarning hayoti yovvoyilarning ibtidoiy turmush tarzidan jiddiy farq qiladi.

Mo'g'ul davlat ko'pchilik tarixchilar tomonidan boshqa ko'chmanchi davlatlar o'rtasida nafaqat o'z maydonining kattaligi va uzoq hukm surganligi bilan ham ajralib turishi ta'kidlanadi. Taniqli rus turkshunosi V. V. Radlov bu fikrni quyidagi tarzda ishonarli qilib tushuntiradi: mo'g'ul davlatiga o'troq xalqlarning ko'plab nufuzli davlatlari birlashgan edi, shuning uchun ham u bir paytlar o'zi yaratgan alohida bo'g'inlarga emas, balki bir necha madaniy davlatlarga bo'linib ketdi. (Xitoy, O'rta Osiyo, Fors va b.)

Chig'atoy yurtiga amalda uning o'limidan so'ng Xorazm, g'arbiy Turkiston va Afg'onistonni o'z hukmronligi ostida mustahkamlagan nevarasi Hulagu tomonidan asos solingan edi. Chig'atoy avlodidan birinchi bo'lib Muborakshoh (664-1266) ochiqchasiga islomni qabul qildi. Biroq 690-1291 yilda hokimiyat tepasiga kelgan Duva va uning avlodlari ashaddiy majusiylardan edi. Ularning er-suvlari esa asosan sharqda, Tyanshanning ikki tomonida joylashgan edi. Oradan 20 yillar o'tgach, ya'ni 1309 yili Movarounnahrda birinchi bo'lib Kyobekxon (Ko'pekxon) qaytdi va Nahshab (Qarshi) da o'zi uchun saroy barpo ettirdi.

XIII asr oxiri XIV asr boshlarida chingiziylar saroyida yashagan yirik tarixchi olim va siyosiy arbob Rashididdinning hayoti va ijodi mo'g'ullarning Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi hukmronligi davri bilan bog'liqdir. Fazlulloh Abul-Hayr Rashididdin Hamadoniy 1240-1247 yillar orasida Hamadonda unchalik mashhur bo'lmagan tabib olim oilasida dunyoga kelgan. U Abakaxon hukmdorligi (1265-1282) davrida davlat xizmatiga kiradi va G'ozonxon (1295-1296) hukmdorligi davrida saroy tabibi vazifasini egallaydi.

Mo'g'ul istilochilari davri manbalarga qanchalik boy bo'lmasin «Jome' at-tavorix» va «Yozishmalar» ular orasida o'ziga xos alohida markaziy o'rin egallaydi. Rashididdinda tabiblik, botanik, tarixchi, ilohiyotchi, shoir, davlat arbobi va siyosatchining xislatlari mujassamlashgan edi. G'ozonxonning topshirig'ini bajarib, u tarixchi sifatida «Yilnomalar majmuasi»ni yaratdi. «Yozishmalar»da esa Rashididdin qiyofasida buyuk vazirni ko'ramiz, bu yarim shaxsiy, yarim rasmiy yozishmalar o'zi-o'ziga guvohlik berib turibdiki, bu maktublardan o'sha davr rasmiy tarafdan topilmaydigan ma'lumotlarni topamiz. Shu bilan birga bu ikki asar bir-biri bilan tutash, ko'p tomonlama bir-birini to'ldiradi.

Rashididdin ma'rifatli kishi bo'lib, ko'p tillarni o'rgangan, adabiyot va she'riyat nafosatini tushunar, tarixiy asarlarni yaxshi bilardi, tibbiyot, handasa va falakiyot ilmlaridan yaxshi xabardor edi. U ayniqsa ilohiyot ilmi bilimdoni sifatida mashhur edi, Fazlulloh 1298 yili vazir etib tayinlanadi. U Xulagiy davlatining boshqa vazirlaridan farqli o'laroq, kuchli markaziy hokimiyatning zaruriyatini chuqur his qilgan hukmdor sifatida aniq siyosiy yo'nalishda ish olib bordi,

Rashididdin 19 yil hokimiyat tepasida bo'lib, o'z sinfining tub an'alariga sodiq qoldi. U feodal jamiyatning markazlashgan davlat hokimiyati uchun izchil kurashdi. Ammo, afsuski, umrini fojiali tugatdi. «Markazlashtirish siyosati» jamiyatning feodal ravnaqi yo'nalishida eski vaqtlardagidek tayanch topa olmadi.

Hukmdor madadidan mahrum bo'lgan Rashididdin 1317 yili iste'fo berdi, bir yildan so'ng esa dushmanlari uyushtirgan fitna qurboni bo'ldi. U sulton Uljaytuni zaharlashda ayblanib, o'g'li, sulton soqiysi Ibrohim bilan 1318 yilning 18 iyulida qiynab o'ldirishga, mol-mulki musodara qilinishga hukm etiladi. Tabrizda ular qurgan, asosan hunarmandlar, muqovachilar, xattotlik va yozuv qurollari yasovchi ustalar yashaydigan Rashidiy mahallasi buzib tashlanadi. Ammo tasodifgina uni qatl etilishdan saqlab qoldi, Rashididdin 10 yil o'tgach oqlandi, oilasiga mol-mulkining bir qismini qaytarishdi. O'g'li G'iyosiddin vazir bo'ldi va otasining siyosiy yo'lini davom ettirishga urinib ko'rdi. Rashididdin esa Xulagu naslidan bo'lgan Qozonxonning bo'yrug'i va taqdir taqozosi bilan tarixchiga aylandi. Keyinchalik «shunday asarlar yaratdiki, bu asarlar uning nomini asrlar osha saqlab qoldi.

«Jome' at-tavorix» bugungi kunda haqli ravishda ko'p mamlakatlarda uzoq hukmronlik qilgan ko'chmanchi mo'g'ullarning maishiy hayoti va ijtimoiy-siyosiy tarixi bo'yicha eng kuchli manbalardan biri hisoblanadi. Forscha manbalar ichida bunga teng asar yo'q. «Jome'-at-tavorix» da boy ma'lumotlar asosida mo'g'ullarning ko'chmanchi turmushi, marosimlari, urf-odati va fe'li, ma'naviyati, qonunlari haqida yorqin hikoya qilinadi. Rashididdinning bu shoh asarida o'troq xalqlar hayoti, xo'jalik iqtisodiy turmushi, ko'chmanchi va o'troq turmush tarzlari o'rtasidagi ziddiyatlar ham o'z ifodasini topgan. «Jome'-at-tavorix»da ko'chmanchi feodallar hukmronligi ostida qolgan, «asosan o'troq aholili ko'p mamlakatlarning iqtisodiy, xo'jalik va siyosiy tarixiga oid ancha mufassal ma'lumotlar keltiriladi

Tarixshunoslik jihatdan Rashididdin asarini chuqur o'rgangan kishi rus olimi I. N. Berezindir. Bu sharqshunos butun umrini Rashididdin merosini o'rganishga bag'ishladi. I. N. Berezin fors tilidagi nashrlarning asosiy noshiridir.

U «Jome'-at-tavorix»ning birinchi jildi (CHingizxon hukmdorligi davri tarixi), shuningdek, «turkiy va mo'g'ul ko'chmanchi qabilalari» tarixini o'z ichiga olgan qismlarining tarjimoni-dir.

Biroq, I. N. Berezin hayotligi davrida asar qo'lyozmasining eng yaxshi, Toshkent va Istanbul nusxalari ma'lum emas edi va shu bois, ismlar, turkiy-mo'g'ul iboralari, jug'rofiy, tarixiy toponimik iboralar aniqlashtirishni talab qilardi. Shu bilan birga I, Berezining forscha matni va ruschaga tarjimasini hozirda ham bibliografik jihatdan nodir hisoblanadi. Buning ustiga uning nashri to'liq emas edi. Shu bois 1936 yildayoq SSJI Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik ilmgohi «Jome'-at-tavorix» forscha matni va ruscha tarjimasining qayta ko'rib chiqilgan nashrini bosmaga tayyorlay boshladi. 1-139-betlarni prof. A. Romaskevich, 140-231- betlarni filologiya fanlari nomzodi L. Xechaturov va nihoyat, 232- betdan asarning oxirigacha bo'lgan qismini etuk sharqshunos, professor A. Alizoda tayyorladi. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, tanqidiy matn birinchi jildining I va II qismlari hamda ruscha tarjima matni 1941 yilgachayoq professor A. A. Romaskevich tomonidan oldindan tahrir qilingan edi.

Rashididdin «Jome'-at-tavorix»i mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga oid juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu sohada XIII-XIV asrning bironta ham tarixchilik asari u bilan tenglasholmaydi.

Rashididdinning bu asari, V. Bartol'dning iborasicha, o'rta asr fors tarixshunosligining «so'nggi so'zi» mana 150 yildirki, tadqiqotchilarni o'ziga tortib keladi, uning to'g'risida ko'plab asarlar bitiladi. Bu asarni o'rganish va nashr etish bilan bugun ham butun jahon shug'ullanayapti.

«Yilnomalar majmuasi» bilan bir qatorda Rashididdinning «Yozishmalar»i ham Yaqin va O'rta Sharq va O'rta Osiyoning XIII-XIV asr boshi tarixini o'rganishda katta manbadir. Bu manba tarixshunosligi unchalik kuchli emas. Gap shundaki, «Yozishmalar» muallif o'lgach, 1327-1336 yillar orasida uning o'g'li G'iyosiddin Muhammad Rashidiyning urinishlari oqibatida kitobga aylandi. Vazirning topshirig'iga ko'ra, Rashididdinning sobiq shogirdi Muhammad Abarko'xiy bu to'plamni tuzishga kirishdi. Rashididdin maktublari Sharqqa keng tarqaldi. E. Braunning shaxsiy kolleksiyasidan shu narsa anglashiladiki, bu xatlar XIV-XV asr chegaralarida ham, keyingi asrlarda ham qayta ko'chirib olingan. Sovet tarixchisi I. Petrushevskiyning guvohlik berishicha, «Yozishmalar» «Yilnomalar majmuasi» ga o'xshab ketadi va ularda o'sha davr rasmiy hujjatlari uchun xos bo'lgan iboralar bir xil shaklda uchraydi.

«Yozishmalar» tarixi uchun yana shuni ta'kidlash zarurki, XV asr oxirida Temuriylar saroyida ma'lum edi va shu bois, uning bir necha xatlarini Sayfuddinxo'ja ibn Nizom Oqiliy o'zining tarixiy asari «Asar al-vuzaro» barcha davrlarning eng mashhur vazirlariga bag'ishlangan kitobiga kiritdi. Bu asar 1473 yili Sulton Husayn Boyqaroning vaziri uchun yozilgan edi.

Evropada «Yozishmalar» kitobi XIX asr boshlarida ma'lum bo'ldi. Fransuz diplomati va sharqshunosi J. L. Russo (1780- 1831) oldin Bag'dod, so'ng Xalab va Tripolida bosh konsul bo'lib ishlagan vaqtida Xalabdan Sharq qo'lyozmalarini olib ketdi va 1817 yili Parijda ularning katalogini e'lon qildi. Ikki yildan so'ng, ya'ni 1819 yilda Rossiya imperiyasi fanlar akademiyasi bu kolleksiyani sotib oldi va yangi tashkil etilgan Osiyo muzeyiga sovg'a qildi. «Russoning birinchi kolleksiyasi» ichida besh yuztacha arab, fors va turkiy qo'lyozmalar mavjud edi. Ular orasida Rashididdinning «Yozishmalar» asari ham bor edi.

1920 yilda E. Braun mo'g'ullar bosqini davridagi fors adabiyotn tarixi bo'yicha kitob nashr qildi. Bu kitobda Rashididdinning barcha 53 maktubi mufassal bayon qilingan edi. Braun keyinchalik qo'lyozmaning o'zidan emas, balki o'sha davrda Kembrijda yashovchi hind sharqshunosi Muhammad Shafiy qo'lyozmadan tanlab tayyorlagan parchalardan foydalandi. O'sha yillari M. SHafiy Rashididdinning «Yozishmalari tarjimasini tayyorlagan bo'lsa-da, biroq u 1955 yilda ham nashr etilmadi.

Rashididdinning «Yozishmalar»i tarixini o'rganishning keyingi bosqichi 20-yillarning o'rtalarida Eron filologi Vohid Dastgiriy tomonidan uning bir necha xatlarining «Armug'on» jaridasida bosilishi bo'ldi. Bu jaridada Eronda saqlanayotgan qo'lyozma asosida Rashididdinning bitta katta xati e'lon qnlindn. 30-yillarning boshlarida esa Eron sharqshunosi o'zining keng ko'lamlı «Tarixi mufassali Eron» («Eronning mufassal tarixi») asarini e'lon qildi, Vohid Dastgariy bu asardan foydalanibgina qolmay, balki uning manba sifatidagi tarixiy ahamiyatini ko'rsatdi.

Asrimizning 60-yillari «Yozishmalar» tarixshunosligi ravnaqi yillari bo'ldi. 1956 yili A. Alizodaning kitobi, I. Petrushevskiyning XIII-XIV acrdagi Eron qishloq xo'jaligi haqidagi maqolasi, A. Falina va R. Kiknadze asarlari e'lon qilindi. «Jome'-at-tavorix» «Yilnomalar majmuasi» ning mashhur noshiri professor Karl Yan 1963 yilda, Amerika sharqshunosi X. Shurman 1953 yilda e'lon qilgan asarlarida «Yozishmalar» ning mo'g'ullar davri soliqchilik iboralari, o'rta asrdagi Eron va O'rta Osiyo dehqonlari to'g'risidagi ma'lumotlaridan keng foydalaniladi.

Xullas, hozir Rashididdin «Yozishmalar» ining 13 nusxasi ma`lum. Ulardan sanalgani va ro`yxatga olingani sakkiztadir.

«Yozishmalar» ko`p manbalarda yo`q ma`lumotlarni beradi va o`sha davr tarixiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning yo`l-yo`lakay aytib o`tib ketiladigan tomonlari, hodisalari mohiyatini ochib tashlaydi.

Mo`g`ullar bosqini O`rta Osiyo xalqlariga cheksiz kulfat va fojealar olib keldi. Movarounnahr shaharlari xarobaga aylandi, hunarmandchilik va savdo inqirozga uchradi, dala-yu vodiylar bo`shab, huvillab qoldi. O`zbekiston tarixining eng fojiali sahifalaridan mo`g`ullar bosqini va ularning 150-yillik hukmronlik tarixi o`z davri va keyingi asr tarixchilari asarlarida keng yoritilgan.

Mo`g`ullar bosqini va hukmronligi to`g`risidagi muhim manbalardan yana Mirzo Ulug`bekning "To`rt ulus tarixi" asari va Abulg`ozixonning "SHajarayi turk" asarlarini ko`rsatib o`tish joizdir. Umuman olganda, mo`g`ullar bosqini va ular hukmronligi tarixi tarixshunosligi keng qamrovli. Lekin hali bu borada o`rganilishi lozim bo`lgan qator muammolar ham mavjud.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo`lga kiritgach, tarixiy manbalarni o`rganishimiz uchun keng yo`l ochildi. Jumladan, biz o`rganayotgan davr haqida ma`lumot beruvchi Mirzo Ulug`bekning "Tarix-i arba` ulus" (To`rt ulus tarixi) asari 1994 yil olimlar Bo`riboy Ahmedov, Naim Norqulov, Mahmud Hasaniylar tarjimasida Toshkentda, "Cho`lpon" nashriyotida chop etildi. Ushbu asar 1425 yilda Ulug`bek rahbarligida yozib tugallangan. Shu o`rinda asar haqida rus olimi V.Bartold aytgan ayrim fikrlarni aytib o`tish maqsadga muvofiqdir. Avvalombor, shuni aytish kerakki, olim o`zining bir qator ilmiy risolalari (Turkiston mo`g`ullar bosqini davrida, Ulug`bek va uning davri va boshqalar)da Ulug`bekning mazkur asaridan manba sifatida foydalangan. Lekin nima sababdandir uni muhim tarixiy manbalar qatoriga qo`shmaydi, to`g`rirog`i, asarning qimmatini bir qadar pasaytirmoqchi bo`ladi. CHunonchi, u bunday deb yozadi:"Shohruhning o`g`li va taxt vorisi Ulug`bek (1449 y. o`ldirilgan) "To`rt ulus tarixi"ni bitgan. Asar o`z nomiga ko`ra mo`g`ullar imperiyasining to`liq tarixini o`z ichiga oladi.

"To`rt ulus tarixi" asarining uchinchi bobida yurtimiz tarixiga oid muhim ma`lumotlar uchraydi. Bularga Xorazmshoh Alouddin Muhammadning mo`g`ullar istilosi arafasida Samarqandni mustahkamlash borasida olib borgan ishlari, Balx shahrining mo`g`ullar tarafidan qamal qilinishi va mo`g`ul armiyasi tarkibida Chingizxonning boshqa mamlakatlarni bosib olishda faol ishtirok etgan turk qo`shinlari hamda ularning sardorlari haqidagi ma`lumotlardir. Xarakterli ikki misol "Tarix-i arba` ulus"da keltirilgan ma`lumotlarga ko`ra, mo`g`ullar xuruji

arafasida Xorazmshohning farmoni bilan 300 ming odam Samarqand devorlari, qal'asi va boshqa mudofaa istehkomlarini mustahkamlash ishiga safarbar qilingan, o'shanda haqiqatdan ham shaharni mustahkamlash, uni qamal janglariga hozirlash borasida katta ishlar olib borilgan ekan. "Tarix-i arba' ulus"da keltirilgan bu ma'lumot 1960 yilda Afrosiyobda olib borilgan arxeologik kuzatish va qazish ishlarining natijalari bilan ham ta'kidlandi. Ikkinchi misol. Ma'lumki, 1221 yilning bahorida mo'g'ullar Xurosonning qadimgi iqtisodiy-siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo'lmish Balx shahrini ishg'ol qilib, uni vayronaga aylantirdilar. Ibn al-Asirning (1160-1232) guvohlik berishicha, shahar o'z ihtiyori bilan dushmanga taslim bo'lgan. Shuning uchun ham Chingizxon Balx xalqiga mehru-shafkat ko'rsatgan hamda shahar va uning xalqini omon qoldirgan. Yana boshqa bir katta tarixchi Alouddin Juvayniy (1226-1273)ning so'zlariga qaraganda, Chingizxon avval shahar va uning xalqiga omonlik va'da qilgan, lekin so'zida turmay, shaharni vayron qilgan. Mirzo Ulug'bek bu haqda tamoman boshqa ma'lumot keltiradi. Uning so'zlariga qaraganda, Chingizxon balxliklar so'nggi xorazmshoh Jaloliddin (1220-1231) ning odamlariga boshpana berganliklari uchun shahar va uning xalqini jazolagan. Uning amri bilan Balxob daryosiga qurilgan Bandi Amir to'g'onini buzib tashlaganlar, o'shanda Balx va uning tumanlari olti oy mobaynida suv ostida qolib ketgan.

Asarning eng muhim qismi - uning ettinchi bobidir. Unda Chig'atoy ulusining Chingizxon zamonidan to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishigacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi. Ma'lumki, Chig'atoy ulusining qariyb 250 yillik tarixi o'rganilmagan. Bu haqda qo'lyozma manbalarda etarli ma'lumot bo'lmasligi bunga asosiy sababdir.

Bu bobda ham e'tiborga molik ma'lumotlar ko'p. Bular orasida Chig'atoy ulusining o'rami, 1238 yili Buxoroda bo'lib o'tgan Mahmud Torobiy boshliq xalq qo'zg'oloni, Chig'atoy ulusi bilan Elxoniyalar davlati o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, Chig'atoy ulusining ijtimoiy-siyosiy hayotida barlos amirlarining, xususan Qorachor nuyon, Ijil nuyon, Alangiz nuyonlarning tutgan o'rni va roli, Duvaxon va Kepakxon davrida yurtni obod qilish yo'lida olib borilgan katta ishlar, Chig'atoy ulusining XIV asrning 40-50 yillaridagi siyosiy ahvoli hamda amir Qozog'onning xuruji shular jumlasidandir.

Chig'atoy qo'shinining tuzilishi, ayniqsa harbiy bo'linmalar nomi haqidagi ma'lumotlar o'ta muhimdir. Masalan, qorovul qism o'sha vaqtlarda bulung'or, irovul (ilg'or qism orqasidan boruvchi bo'linma) - burung'or, maymana (o'ng qanot) - avang'or (hozirgi "avangard" shundan olingan bo'lishi kerak), soqa (ar'ergard) - o'qchung'or deb atalgan va hokazo.

"Tarix-i arba' ulus"da bu va bunga o'xshash muhim ma'lumotlar ko'p. Bu kabi asarlarni o'rganish O'rta Osiyoning mo'g'ullar istilosi davridagi tarixini bilishimizga yaqindan yordam beradi.

Mustaqillik yillarida Sulton Jaloliddin faoliyatini o'rganilishi. Mustaqillik yillarida Sulton Jaloliddin faoliyatini o'rganish bo'yicha ulkan ishlar izlanishlar olib borildi. Xususan Jaloliddin Manguberding 800 yilligiga bag'ishlab ko'plab maqolalar, tezislari yozildi. Xorazm zaminida o'zbek xalqining dovyurak o'g'loni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan katta tantanalar bo'lib o'tdi. Avvalambor O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida quyidagi fikrlarni bildirildi: "Avvalo barchangizni qadimiy va muqaddas Xorazm zaminida turib, Vatan ozodligi uchun jon fido qilgan buyuk ajdodimiz Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi bilan muborakbod etaman. Vatanimizning ko'p ming yillik tarixi el-yurtimizni bosqinchi, yovuz kuchlardan himoya qilish, millatimizning erkinligi va onomusini asrash yo'lidagi buyuk voqealarni, bu kurashlarda jasorat va mardlik ko'rsatgan buyuk shaxslarning nomlarini asrlar davomida o'zining yorqin xotirasida saqlab kelmoqda. Jaloliddin Manguberdi ona yurt himoyachisi, jasur sarkarda va davlat arbobi, xalqimizning Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Amir Temur singari tarixda o'chmas iz qoldirgan milliy qahramonidir. Biz bugun yurtimizda Jaloliddin Manguberdi xotirasini hurmatlab, yodgorlik majmuini bunyod etdik. Ko'rib turganingizdek, bu ulug'vor haykal timsolida mard va jasur sarkarda, zo'r iroda, beqiyos matonat sohibi bo'lgan buyuk insonning so'nmas shijoati mujassam topgan. Bu baxodir zotning muborak nomi, uning qahramonligi kelajak avlodlarga, birinchi galda siz bilan bizga, tarixiy xotira oldida boshimizni mag'rur tutib yashamog'imiz uchun to'la huquq beradi".

Jaloliddin Manguberdi bor-yo'g'i o'ttiz ikki yillik qisqa hayoti davomida elu yurt uchun, so'nmas xizmat qilishga ulgurgan ulug' ajdodimizdir. Tarixda shunday shaxslar bo'ladiki, kuch imkoniyat etishmasligiga, maslakdosh va safdoshlarning kamligiga, boshqa to'siqlar va qiyinchilikarga qaramay, zulm va istibdodga qarshi ayovsiz kurashdi. Yurt ozodligi yo'lida jonidan kechadigan bunday insonlar fidoyi jasur mard deymiz. Buyuk bobokolonimiz Jaloliddin Manguberdi ana shunday inson sifatida kishilik tarixiga kirgan.¹

H.Nurmuhammedov, N.Habibullaevlarning "Jaloliddin Manguberdi"nomli kitobi 1999 yilda nashr etildi.

¹ I.A.Karimov Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutq. Vatanparvar-1999 6 noyabr.

O'rtta asr muarrixii Shahobiddin an-Nasafiy o'zining "Siyrat as-sulton Jaloliddin Manguberdi" ("Sulton Jaloliddin Manguberding holati") asarida shunday ta'rif bergan: - "U qorachadan kelgan ... nutqu iborasi turkiy bo'lsa-da, fors tilda ham so'zlardi. Shijoatiga kelsak, bu haqda aytish uchun men bayon etgan janglari etarlidir. U sherlar ichra sher, suvoriylararo eng dovyurak (suvoriy) edi. Va yumshoq tabiat bo'lib, g'azablanmas va so'kinmasdi, jiddiy qiyofada yurar, kulmas, faqat tabassum qilar va ko'p gapirmas edi. U adolatni sevardi". Bundan tashqari ushbu asarda Jaloliddinning o'limi to'g'risida quyidagicha ma'lumotlar keltirilgan.

Aynar qishlog'iga kelayotganda Jaloliddinni talonchi kurdlar ushlab olishadi. Uni qatl etmoqchi bo'lganlarida, Jaloliddin o'zini Xorazmshoh ekanini aytib, basharti bunga ishonmasangizlar meni Mayafariein hokimi al-Malik al-Muzaffar Shahobiddin G'oziy huzuriga olib boringlar, deb ularni ko'ndiradi. Kurdlar boshlig'i rozi bo'lib, Xorazmshohni chodirga olib kiradi, oldiga soqchi qo'yadi-da o'zi ulov hozirlash uchun chiqib ketadi. SHu vaqtgacha chodirga boshqa bir kurd kirib:"Ana u pinakka ketgan kishi kim?" deb so'raydi. Soqchidan uning Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi ekanini bilib olgach, uni qora hayol qamraydi. U akasini Xilotda Xorazmshoh lashkarlari o'ldirgani uchun "qasos olish" payti keldi, deb uxlab yotgan Jaloliddin Manguberdiga nayza sanchib, og'ir yarador qiladi.

Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan necha-necha jasoratlar ko'rsatgan, o'z ona Vatanini mo'g'ul bosqinchilari istibdodidan xalos etish uchun umrbod kurash olib borgan jasur vatandoshimiz Xorazmshoh Jaloliddin Manguberding hayoti 1231 yilning taxminan 17 yoki 20 avgustda, 32 yoshida shu tarzda fojiali tugadi. Jaloliddin Manguberding muborak jasadini Mayafariein hokimi al-Malik al-Muzaffar Shahobiddin G'oziy Mayafariein tuprog'ida dafn ettirdi. Qabrini g'animlar taxqirlashidan saqlab qolish maqsadida er barobar tekislab qo'yildi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Qaysi asarda Xorazmshohlar davlatining shakllanishi, tashkil topishi, xorazmshohlar taxti uchun kurash, xorazmshohlar davlatining yuksalishi xorazmshohlar davlatining harbiy tuzilishi to'g'risida keng ko'lamli ma'lumotlar beriladi?
2. Kimning asarida 1182-1184 yillarga tegishli Xorazmshoh Tekesh hukmdorligi davri hujjatlari jamlangan?
3. Takashning munshiysi Muhammad Bog'dodiy "At-tasviriy ila-t-t-tarssul" (muhim nomlar bitish yo'l yo'riqlar) asarida aholining turli tabaqalari bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatishda nimalarga e'tibor berishni maslahat beradi?

4. Tarixshunoslarning asarlarida dastlab mo'g'ullar bilan xorazmshohlar davlati o'rtasidagi qanday ma'lumotlarga e'tibor qaratilgan?
5. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bosqini tarixining ilmiy o'rganilishi kimning nomi bilan bog'liq?
6. Mo'g'ul istilochilari davri manbalari ichida qaysi asarlar o'ziga xos alohida markaziy o'rin egallaydi?
7. Mustaqillik yillarida mazkur muammo bo'yicha qaysi asarlar nashr etilgan?

8-mavzu: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI

Reja:

1. Amir Temur va temuriylar davrining mahalliy manbalarda yoritilishi.
2. Amir Temur va temuriylar davrining chet el manbalarida o'rganilishi.
3. Amir Temur va temuriylar zamonasi haqida O'rta Osiyo tarixshunosligi.
4. Temuriylar davri madaniy hayoti tarixshunosligi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: *Amir Temur va temuriylar davrining mahalliy manbalarda yoritilishi, Amir Temur va temuriylar davrining chet el manbalarida o'rganilishi, Amir Temur va temuriylar zamonasi haqida O'rta Osiyo tarixshunosligi hamda temuriylar davri madaniy hayoti tarixshunosligi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.*

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Amir Temur shaxsi va faoliyatiga doir manbalar tavsifi, Amir Temur davrini o'rganishning bosqichlari, "Ro'znomai g'azavoti Hindiston", L.A. Zimin, A.A. Semyonov, "Zafarnoma", F. Tauer, Ibrohim Sulton, "Ikki baxtli yulduzning balqish va ikki dengizning birlashishi", "Ulug'bekning falakiyot maktabi", Ibroxim Mo'minov, «Ulug' Tamerlan hayoti va faoliyati», «A.Temurning yuksalishi va hokimligi», Mirzo Ulug'bek, «Aflotuni zamon», «Tarixchi jahongir».*

Amir.Temur va temuriylar davrining mahalliy manbalarda yoritilishi. Amir Temur shaxsi va davlati tarixi ko'p o'rganilgan mavzulardan biridir. Lekin A.Temur shaxsi va faoliyatiga hamisha bir xil baho berilmagan. A.Temur tarixi tarixshunosligi u hokimiyat tepasida turgan vaqtdanoq boshlangan. Ana shu katta hajmdagi tarixshunoslikni uch davrga bo'lib o'rganmoq maqsadga muvofiqdir:

- 1) A. Temur davridan to XX asrning 30-yillarigacha;
- 2) XX asrning 30-yillari oxiridan - 80 yillar 2 yarmigacha;
- 3) Mustaqillik davri.

Birinchi davrda A.Temur davlati tarixi butun dunyoda keng ko'lamli o'rganildi. Ikkinchi davrda A.Temur davri tarixini o'rganish tarixiy voqealarning barchasi, jumladan A.Temur tarixi kommunistik mafkura nuqtai nazaridan, sinfiylik tamoyillari asosida o'rganila boshladi. Natijada Amir Temur qonxo'r, A.Temur kallakesar degan qarashlar hukmron bo'lib qoldi. A.Temur shaxsi va faoliyati, davlati tarixini o'rganishda mustaqillik yangi sahifa ochdi. Amir Temurning 660 yillik yubileyi O'zbekistonda va YUNESKO tomonidan Fransiyaning poytaxti Parijda nishonlandi, ko'plab ilmiy asarlar yaratildi. A.Temur davriga oid manbalar nashr qilindi va qayta nashr qilindi. Nashr qilingan asarlarda A.Temur shaxsi va

faoliyati, davlatining haqqoniy tarixi yaratildi, uning o'zbek xalqi tarixida va shuningdek jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni hamda roli ko'rsatib berildi. Amir Temurning diplomatik munosabatlari tadqiq qilindi, harbiy yurishlari tahlil qilindi.

Amir Temur davriga oid tarixiy asarlarning aksariyati uning shaxsi va faoliyatiga bag'ishlangan. A.Temur davriga oid ilk manbalardan biri fiqshunoslik G'iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning "Ro'znomai g'azavoti Hindiston" asari bo'lib, unda A.Temurning Hindistonga yurishining kundaligi berilgan. Bu asar shaxsan A.Temurning topshirig'i bilan tomonidan 1399-1401 yillarda yozilgan. Asarning ayrim joylari baland parvoz, A.Temur shaxsini madx qilishga bag'ishlangan bo'lishiga qaramay, unga tanqidiy ko'z bilan qaralsa, A.Temurning harbiy yutuqlarining ildizini, uning urushlarda va shaharlarni qamal qilishda qo'llagan strategiya va taktikaga oid usullarni, A.Temur zamonasida amal qilgan amirlar va bahodirlar tizimining mohiyati va strukturasi tushunishga ta'luqli qiziqarli ma'lumotlar, hind xalqining A.Temur qo'shinlariga ko'rsatgan qarshiliklari to'g'risida ma'lumotlar bor. Asarda A.Temurning safdoshlari va A.Temur davridagi Movaraunnahr shaharlari, A.Temurning Mo'g'iliston, Xorazm, Mozandaron, Ozarbayjonga qilgan yurishlari, Mahmud G'aznaviyning erlarini tobe etilishi va qaram bo'lgan hududlarda savdo olib borish uchun xavf tugatilganligi haqida muhim ma'lumatlar bor. 1902 yilda Toshkentdagi Turkiston xalq kutubxonasining qo'lyozmalari bilan tanishgan V.V. Bartold asarning qo'lyozmasini o'rganishga kirishadi. Qo'lyozmaning forscha matni shogirdi L.A. Zimin tomonidan nashrga tayyorlanadi va V.V. Bartold tahriri va kirish so'zi bilan 1915 yilda chop etildi. 1958 yilda yana bir rus olimi A.A. Semyonov tomonidan fors tilidan rus tiliga o'girilgan 2-nashri chiqdi.

G'iyosiddin Ali Yazdiyning asari A.Temur shaxsini o'ta madx etgani bois, A.Temur yangi asar yozishni Nizomiddin Shomiyga topshirdi. Shomiy saroy solnomachisi sifatida A.Temurning harbiy yurishlarida ishtirok etgan. U o'z asarini "Zafarnoma" yoki "Amir Temur zafarnomasi" deb atadi. Muallif asarni yaratishda A.Temur tarixiga oid qator og'zaki va yozma manbalardan, shu jumladan G'iyosiddin Alining asaridan ham foydalangan. Ushbu asar Amir A.Temur haqida birinchi rasmiy tarix manba bo'lib hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, bu majmua A.Temurnng rasmiy tarixi bo'lsa-da, Nizomiddin Shomiy uni saroydan olisda yozgani uchun bizning fikrimizcha, faktlar va tarixiy jarayonlar bayonida birmuncha xolislik bor. 1937 yilda Shomiyning asari F. Tauer tomonidan chex tilida chop etiladi. Bungacha asar biror tilga to'liq o'girilmagan edi. Faqatgina rus tilidagi asardan parchalar tarjima etilgan edi. Shomiyning asarida voqealar rivoji 816(1404) yilning yozigacha davom etadi. Shomiyning vafoti tufayli asar tugallanmay qoldi.

To'liq va mukammalligi jihatidan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si tarixshunoslikda muhim rol o'ynaydi. Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si ko'p xollarda va asosan Nizomiddin Shomiyning asari negizida yozilgan. "Zafarnoma" matni shoir Lutfiy tomonidan fors, Xotfiy tomonidan tojik tilida she'riy usulda yoziladi.

Sharafiddin Ali Yazdiy Yazddan uncha uzoq bo'lmagan Taft shahrida (Eron) tug'ilgan. 1415-1435 yillari Shohruhning o'g'li, Ulug'bekning akasi Ibrohim Sulton xizmatida bo'lgan. Ibrohim Sulton Sharafiddin Yazdiyga «Zafarnoma» ni yozishda homiylik qilgan. Ibrohim Sulton vafotidan so'ng (838 hijriy-1435 melodiy) «Zafarnoma» muallifi Shohruh nabirasi, hijriy 846, milodiy 1443 yilda Sultoniya, Kazvin, Ray va Kum hokimi bo'lgan Mirzo Muhammad tomonidan saroyga taklif etilgan. Sharafiddin Ali, manbalarga qaraganda, umrining oxirigacha Vatani Taft (Tafti Yazd) dagi xonaqohida yashadi. Bu haqida Abdurazzoq Samarqandiy xabar beradi. Shunday qilib, Sharafiddin Ali (1454 yil) Yazdda vafot etdi va o'sha erda dafn etildi.

«Zafarnoma» O'rta Osiyo xalqlarining nodir madaniy obidasidirki, u faqat O'rta Osiyoning emas, butun Sharq mamlakatlari tarixi manbai, shuning uchun u hozirda ham sharqshunos tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb qilmoqda va o'ziga xosligi, to'plangan materiallarning haqqoniyligi bilan ko'rsatilgan davr tarixiy manbalari ichida alohida o'rin tutadi.

«Zafarnoma» tuzilishiga ko'ra ikki qismga bo'linadi: 1) Muqaddima, u A.Temur shajarasiga bag'ishlangan, unda turk urug'lari va Chingizxonning to'rt ulusi haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. 2) Asosiy qism (A.Temurning o'z tarixi). Muallif ma'lumotidan ko'rinadiki, bu tarixiy asar Sharafiddin Alini saroyiga taklif qilgan Shohruhning o'g'li Ibrohim Sulton tashabbusi bilan yozilgan. Shoh o'zining bobosi haqida maxsus kitob yaratishni istadi va u 822 (1419-1420 yy.) sohibqiron A.Temur haqida ma'lumotlar to'plash haqida farmon berdi. Muqaddimada bu jarayon quyidagicha tasvirlangan. To'plangan ma'lumotlar shohidlarning og'zaki hikoyalari bilan taqqoslangan, so'ng Sharafiddin Ali Yazdiy bu ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, Ibrohim Sultonga ular haqida fikrini aytgan, shundan so'ng u «Zafarnoma» kitobini yozishga kirishgan.

Muallif to'plangan ma'lumotlarni uch guruhga bo'ladi: voqealar shohidlarining hikoyalari, ikkinchi va uchinchi o'quvchilar turi va fors manbalarining bilimdonlari. Barcha sanalar, o'rinlar jug'rofiy koordinatlar va ular orasidagi masofalar Ibrohim Sulton farmoniga ko'ra har tomonlama tekshiruvdan o'tkazilib, so'ng Sharafiddin Ali Yazdiyga beriladi. Bunda muallifga ko'rsatma

berilgandiki, birinchidan, badiiy nafosatli hamda tushunarli tilda bitilgan kitob bo'lsin, ikkinchidan, muallif hujjatga qat'iy amal qilmog'i, dastlabki bitiklardan chekinmasligi, hech narsani bo'yab-bejamasligi shart edi. Shu yo'sinda A.Temurning keng miqyosda rasmiy tarixi dunyoga keldi. Bir necha og'iz so'z «Zafarnoma» yozilish vaqtining tarixiy xronologiyasi haqida. Gap shundaki, asarning boshlanishi (1418-1419) va tugatilishi (1424-1425) haqida Ali Yazdiy hamda zamondoshlari tomonidan berilgan ma'lumotlar bor. Lekin muallif asar ustida ishlashni davom ettirganmi, axir 1454 yilgacha yashaganku? Ha, muallif asar ustida ishlashni davom ettirgan. Bu haqda quyidagi ma'lumot bor: Bugungi kunda Sharq tarixshunoslariga «Zafarnoma» ning 1436-1437 yy. sanasi bilan bitilgan qo'lyozmasi ma'lum. Demak, 840 yilda «Zafarnoma» ning bir necha qo'lyozmasi bo'lgan. XV asr boshlarida asar matnini Muxammad Ali ibn Darveshali Buxoriy o'zbek tiliga o'giradi.

Asarning 1972 yil Toshkentda e'lon qilingan faksimil nashri ana shu qo'lyozmalardan biri hisoblanadi. Asarning muallifini yaxshi bilgan Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, «Zafarnoma» 828 yili (1424-1425) tugallangan, ammo muallif «Zafarnoma» ni to'ldirish uchun 831 (1427-1428 yillar) yildan keyin ham ma'lumot to'plashda davom etgan. Abdurazzoq Samarqandiyning bu fikriga suyangan o'zbek sharqshunosi Asomiddin O'rinboev «Zafarnoma» ning 1972 yilgi nashrini tayyorlash chog'ida, Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan asarning ikkinchi (Shohruh tarixi) va uchinchi (Ibrohim Sulton tarixi) qismlarini yozgan, degan taxmini ilgari suradi va bu haqida kitob so'zboshisida yozadi. Lekin A. O'rinboev aytganiday «Zafarnoma» ning bu ikki qismi topilmagan, Shohruh va uning o'g'li Ulug'bekning tarixi bitilgan «Zafarnoma» ning davomini esa Toj Salmoniy yozgan.

Tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan qarasak, rasmiy ohangda yozilishiga qaramay, Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» sida A.Temur faoliyatini va Movarounnahrda markazlashgan buyuk feodal davlati bunyodkorini birmuncha odillik bilan yoritadi.

Sharafiddin Ali Yazdiy asari qo'lyozma hoida keng tarqalib ketgan, chunki asar uning zamondoshlari va keyingi asr tarixchilari uchun ham dastlabki manba bo'lib xizmat qildi. Sharafiddin Ali Yazdiyning tarixiy voqealarni bayon etish uslubi, ohangi ko'p paytgacha o'lkashunoslar, tarixchilar uchun namuna bo'lib xizmat qildi. Masalan, XVI asrning mashhur tarixchilari, Mirxond («Ravzat us-safo»), «Safo-farog'at bog'i», Xondamir («Habib us-siyar») va boshqalar ham Sharafiddin Alining «Zafarnoma» siga suyanib ish ko'rdilar. XV va XVI asrlardayoq «Zafarnoma» ning g'oyasi va mazmuni Lutfiyini (1492 yilda vafot etgan)

o‘zbekcha g‘azallar bitishga ilhomlantirgan bo‘lsa, mashhur shoir Abdurahmon Jomiyning shogirdi va jiyani Xotifiyga (1521 yilda vafot etgan) tojikcha-forscha shejrlar yozishga turtki bergan.

«Zafarnoma» 1723 yilda frantsuz va ingliz tillarida qisqartirilgan holda nashr etilgan. Rus sharqshunosi A. Krimskiy ma‘lumotiga ko‘ra, Italiya sharqshunosi Bradutti «Zafarnoma» ni ital‘yan tiliga tarjima qilgan, shuningdek, asarning A.Temurning Oltin Urdaga qilgan yurishi haqidagi o‘rinlarining ruscha tarjimasi ham bor. Bu parchalar 1936 yil Sharlua tomonidan forsha asl matnda va frantsuzcha tarjima nashr etilgan.

O‘rta Osiyo tarixshunosligining durdonasi - «Zafarnoma» jahon tarixchilarining tadqiqot manbai bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Chunonchi, 1887-1888 yillari hind sharqshunosi Mavlaviy Iloxdom tashabbusiga ko‘ra olti nusxa asosida «Zafarnoma» ning ikki jildligi Kal‘kuttada nashr etildi.

Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy kitoblari mustaqil asarlar bo‘lsa-da, ular bir-birlarini to‘ldiradilar va XIV asr oxiri, XV asr boshlarida O‘rta Osiyo xalqlarinnng tarixini chuqurroq o‘rganish imkonini beradilar. Nizomiddin Shomiy kitobi Evropada 1937 va 1956 yillari nashr etilgan bo‘lsa, Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» si O‘zbekiston tarixchilari va sharqshunoslarining katta mehnatlari tufayli 1972 yili YUNESKONing qarori bilan temuriylar davri san‘ati tarixi masalalariga bag‘ishlangan xalqaro simpoziumga bag‘ishlab nashr etildi.

Aynan yuqorida ko‘rib o‘tilgan uch asar Amir Temur va temuriylar davrini yorituvchi asosiy manbalardir. Bundan keyingi yozilgan asarlar bevosita shu asarlar negizida yozilgan.

Amir Temur va temuriylar davri haqida ma‘lumot beruvchi yana bir asarlardan biri Kamoliddin Aborazzoq bin Jamoliddin Isxoq as-Samarqandiy tomonidan tojik tilida yozilgan “Matla-’ us-Sa’dayin va Majma’ ul-baxrayin (Ikki baxtli yulduzning balqish va ikki dengizning birlashishi)” asaridir. Asar 1304 yildan to 1470 yilgacha bo‘lgan tarixiy davrga bag‘ishlangan bo‘lib, mo‘g‘o‘llar hukmronligining 10 yilligi va amir A.Temur hamda temuriylar davrini o‘z ichiga olgan. Muallif asarni yaratishda o‘zidan oldingi tarixchilar asarlaridan foydalangan. Lekin unda shunday ma‘lumotlar mavjudki, bu ma‘lumotlar hech bir manbada uchramaydi.

Abdurazzoq Samarqandiyning asari fors-tojik tilidan ilk marta 1969 yilda o‘zbekchaga o‘girib nashr qilingan.

O'rta asrlarda O'rta Osiyo olimlarining falakiyot fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalar ulkandir. O'zbek olimi T.N.Qori Niyoziyning falakiyot ilmiga bag'ishlangan asarlarining o'zbek va rus tillarida nashr etilganligi fikrimizga dalildir. T.N.Qori Niyoziyning "Ulug'bekning falakiyot maktabi" kitobi temuriylar davri tarixiga oid g'oyat qimmatli asardir. Unda o'quvchi V.L.Vyatkinning 1914 yili qazish ishlarini boshlagani-yu, mablag' yo'qligi sababli ishning to'htab qolganligini bilib oladi.

XX asrning 60-yillar oxirida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga qiziqish yanada avj oldi. Bunga turtki bo'lgan narsa I.M. Mo'minovning «O'rta Osiyoda Amir Temurning o'rni va roli» risolasining o'zbek va rus tillarida chop etilishi bo'ldi. I. Mo'minov birinchi marta A.Temurni to'liq madx etib, uning ishlarini tadbiq qilar ekan, uning ishlarini to'g'ri deb baholaydi va unga yuksak baho beradi.

Ayni shu vaqtda shuroviy tuzumga binoan, mahalliy millat o'z ajdodlarini unutishi, tarixidan voz kechishi kerak edi.

I.M. Mo'minovning harakatlari natijasida A.Temur shaxsi xalqimizda qiziqish uyg'otdi. Lekin mavjud hukmron tuzum I. Mo'minovga faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat bermadi.

A.Temur shaxsi mustaqillikka erishganimizdan so'nggina to'la oqlandi. I. Mo'minov esa A.Temur va temuriylar tarixini o'rganishda muxim ahamiyatga ega bo'lgan asarlar yaratdi va avlodlarga meros qoldirdi.

1996 yilda, Amir Temur yubileyiga bag'ishlab, asar o'zbek tilida nashr etildi.

Amir Temur va temuriylar davrining chet el manbalarida o'rganilishi. A.Temur va temuriylar tarixini o'rganishda maxalliy tarixchilarning asarlari bilan bir qatorda chet elliklar asarlari ham muxim rol o'ynaydi. Ayniqsa, Amir Temur davlatida voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan mualliflar asarlari muhim ma'lumotlarga boydir.

Ana shunday asarlardan biri A.Temur davlatiga (1403) Ispaniyadan elchi bo'lib kelgan Run Gonsalis Klavixonning «Kundalik» asaridir. Mazkur asar birinchi marta 1582 yilda Sevie shaxrida «Ulug' Tamerlan» nomi bilan, so'ngra 1782 yili Madridda «Ulug' Tamerlan hayoti va faoliyati» nomi bilan nashr qilingan. Bu asar keyinchalik ham to'liq yoki ayrim parchalar holida ingliz va boshqa tillarda bosilgan. 1943 yili Klavixo kundaligining yangi Madriddagi nashrini F. Lopez amalga oshirdi. Nashr asosiga u XV asr qo'lyozmasini oldi, lekin u asar matnini chuqur adabiy-ilmiy tekshiruvdan o'tkazdi va kundalikni

A.Temur davlatidagi Klavixo elchixonasi haqidagi tarixiy ma'lumotlar bilan to'ldirdi. «Kundalik» matnining rus tiliga birinchi tarjimasini akademik I.I. Sreznevskiy tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu matnni sharxlashda ko'zga ko'ringan sharqshunoslar V.V. Gregorev, P.I. Lerx, K.P. Patkanovlar qatnashgan. Tarjima 1881 yilda, Sreznevskiyning vafotidan so'ng nashr qilindi. Eng yangi, aniq va mukammal tarjimani, yangilangan va to'ldirilgan sharhi bilan I.S. Mirkov amalga oshirdi. Tarjima 1990 yilda Moskvada nashr qilindi.

Klavixo o'z «sayoxatnomasi»da A.Temur tarjimai xoliga oid shuningdek, A.Temur davlatidagi xalqlarning turmushi, ma'daniyati, shaharlardagi binolar, savdo joylari, bozorlar va ulardagi mahsulotlar tarkibi, bayramlar, to'ylar, umuman nimaiki ko'rgan bo'lsa hammasini yozgan. SHuningdek, u xalq ichida yurgan mish-mish, afsonalarni ma'lumot sifatida keltirgan.

To'liqligi va qiziqarliligi jihatidan suriyalik ibn Arabshoxning (1392-1450) asari ham muhim ahamiyatga egadir. U o'zining «Ajoyib al-Maqdur fi tarixi Taymur» asarida Amir Temurning to'liq tarixini yaratishga harakat qilgan. Ibn Arabshox o'z ona shahrini Amir Temur tomonidan bosib olinishining guvohi bo'lishi bilan birga, asir sifatida Samarqandga olib kelinadi. Bu esa ibn Arabshoxning A.Temurga nisbatan adovat ko'zi bilan qarashiga olib kelgan. Bu narsa uning asaridan yaqqol ko'rinib turadi. Ibn Arabshox A.Temur davrining so'nggi yillarini guvohi bo'lgan. U o'z asarida A.Temurning qoralashga qanchalik harakat qilmasin, baribir uning shaxsiga yuqori baxo beradi. Ibn Arabshox asarida boshqa hech qaysi manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar mavjud. Jumladan, A.Temurning tug'ilgan yili, joyi uning asarida aniq ko'rsatilib berilgan. Ibn Arabshox asari o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1991-1992 yillarda 2 jildda nashr etildi. A.Temur davrini yoritishda yuqoridagi manbalardan boshqa yana ko'plab asarlar mavjud. Lekin ularning aksariyati yuqoridagi ma'lumotlarni qaytargan yoki izox bildirganlar, xolos.

Amir Temur davrini ilmiy o'rganishda ingliz tarixchisi Eduard Gibbon (1737-1794), Fridrix SHlosser (1776-1861), «Umumiy tarix» asarining muallifi Georg Veber asarlaridan ham ayrim ma'lumotlarni olish mumkin.

1985 yili «Islom madaniyati bo'yicha Kemberdj tadqiqotlari» seriyasidan Beatrisa Mankning «Amir Temurning yuksalishi va hokimligi» kitobi chop etildi. Bu asarda muallif XIV asr o'rtalaridagi Chig'atoy ulusi tarixining qisqacha ocherkini A.Temurning hokimiyatini egallash va uning bu erda olib borgan ichki davlat hamda harbiy siyosatini yoritadi. So'ngra A.Temurning harbiy sarkarda, yirik qo'shin tashkilotchisi sifatida faoliyati, uning yurishlari va qator mamlakatlar xalqlari bo'ysundirilishi xaqida gap boradi.

A.Temur haqidagi eng yangi chet el nashrlaridan islomshunoslikka oid qator asarlar muallifi, sharqshunos Jan Po Runing «Amir Temurlang» nomli mufassal asarini ta'kidlash joiz. Qiziqarli va ma'lumotlarga boy bu asarda muallif A.Temurni haqli ravishda dunyoga nomi ketgan mashhur harbiy sarkardalar - Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar, Chingizxon, Napoleon Bonapart safiga qo'shadi.

Rus tarixchilari M.N. Ivanin, T.N. Granovski, S.M. Solovyov asarlarida ham A.Temur davri tadqiq qilinadi. Rus tarixchilari orasida A.Temur tarixini o'rganish bo'yicha akademik V.V. Bortoldning olib borgan tadqiqotlari muximdir.

V.V. Bartoldning A.Temur haqida ko'plab qimmatli fikrlari va o'rinli kuzatishlari bilan bir qatorda, uning Sohibqiron istilolarining maqsadlari va sabablari haqida mushohadalarida g'arazlik ham bor. Masalan, u «A.Temurning harbiy yurishlari uning shuhratparasligi bilan bog'liq, shox xokimiyatiga bo'lgan yuksak havas, istilochilik yurishlarini boshlashga olib keladi», - deganda juda ham haq emas. Bundan tashqari, Bartoldning asarlarida masalaning siyosiy-iqtisodiy tomoni sust yoritilgan. A.Yu. Yakubovski (1886-1953) ning tadqiqotchilik ishlari ham bevosita Bartold ishlariga o'xshashdir. U ham A.Temurning bir tomonini yomonlab, boshqa tomonlarini maqtash ohangida yozgan. Yakubovskiyaning qat'iy xulosasi quyidagicha edi: «A.Temur - chuqur (ziddiyatlarga) ega bo'lgan arbobdir». O'rta Osiyodagi faoliyatining ijobiy tomonlari ko'p edi. Lekin «baribir u jahon tarixiga shafqatsiz istilochilardan biri sifatida abadiylik kirdi».

Yana bir rus tadqiqotchisi I.P. Petrushevskiyning fikricha, A.Temur Chingizxondan ustun bo'lib, A.Temurning yurishlarining asosida «ma'lum iqtisodiy reja» bor, ya'ni Evropa-Osiyo savdosidagi karvon yo'llari ustidan to'liq nazorat o'rnatishga intilish yotar edi, degan fikri ahamiyatga molik. Lekin uning «A.Temur bosib olgan mamlakatlar evaziga Movaraunnahr iqtisodiyotini rivojlantirmoqchi bo'ldi» degan fikr ham bildirgan.

Akademik N.N. Konradning «A.Temurda Iskandar Zulqarnayn va Kushon podshosi Kanishkaning ruxi mujassam bo'ldi» degan o'ziga xos fikr mavjud edi.

Amir A.Temur va temuriylar zamonasi haqida O'rta Osiyo tarixshunosligi. O'zbek davlatchiligida muhim o'rin tutuvchi davlatlardan birining asoschisi Amir Temur va uning vorislari – temuriylar davri tariximizning yorqin yoritilgan davrlaridan biridir. Bu davrga oid ma'lumotlar, rivoyatlar ko'p. Bularning bir qismi A.Temur davrida yozilgan bo'lsa, qolganlari keyingi davrlarda yozilgan. Amir Temur va temuriylar davriga oid ma'lumotlarning aksariyati o'sha davrda va keyingi davrda yashagan mualliflarning qalamiga mansub bo'lib, Sharq

qo'lyozmalari nomii bilan ma'lumdir. Bizning kunlarga etib kelgan tarixiy asarlarning asosiy mazmunini eng avvalo, A.Temurning harbiy yurishlarini tavsiflash tashkil etadi.

Ushbu rejada Amir Temur zamonasining barcha jihatlarini emas, balki tarixshunoslik uchun muhim bo'lgan ayrim jihatlarini tahlil etishga harakat qilingan.

XV-XX asr tarixchilari va adabiyotchilarining ko'plab asarlari A.Temurning shaxsi va faoliyatiga bag'ishlangan. V.V.Bartold ta'kidlaganidek, A.Temur davri tadqiqotchisi "ma'lumotlarning kamligidan emas, ko'pligidan qiynaladi. Chunki ular ko'plab kutubxonalarga sochilib ketgan, ular avvalo tanqidiy nuqtai nazardan qarab chiqishni va nashr etishni taqazo etadi". V.V.Bartoldning bu fikri hozir ham o'z kuchini saqlamoqda.

Chig'atoy ulusining Movarounnahr qismida Chingiziylarning so'nggi vakili xon Qozog'on hukmronlik qildi. Lekin Qozog'on ham ov paytida mo'g'ul xoni Tug'luq A.Temurning yo'l-yo'rig'i bilan uning no'yonlaridan biri tomonidan tezda o'ldirildi. Qozog'onni o'ldirishda, Xuttalon hokimi Kayxusrav ham ishtirok etadi. Uning o'limidan so'ng Movarounnahrda kuchli hukmdor yo'q edi. Nizomiddin Shomiyning («Zafarnoma» muallifi) so'zlariga qaraganda, XIV asrning 50 yillarida Movarounnahrda u yoki bu darajada bir qancha hokimliklar bo'lib, ular hech kimga bo'ysunmas va bir-birlari bilan dushmanlik munosabatida edilar. Shahrizabz (Kesh) viloyati Hoja Barlosga tobe edi. Xo'jand muzofotida esa jaloirning rahnamosi Boyazid hukmronlik qilardi. Balx shahri va unga qarashli viloyatning bir qismi Qozonxonning nabirasi amir Husaynning qo'li ostida edi. Amir Husaynning Qozonxon bilan qondosh bo'lganligi unga o'z siyosiy mavqeini ko'tarish uchun umid bag'ishlardi. O'rta Osiyoning qolgan muzofotlari ham ulus mulki (hokimlarga qarashli) sifatida bo'lib tashlangan edi. Nizomiddin Shomiy bu mulklarni batafsil ta'riflab shuni ta'kidlaydiki, hokimlarning har biri, garchi harbiy kuchi oz bo'lsa-da, o'zgalarni mensimagandek tutishga urinar va shuning uchun butun mamlakatda o'zaro adovatlar hamda fitnalar yuz berardi. Buning orqasidan dehqonlar va hunarmandlar azob chekardi.

Yildan-yilga Movarounnahrdagi vaziyat og'irlashib borardi. Shuning uchun ham O'rta Osiyo 1360 va 1361 yilda Mo'g'ulistonda Tug'luq A.Temur yurishlarining qurboni bo'ldi. Rasmiy manbalarda A.Temur haqidagi ma'lumotlar faqat Tug'luq A.Temurning ana shu yurishlari atrofida berilgan, xolos. Garchi, O'zbekiston xalqlari tarixi tarixshunoslari ichida rasmiy manbalarda A.Temurning bolaligi va yoshligi haqida ma'lumotlar yo'q» degan fikr mavjud bo'lsa-da, bu unchalik to'g'ri emas. Negaki, qo'lyozma xazinalarida noma'lum

muallifning «A.Temurnoma» nomli kitobi saqlanadi. Bu kitobda barlos qabilasi va uning yo‘lboshchisi Xoji Barlos haqida, A.Temurning bolaligi, yoshligi hamda uning hokimiyat yo‘lidagi dastlabki qadamlari haqida salmoqli ma’lumotlar bor.

Ibn Arabshoh ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, A.Temurning otasi Turag‘ay xudojo‘y musulmon bo‘lgan, u olim va darveshlarning, ayniqsa shayx Shamsiddin Kulor (Kulol)ning do‘sti bo‘lgan. Bu taqvodor zotning xoki Go‘ri Amir maqbarasiga qo‘yilgan yoki ko‘chirilgan, A.Temurning yangi diniy maslahatchisi hamda homiysi Sayd Baraka umrining oxiriga qadar A.Temurning maslahatto‘yi va ma’naviy padari bo‘lib, A.Temur Xorazmga yurish qilganda ham ishtirok etadi.

Ibn Arabshohning so‘zlariga ko‘ra, amir A.Temur Zohid Zoyi al-din Abu Bakr Toyobodiyini (1381 yil-dan Xuroson ruhoniylarining etakchisi, Xuroson yonidagi Tonobod qishdog‘idan chiqqan) o‘zi erishgan zafarlarda katta xizmati bo‘lgan Shamsiddin Kulol va Sayd Baraka qatori homiylaridan biri deb hisoblagan.

Hofizi Abru yozishicha, A.Temur dini islomni mustahkamlash uchun g‘amxo‘rlik qilgan, u hech qachon vaqflarning pul bilan bog‘liq ishlariga aralashmas edi. Bartol‘d yana bir o‘rinda A.Temur tarixni juda yaxshi bilgan, deb yozadi. Bartol‘dning bu so‘zlari tarixchi Ibn Xaldunning A.Temur bilan bo‘lgan suhbatini mazmuniga suyanib yozilgan.

Amir Temur o‘z davrining o‘qimishli insonlaridan edi. Agar Chingizxon umrining oxirigacha mo‘g‘ul tilidan boshqa tilni bilmay o‘tgan bo‘lsa, A.Temur o‘zining ona tili bo‘lgan turk tilidan tashqari, forsiyni ham yaxshi bilgan va bu tilda olimlar bilan suhbatlar qurgan, o‘z saroyida tez-tez bo‘lib turadigan «qissaxonlik» lardan olgan tarixiy bilimlari bilan hatto olimlarni hayratda qoldirgan. Shuning uchun ham jahonda taniqli bo‘lgan sharqshunos V. B. Bartol‘d A.Temurni shunday ta’riflaydi: «U shaxmat o‘yiniga qiziqar va bu sohada yuqori darajaga erishgan; islom dini ta’limotining negizlarini shu darajada yaxshi bilardiki, diniy munozaralarni kuzatib borishi va ularda bemalol ishtirok etishi mumkin bo‘lgan. Bularning hammasi uning harbiy muvaffaqiyatlariga ham yordam bergan.» Tabiiyki, A.Temurning tarix sohasidagi bilimlari o‘tmishdan misollar aytib, o‘z jangchilarini ruhlantirishga yordam berar edi. Shuning uchun ham ulkan harbiy kuchlar unga so‘zsiz ishonar va o‘ta sodiq edi.

Amir Temur g‘ayratli yaratuvchi ham edi: uning amri bilan ajoyib bog‘lar yaratildi, muhtasham binolar qad ko‘tardi (birgina Samarqandda bunday binolar 20 mingdan oshiq edi), shaharlar, qishloqlar obod qilindi, yo‘llar tiklandi, sug‘orish inshootlari barpo etildi. Sharafiddin Ali Yazdiyning aytishicha, u hosil

ko'tarish mumkin bo'lgan biron bir er bulagining behuda yotishiga yo'l qo'ymagan ekan. Samarqand va uning tevarak-atrofi ahrlari, boy-u-kambag'allari uchun tomoshagoh va dam olish maskani hisoblangan.

A.Temur o'z hukmronligining dastlabki yillarida mamlakat poytaxtini belgilashda ikkilangan edi. XIV asrning 70-yillaridan Samarqand yirik siyosiy markaz tusini olib bordi va shu bilan shaharning yuksalishi avj oldi, Sharqning savdo-iqtisodiy, hunarmandchilik, ilmiy-adabiy markaziga aylandi. Hozirgi kunda bizgacha A.Temur va temuriylar yaratgan inshootlardan oz qismigina saqlanib qolgan, xolos, aksariyati yo'qolgan, yo'qotilgan, ayrimlari vayronalarga aylangan. Masalan, Samarqand qal'asida (Tepaqo'rg'on) 1371-1372 yillarda o'sha davrning obro'li kishilaridan biri bo'lgan so'fiy Nuriddin Basir yoki qutbi Chahor-doxum uchun maqbara tiklangan edi. Bu obida 1868 yilning mayiga qadar juda yaxshi saqlangan. Chor Rossiyasi Samarqandni bosib olgach, shu yilning iyun' oyidayoq Kaufmannning buyrug'i bilan bu nodir yodgorlik er bilan yakson qilinadi. Shu tufayli ham bizga bu me'morchilik durdonasining faqat tarixi va tasviri tarixchi rassom V. V. Vereshchaginining suratlarigina saqlanib qolgan, xolos. Hatto mana shu ko'hna suratlar ham 1915 yilga kelibgina oshkor qilindi va bu haqda Turkistondagi rus ziyolilarigina ogoh bo'ldilar, xolos. Hozir loyiha tarx va unda ko'rsatilgan o'lchovlar bo'yicha xulosa qilish mumkinki, qutbi Chahordohum maqrabasi olti burchakli mahobatli gumbazi bo'lgan bino ekanligini ko'ramiz. Uning devorlari sirlangan g'ishtlar bilan, peshtoqlari yozma naqshlar va gumbaz qubbalari feruza rang bilan ziylatlangan edi.

A.Temur hokimiyati davrida o'zga o'lkalardan keltirilgan ustalar hisobiga Samarqand hunarmandlari safi ko'paydi. A.Temur o'zi zabt etgan shaharlardan mahalliy ustalarni olib kelar va ularni Movarounnahr kentlariga, asosan Samarqandga joylashtirardi. A.Temurning buyrug'iga ko'ra, hunarmandlar va ustalar bilan bir qatorda Samarqandga qurilish materiallari va ashyolari, jo'natilardi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, A.Temur Samarqandga hunarmandchilik, me'morlik, fan va boshqa sohalarda foydasi tegishi mumkin bo'lgan barchani olib kelaverishni buyurgan. «U turli kasbdagi hunarmandlarni yig'ishga urindi», deb yozgan edi Klavixov. A. Yu. Yakubovskiyning ma'lumotiga ko'ra, Samarqandning ishlab chiqarish qudratini oshirmoq maqsadida A.Temur bu erga Oltin O'rda, Xuroson, Ozarbayjon, Armaniston, Fors, Mesopotamiya va boshqa viloyatlardan majburiy ravishda hunarmandlarni ko'chiradi. Tarixchilar XV asrda Samarqand aholisi etnik jihatdan rang-barangligini ta'kidlashgan.

A.Temur harbiy yurishlar chog'ida jamg'argan boyligining katta qismini o'z poytaxti Samarqandni bezashga, yangi yo'llar va savdo rastalari qurishga sarfladi. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, A.Temur nafaqat ichki, balki tashqi savdoni ham rivojlantirishga urinadi: bunda u faqat Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari emas, boshqa ko'plab mamlakatlar, jumladan Ispaniya, Frantsiya, Angliya bilan savdo aloqalarinn yaxshiladi. Bu o'rinda Samarqandning g'arbiy Ovrupo mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalariga tarixiy-jo'g'rofiy jihatdan baho berish kerak.

XIV-XV asrlar chegarasida A.Temur shaxsi zamondoshlarinnng e]tiborini jalb qilibgina qolmasdan, balki A.Temurning diplomat sifatidagi faoliyati ham mutaxassislar nazariga tushdi. Tarixchilar A.Temurning g'arbiy Ovrupo davlatlari rahbarlari bilan qilgan yozishmalari haqida salmoqli dalillarga egadir. Tarixshunoslik bu borada etarli ma'lumotlarga ega. Ammo A.Temur davlatining Sharq va g'arb mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zaro aloqalari tarixchilarimiz tomonidan kam o'rganilgan. Bu hol ayniqsa XV asrning boshi, A.Temurning Usmoniylar davlatiga qarshi g'arbiga yurishi, ya]ni «etti yillik» urushiga (1399-1404) tegishlidir.

A.Temur Venetsiya va Stambul - Konstantinopolning dengiz kuchlarini Usmoniylar davlatiga qarshi ishlatishdan manfaatdor edi. Imperator Manuilning Stambul - Konstantinopoldagi noibi Ioann Paleolog A.Temurdan Usmoniylarga qarshi birgalikda kurashish taklifi bitilgan maktub oldi. Konstantinololdan Venetsiyaga keltirilgan bu xat bizgacha asl nusxasida emas, Italiya tarixchisi Marino Sanudo (XV- XVI asrlar) tomonidan birmuncha buzib qilingan tarjima holda etib kelgan. Tarixchi A.Temur xatining tarjimasini o'zining «Venetsiya hukmdorlari hayoti» kitobiga kiritgan. Bu nodir hujjatning ruscha tarjimasini ilk bor taniqli sharqshunos olim SamDU professori I. I. Umnyakov tomonidan amalga oshirilgan. Matnning to'la tarjimasini u 1969 yili «Samarqand tarixi» kitobining 1 jildida e'lon qilgan. Mavjud hujjatlardan A.Temurning diplomatik qobiliyati xususida fikr yuritish mumkin. Qo'shinlari Kichik Osiyoda bo'lgan chog'i A.Temur turk sultoni Boyazid elchixonasi vakillari bilan muloqotdan kifoyalanmasdan, bir vaqtning o'zida Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422) va ingliz qiroli Genrix IV Lankaster {1399-1413) bilan Boyazidga qarshi ittifoq tuzish rejasini amalga oshira bordi. A.Temurning Ovrupo mamlakatlari hukmdorlari ila olib borgan yozishmalaridan ularning qudratli Usmonli imperiyasiga qarshi kurash borasida niyatlari bir joydan chiqqanligi ko'rinib turibdi.

A.Temur va Karl VI yozishmalari bilan birinchi bo‘lib XIX asr boshlarida taniqli sharqshunos frantsuz Sil’vestr de Sasi shug‘ullandi. Undan so‘ng 100 yil davomida bu mavzuda maxsus tadqiqotlar paydo bo‘lmadi.

1928 yili Bombayda Eron sharqshunosi Mirza Muhammadxon Kazviniyning maqolalar to‘plami nashr etildi, unda bir maqola yuqoridagi maktubga bag‘ishlangan bo‘lib, forsiy-dariy tiliga tarjimasi xam keltirilgan edi. Maktubning o‘rtasida va oxirida A.Temurning kichik muhri qo‘yilganligi uning haqiqiylikiga shubha tug‘dirmaydi.

Parij Milliy kutubxonasida A.Temurning Karl VI ga yozgan bizga lotincha tarjimada etib kelgan ikkinchi xati saqlanadi. Bu xatda xam xuddi birinchisiga o‘hshab, 1402 yil 1 avgust sanasi bitilgan. Unda A.Temurning Anqara jangidan so‘ng Boyazid ustidan g‘alaba qozongani haqida yoziladi. Ikkinchi maktubning asl nusxasi mavjudligi haqida Fransiya arxivlarida ma‘lumotlar yo‘q. Xat avvalida quyidagi mazmunda bitik bor: «Bul maktub ulug‘ hukmdor A.Temurbekning farang qiroliga yo‘llagan maktubining forsiydan lotin tiliga o‘girilgan nusxasidir».

I. I. Umnyakovning fikricha, shunday bo‘lishi ham mumkinki, bu maktubning forsha matni umuman bo‘lmagan. Maktub A.Temur nomidan lotin tilida arxiepiskop Ioann tomonidan yozilgan va Fransiyaga 1403 yili keltirilgan bo‘lishi mumkin. Forsiydan lotin tiliga o‘girishga esa 1403 yil may oyida A.Temur elchisining Ioann elchixonasi safida Parijga kelgani asos bo‘lgan. Ma‘lumki, u bu erda tantanali ravishda quyidagilarni ma‘lum qilgan: 1) A.Temurning Turkiya ustidan qozongan g‘alabasi haqida xushxabar, Boyazidning hibsga olingani, u asir olgan nasroniylarning A.Temur tarafidan ozod etilgani va A.Temurning barcha nasroniylarga ozodlik berishni mo‘ljallayotgani; 2) Fransiya qirolligining ulug‘vorligini ko‘rmoq va A.Temur hokimiyatining shavkati haqida so‘zlab bermoq.

«Faranglarning nomai o‘moli» ma‘lumotlarida yozilishicha, elchi tubandagilarni bayon qilgan: Birinchidan, ikkala mamlakat savdogarlari uchun ham erkin savdo ishlarini yuritish foydalidir (A.Temurning «Dunyo savdogarlar sharofati bilan royishdir» degan bosh aqidasi eslaylik); ikkinchidan, qirol va gersoglar rozi bo‘lishsa, erkin savdoni maxsus shartnoma yoki bitim bilan tasdiqlash mumkin. SHu xronikada yozilishicha, katolik pastor ko‘plarga A.Temur hayotining o‘ziga xos tomonlarini va o‘zi A.Temur haqida frantsuz tilida asar bitganini gapirib bergan. SHu tariqa Ovrupoda A.Temur haqida xotiralar paydo bo‘lgan.

Maktub shunisi bilan qimmatliki, Karl VI ning A.Temurga bitgan xati bizgacha saqlanib qolgan yagona hujjatdir, ularning bundan avvalgi yozishmalari bizga etib kelmagan, bu matnning nusxasi esa Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi.

Xullas, Amir A.Temurning Misr sultonini, so'ng 1402 yil Anqara jangida qudratli Usmon imperiyasini tor-mor etgani aslini olganda g'arbiy Ovrupo xalqlarini qullikdan asrab qoldiki, bu hol g'arbda Sharqqa nisbatan qiziqish uyg'otdi. G'arb olis SHarqqa o'z elchilarini yo'llarkan, o'zlarining doimiy maqsadlarini unutmadilar, ya'ni elchilar hamma joyda kuzatib yurishlari, ishlarning borishi, xalq ahvoli to'g'risida, savdo, hunarmandchilik, kosiblik haqida ma'lumotlar to'plashi, o'z mamlakati uchun foydali biron yumush qilishlari lozim edi va hokazo. Ular kundalik yuritardilar, qaytganlaridan so'ng esa barcha ko'rganlari haqida batafsil hisobot yozardilar. Ushbu estaliklar esa hozirgacha tarixshunoslikda mazkur davrni o'rganishning muhim manbalari bo'lib hizmat qilmoqda.

Amir Temurdan so'ng hukmronlik qilgan temuriylar haqida ham bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. V.L.Vyatkin XVII asr o'rtalariga mansub bir vaqf hujjatini o'rganayotganida hozirgacha Obirahmat arig'i va Naqshi Jahon degan joy nomlari bilan ma'lum bo'lgan "tole rasad"ning aniq chegaralarini topdi. Xujjat rasadxonaning o'rni haqida shu qadar aniq va tushunarli ma'lumotlar beradiki, unda aytilgan tepalikni topish hech ham qiyin emasdi..." Ulug'bek rasadxonasidagi 1908-1909 yilgi qazish ishlari natijalari haqida V.L.Vyatkin O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy arxeologiya, lingvistika va etnografiya jihatidan o'rganish rus qo'mitasida hisobot berdi.

1909 yilgi qazish ishlarining birinchi kunlarida V.L.Vyatkin bir g'isht qalinligida, balandligi ikki metr atrofida bo'lgan aylana devor va uchta parallel joylashgan, ikkita g'isht to'siq bilan ajratilgan, keskin pastga, binoning tashqi qatlamida qazilgan chuqurga tushadigan zinalarni topdi. Zinalarni tozalab, ocha borib arxeolog rasadxonaning asosiy falakiyotshunoslik uskunasi-ulkan kvadratning bir qismini topdi. Keyingi tadqiqotlar rasadxona binosining diametri 48 metr bo'lgan aylana shaklida bo'lganini ko'rsatdi, meridian bo'yi radiusi esa 40,212 metr ekanligi aniqlandi.

A. Navoiy tug'ilgan kunning 500 yilligi munosabati bilan 1941 yilning iyunida T.N.Qori-Niyoziy rahbarligidagi, temuriylarning Go'ri Amir maqbarasidagi qabrlarni o'rganish maqsadida, Samarqandga ekspeditsiya uyushtiriladi. Komissiya qabrni 1941 yilningn 18 iyunida ochdi. Qori-Niyoziyning axborotiga qaraganda qabr toshi professor A.A.Semyonov o'qigan quyidagi yozuv bor ekan. "Bu nur

taratuvchi qabr, bu sultoni shahidning sharafli joyi, bu muattar bog‘, jannatiy kishilarning, davlatpanohning so‘nggi osoyishtaligi joyi, ilm-ma‘rifat homiysi, tinchlik va din madadkori Sulton Ulug‘bek (Alloh uning qabrini doimo yoritib tursin), 796 yilda Sultoniya davlatida tavallud topgan 810 yilning zulhija oyida esa Madinat-us-Salam-Samarqandda oliy hukmdor bo‘ldi. Allohning irodasiga bo‘ysunib, har bir kunda o‘ziga belgilangan muddat sari suzib boraveradi.: Uning umri nihoyasiga etganda, taqdir belgilangan muddat chegarasiga kelganda o‘g‘li unga nisbatan shavqatsizlik qildi - qilich tig‘idan o‘tkazdi, oqibatda u azobli o‘lim topib, hamma gunohlarini kechirguvchi egasining shafqatli dargohiga yo‘l oldi. 853 hijriy yilning ramazon oyi, 10 kuni."

Bu komissiya Ulug‘bek o‘limining haqiqiy sababini ham aniqladi. Ulug‘bek o‘limining so‘nggi daqiqalarida haqida Abdullatif roziligi bilan Ulug‘bekka hamroh bo‘lib Makkaga yo‘l olgan Xoja Muhammad Xisravning og‘zidan tarixchi Mirxond yozib olgan mufassal hikoyasi bor.

T.N.Qori-Niyoziyning guvohlik berishicha, haqiqatdan ham Ulug‘bek qabri ochib ko‘rilganda uning boshi g‘arb tomonga sal surilib, tepaga qaratib qo‘yilgan bo‘lib, uchta bo‘yin umurtqasi bosh suyagidan uzilmagan holda edi. Oxirgi umurtqada o‘tkir kesuvchi qurolning aniq izlari bor edi. Suyaklarning qo‘l qismi bir necha qavat mato qoldiqlari bilan qoplangan edi. T.N.Qori-Niyoziyning fikricha, bular yopilgan mato qoldiqlari. Boshqa olimlar fikricha esa Ulug‘bekning kiyimlari qoldig‘i. Xoja Muhammad Xisrav va Ulug‘bekka hamroh bo‘lgan boshqa kishilar uning tanasini olishganmi, yo‘qmi, u qachon va kim tomonidan dafn etilgan kabi savollarga hali to‘la javob yo‘q. Davlatshohning so‘zlariga qaraganda, Ulug‘bek "Siyob" ("Qora suv") bo‘yicha 853 yil ramazon oyining 8 kunida (25 oktyabr) o‘ldirilgan.

Temuriylar davri madaniy hayoti tarixshunosligi. XIV-XV asrlarda O‘rta Osiyoda ikkinchi uyg‘onish davri yuz berdi. Mazkur davr madaniy hayotida, ilm-fan rivojida temuriy hukmdorlardan Mirzo Ulug‘bek alohida o‘rin tutadi. Mirzo Ulug‘bek mamlakatda ilm-fan ravnaqiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning davrida Amir Temurning binokorlik sohasida ishlari ham davom ettirildi.

Afsuski, rasmiy tarixshunoslik Ulug‘bekning ma‘lumoti xususida aniq ma‘lumotlarga ega emas. Ma‘lumki, Ulug‘bekning birinchi tarbiyachisi uning buvisi Saroymulxonim edi. 1405-1411 yillarda u Amir Shoh Malik tarbiyasida bo‘ldi.

1397-1398 yillarda Ulug‘bek shoir va taniqli olim, bir turkum falsafiy-axloqiy asarlar muallifi shayx Orif Ozariy qo‘lida Sadr Qutbiddin madrasasida o‘qidi. Orif

Ozariy bir necha yil davomida Ulug‘bekning tarbiyachisi bo‘lgan. A.Temurning Eron va Old Osiyo viloyatlariga qilgan 1399-1404 yilgi yurishlarida Ulug‘bek Marogada (Ozarbayjon) Nasriddin Tusiy rasadxonasining xarobalarini ziyorat qildi. Aftidan uni falakiyotshunos Mavlono Ahmad bilan A.Temur xizmatida bo‘lgan Qozizoda Rumiylar kuzatib borgan. Shundan boshlab Qozizoda Rumiylar shahzodaning doimiy ustoziga aylanadi. Qozizoda Rumiylarning shahzodaga bag‘ishlangan «Matematika asoslari» kitobi shunga guvohlik beradi. Bu kitob talabalarga matematikadan asosiy qo‘llanma sifatida XV-XIX asrlarda ham xizmat qildi.

O‘rta Osiyo tarixshunoslarining yozishlaricha, Ulug‘bek madrasa mudarrisi bo‘libgina qolmasdan, eng yaxshi muallimlarni tanlashda shaxsan qatnashgan. Madrasaning birinchi domlasi faylasuf va fiqh ilmi bilimdoni Muhammad Xavofiy edi. Madrasa ochilishi marosimida u birinchilardan bo‘lib tinglovchilar huzurida ma‘ruza o‘qidi. Mashhur «Aflotuni zamon» Qozizoda Rumiylar madrasada tabiiy fanlar bo‘yicha etakchi mudarris edi. Vosifiyning yozishicha, madrasa qurilishi bitgandan so‘ng Ulug‘bekdan so‘rashadi; «Kim madrasaning bosh mudarrisi (rektori) bo‘ladi?» Ulug‘bek bu odam barcha fanlar bo‘yicha komil odam bo‘lishi kerak, deb javob beradi. Ulug‘bek so‘zini eshitgan eski kiyimda, g‘ishtlar orasida madrasa quruvchilari bilan o‘tirgan Mavlono Muhammad bu vazifaga o‘zining haqqi borligini aytadi. Mavlono Muhammad madrasa qurilishida qora ishchi sifatida qatnashgan (Abu Tohir Xoja Samarqandiy). Ulug‘bek u bilan suhbatlashib ko‘rib tezda uning zukkoligiga amin bo‘lgan. SHuning uchun madrasa ochilishida unga mudarris sifatida birinchi bo‘lib ma‘ruza qilish huquqi berildi. Bu erda 90 dan ortiq olim ishtirok etgan bo‘lsa-da, Muhammad Havofiy ma‘ruzasi mazmunini Ulug‘bek va Kozizodagina anglab etganlar.

Ulug‘bek maktabi tarixida etakchi rolni ulkan falakiyotshunos va riyozatchi (matematik) G‘iyosiddin Jamshid bin-Ma‘sud Koshoniy o‘ynadi. U Ulug‘bek rasadxonasining etakchi olimlaridan va falakiyotshunoslik jihozlari haqida risola muallifi edi. Shuningdek, Ulug‘bek va Qozizodaning shogirdi va izdoshi samarqandlik Alouddin ibn Muhammad Kushchi «o‘z zamonasining Ptolomeyi» edi. Nihoyat, Ulug‘bek maktabi shogirdlaridan, uning asarlari sharhchisi, qozizoda Rumiylarning nevarasi Mirim Chalabiy e‘tiborni tortardi.

Mirzo Ulug‘bek ma‘lumoti jihatidan ustozlari Qozizodadan o‘zib ketdi va atrofiga o‘z davrining eng ilg‘or ziyolilarini tarixchilar, adabiyotshunoslar, shoirlar, san‘atshunoslar, tabiiy fanlar vakillarini to‘plagan edi. Ular orasida matematik va falakiyotchilar faxrli o‘rinni egallardi. Ulug‘bekning rahbarligi va ishtirokida madrasada ilmiy ishlar muvaffaqiyatli rivojlandi.

«Tarixchi jahongir» kitobi muallifi Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, Ulugʻbek madrasasida yuzdan ortiq talaba oʻqigan. Bu madrasa toliblari orasida Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Mutribiy Samarqandiy, tarixchi Sayd Roqim va boshqa koʻplab mashhur boʻlgan kishilar bor edi. XVI asrda toliblar soni keskin koʻpaydi. Shuning uchun mudarrislarining oʻzi oʻndan ortiq edi, deb xabar beradi «Abdullanoma» muallifi. Bosh mudarris barcha Samarqand olimlarining boshligʻi hisoblanardi. XV asr oʻrtalarida Abdurahmon Jomiy bosh mudarris edi.

«Yangi fazoviy jadvallar» yaratilishidan oldin birinchi boʻlib Gipparx yulduzlar jadvalini tuzgan edi. Unda 1022 yulduzning joylashgan oʻrni berilgan boʻlib u, Ptolemeyning «Almajistiy» asarida berilgan. Bu jadvallar ilmiy jihatdan qimmatli boʻlib, samoviy jismlar harakatini oʻrganish uchun ajoyib manba hisoblanadi.

Gipparxdan soʻng yulduzlarning toʻla jadvalini tuzgan ikkinchi fazoshunos Ulugʻbek edi. Uning jadvali ancha qimmatlidir, chunki, u yulduzlarning Samarqand rasadxonasida aniqlangan haqiqiy joylashuviga asosan tuzilgan. U XVI asr mobaynida tuzilgan ikkinchi jiddiy jadval edi. XV asrgacha faqat ikki nafar fazoshunos - Gipparx va Ulugʻbekning yulduzlar jadvali ahamiyatini toʻliq angladilar.

Ulugʻbekning Samarqand qurilishlarida ham diniy muassasalar alohida oʻrin tutgan. Bu qurilishlar uchun bugungi «Registon» deb yuritiladigan bozor maydoni tanlab olingan. Abdurazzoq Samarqandiyning fikricha, Samarqand maydonida madrasalar qurilishi 820 (1417) yilda boshlangan boʻlib, 823 (1420) yilda tugallangan. V. V. Bartol'd bu ajoyib binoning me'mori noma'lum desa-da, oʻzbek olimlarining bu sohadagi izlanishlari muvaffaqiyatli tugadi. Bu madrasaning bosh me'mori Qozizoda Rumiyning shogirdi Kamoliddin Muhandisligi aniqlandi. Bino ikki qavat va toʻrt minoradan iborat boʻlib, bino burchaklaridagi bu minoralar boʻyi 38 metr ga etadi, hujralar 2 talaba uchun ikki qismga boʻlingan.

Buxoro va Samarqanddagi Ulugʻbek qurdirgan madrasalar eng uzoq umr koʻrdi, XV asrda yaratilgan boshqa madrasalarning koʻplari vayron boʻlgan. Oʻrta Osiyoga 1842-1843 yillarda safar qilgan P. Xanikovning guvohlik berishicha, bu madrasalar binolari nurab turgan. V. L. Vyatkinning yozishicha, Samarqand madrasalari oʻquv yurtlari sifatida 1927 yilgacha ishlab turgan. N. Xanikov Ulugʻbekning Buxoro madrasasi 80 xonadan iborat ekanligini, talabalar oyiga oʻrtacha 3,5 tilla pul olishlarini ezdi. Bino eshigida quyidagi bitik bor: «Utlibu-l- ilma farizaton li muslimuna va muslimatin» («ilm olmoqqa intilmoq har bir mus-

lim va musulima uchun qarzdir»). XVI-XIX asrlar tarixchilari Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Sayd Roqim, Rahmatullo Vozoh, Abu Tohir Xoja Samarqandiy va boshqalar Ulug‘bek madrasalari faoliyati haqida yozganlar. O‘rta Osiyolik bu tarixchilarning ma‘lumotlaridan biz Ulug‘bekning o‘zi falakiyotshunoslik ilmidan toliblarga dars berganini bilib olamiz.

Ulug‘bek o‘limidan so‘ng rasadxona o‘z faoliyatini tugatdi. Uning binosi va asbob-uskunalari vayron va talon-toroj qilindi. Olimlar esa Samarqanddan boshqa SHarq mamlakatlariga ketishga majbur bo‘ldilar. Bino XV asrdan to XVII asr boshlarigacha qad tiklab turgan bo‘lsa-da, u faoliyatsiz edi. Biroq «Ziji Ko‘ragoniy» ustidagi ishlar asosan tugagan bo‘lsa-da, Ulug‘bekning izdosh shogirdlari, ayniqsa, Qozizoda Rumiyy vafotidan so‘ng (1437) Ulug‘bekning yordamchisiga aylangan Ali Qushchi uni to 1449 yilgacha davom ettirdi. Buning sababi nima? Bu savolga javob ilgari ishlab chiqilgan Ulug‘bek munajjimlik maktabining 30 yillik ilmiy dasturini amalga oshirilishi zaruriyati bilan bog‘liq. Ulug‘bek shogirdi Ali Qushchiga bu dasturni bajarish ustida ishni davom ettirishga ruhsat bergan edi. Aynan ana shu davrda Ali Qushchining tashkilotchilik qobiliyati kuchli namoyon bo‘ladi. Uning falakiyot va matematika sohasidagi ilmiy bilimlari, keyinroq zamondoshlari tomonidan to‘la tan olindi. Faqat ustozining bevaqt o‘limi Ali Qushchini Turkiyaga ketishga majbur qildi. Uning xizmati bilan «Ziji Ko‘ragoniy» va boshqa ko‘plab qimmatli qo‘lyozmalar saqlanib qolingan. Ularning bir qismi yo‘qolgan, boshqa qismi johil kuchlar tomonidan yo‘q qilingan. Qo‘lyozmalarning ozroq qismigina jahon kutubxonalarida saqlanmoqda. Ali Qushchining «Arifmetika bo‘yicha risola» asari shular jumlasiga kiradi. U fors tilida bo‘lib, London kutubxonasi va O‘zbekistan Respublikasi FA Sharqshunoslik ilmgohida saqlanmoqda. «Fazoshunoslik risolasi» ham shu ilmgohdadir. Bu asar 1975 yilda Toshkentda o‘zbek tilida nashr etilgan. Ali Qushchi Istanbulga kelgach, «Fazoshunoslik risolasi»ni forsiydan arab tiliga o‘girib, turk sultoni Muhammad II ga tortiq qiladi. Bundan tashqari, u hozirda Ayo Sofiya, Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanayotgan «Fatxiya» asarini yozdi. Ali Qushchi 1474 yilda Istanbulda vafot etgan.

G‘arbiy Yovropa olimlari XVII asrga kelibgina Ulug‘bekning ilmiy merosi xususida Sh. Grive (1648), T. Xayd (1665), Yan Gaveliy (1690) asarlari orqali xabardor bo‘lishdi. Bu davrga kelib Samarqand rasadxonasi butunlay yo‘q bo‘lib ketgan edi.

Ulug‘bek va uning maktabi ilmiy merosini o‘rganishda Ulug‘bek boshliq samarqandlik olimlarning ilmiy dasturi haqidagi taxminni birinchi bo‘lib ilgari surgan G. Jalolovning xizmati ham katta.

Ulug‘bekning faoliyatiga oid tarixiy fundamental asar bu V.V.Bartoldning 1915 yilda yozgan "Ulug‘bek va uning davri" asaridir. Asar 1918 yili nashr qilingan. V.V.Bartold asarida Ulug‘bekning ilm-fan yo‘lidagi xizmatlarini zarracha kamsitmagan holda olim Ulug‘bekning faoliyatini hukmdor Ulug‘bekning faoliyatidan ajratib ko‘rsatadi.

Akademik Bartol‘dning aytishicha, Ulug‘bek shaxsi hamda uning Samarqand rasadxonasi faoliyati mavzui sharqshunos sifatida e‘tiborini tortdi. Bu qazish ishlari unga birinchi bo‘lib «Ulug‘bek va uning davri» asarini yozish imkonini berdi. Bu asar 1915 yil yozilib, 1918 yili e‘lon qilindi. «Ulug‘bek va uning davri»ni «Turkiston mo‘g‘ullar bosqini davrida» asarining davomi desak ham bo‘ladi. Bu asarning mazmuni nomiga qaraganda xronologik jihatdan ancha keng. V. V. Bartol‘d dastlabki ikki bobda Chig‘atoy davlati va A.Temur davlatining qisqa tavsifini keltiradi. Ulug‘bekning bolalik va o‘smirlik davri haqida ma‘lumotlar kamligini e‘tiborga olib, u bo‘lajak O‘rta Osiyo hukmdori va jahonga mashhur olim Ulug‘bekning o‘sha davrlar hayotiga oid deyarli barcha manbalarni o‘rganib chiqadi. «Ulug‘bek va uning davri»ning to‘rtinchi va beshinchi boblari Movarounnahr hukmdorining ichki va tashqi siyosatiga bag‘ishlangan. Va nihoyat, oltinchi bob Ulug‘bekning shaxsiy hayoti va,ilmiy mashg‘ulotlariga bag‘ishlangan.

«Ulug‘bek va uning davri» asari haqida V. V. Bartol‘d «hali bor manbalardan to‘laroq foydalanmadim, asar kamchiliklarini keyinroq qisman tuzatdim» deb yozgan bo‘lsa-da, bu asar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan asardir. Bu davrning Bartol‘d o‘rganmagan tomonlarini boshqa tadqiqotchilar o‘rganishdi. Jumladan ko‘p vaqtlar Samarqand rasadxonasi tarixini tadqiq etgan V. P. Heglov Ovrupo manbalariga asoslanib, «Ulug‘bek jahon faniga ulkan hissa qo‘shgan olim» mavzuida ilmiy asar yozadi. Keyingi yili M. E. Massonning «Ulug‘bek rasadxonasi» risolasi nashr etildi, unda muallif O‘rta Sharq fazoshunoslik fani taraqqiyoti haqida qiziqarli hikoya qiladi.

Olim va davlat arbobi Ulug‘bek to‘g‘risida bizning davrimizda S.A.Akramov, Yu.N.Aleskerov, B.Ahmedov, T.A.Qori-Niyoziy, N.I.Leonov, M.Masson, G.Pugachenkova va boshqalarning asar hamda maqolalari e‘lon qilingan. Bular Ulug‘bekning hayot va faoliyatini o‘rganishda o‘quvchilarga yordam beradi.

XV asrda O‘rta Osiyoda tarixiy ilmlar ham yaxshi rivojlandi. Bu davrda Hofiz Abru, Abdurazzoq Samarkandiy, Mirxond, Xondamir, Isfizoriy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqa tarixchilar yashab, ijod qildilar. Ularning asarlari O‘rta Osiyo tarixchiligining qimmatli manbalaridir. Masalan, Hofiz Abruning «Zubdat-ut-tavorix» («Yilnomalar qaymog‘i») asarida 1427 yilgacha bo‘lgan tarixiy voqealar bayon qilinadi. Abdurazzoq Samarqandiy (1482 yilda vafot etgan) esa

«Matla-us-sa'dayn majma - ul bahrayn» («Ikki baxtli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi») asarida 1471 yilgacha bo'lgan voqealarni tasvirlaydi. Bu kitob xulagular avlodidan bo'lgan Abu Sayd tavalludidan to temuriylar sulolasi vakili Abu Saidgacha bo'lgan davrning (1304-1469 y.) tarixiy voqealarini o'z ichiga oladi. Mirxond (1498 yilda vafot etgan) «Ravzat-us-safo» («Tozalik bog'i») va uning nabirasi Xondamir «Habib-us-siyor» asarlari Sulton Husayn podsholigi davri tarixiga bag'ishlanadi. Isfizoriy 1491 yili Hirot tarixini yozdi. Davlatshoh Samarqandiy esa «Tazkirat ush-shuaro» asarini Alisher Navoiyga bag'ishladi. Bu asarda yuzdan ortiq shoirlar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlar jamlangan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Amir Temur tarixi tarixshunosligini necha davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir hisoblanadi?
2. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asari tuzilishiga ko'ra qanday qismlarga bo'linadi va ularda qanday ma'lumotlar berilgan?
3. Qaysi asarlar Amir Temur va temuriylar davrini yorituvchi asosiy manbalar hisoblanadi?
4. XX asrning 60-yillar oxirida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga qiziqishning yanada avj olishiga kimning qaysi asari turtki bo'ldi?
5. Ispan elchisi Klavixoning asarida Amir Temur davriga oid qanday ma'lumotlar keltiriladi?
6. Qaysi rus tarixchilari asarlarida Amir Temur davri tadqiq qilingan?
7. Tarixchi Ibn Arabshoh asarida Amir Temur haqida qanday muhim ma'lumotlar keltiriladi?
8. XIV-XV asrlarda yuz bergan O'rta Osiyodagi ikkinchi uyg'onish davri tarixida kim alohida o'rin tutadi?

9-mavzu: CHOR ROSSIYASINING MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDA MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI.

Reja:

1. O'рта Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishini o'rganilishi
2. Chorizmning mustamlakachilik siyosati tarixshunosligi
3. Tarixiy adabiyotlarda chor mustamlakachilariga qarshi milliy ozodlik kurashining yoritilishi
4. Chor Rossiyasi mustamlakachilik tuzumiga qarshi milliy ozodlik xarakatining sovet davri tarixshunosligida yoritilishi.
5. Milliy ozodlik xarakatining mustaqillik yillari tarixshunosligi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: *O'рта Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishini o'rganilishi, Chorizmning mustamlakachilik siyosati tarixshunosligi, tarixiy adabiyotlarda chor mustamlakachilariga qarshi milliy ozodlik kurashining yoritilishi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.*

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Chor Rossiyasi, "Tarixi Farg'ona", Muhammad Solih Toshkandiy, "Tarixi Turkiston", Abdul Azim Somiy, L.M.Epifanova, Rossiyaning mustamlakachilik davri tarixshunosligi davrlari, F. Girs, "Dukchi Eshon voqeasi asari, O'рта Osiyo xalqlarining qo'zg'olonlari tarixiga oid hujjatlar to'plami, Z.Kostelskiy, «Qo'qon xonligidagi xalq xarakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar», X.J. Sodiqov, «Turkiston bosqini».*

O'рта Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishining o'rganilishi. XIX asrning o'rtalaridan boshlab Rossiya chorizmi O'рта Osiyodagi milliy davlat Qo'qon xonligiga qarshi bosqinchilik harakatlarini faol va dadil olib bordi. Bu harakatlar asta-sekin kengayib keng miqiyosdagi urushga aylandi. Ana shu Rossiyaning Turkistonni istilochilik yurishlari haqida bir qancha mahalliy mualliflar asarlari mavjud bo'lib, ularda bu voqealar ishonarli dalillar bilan tasvirlangan.

Rus qo'shinlarining Qo'qon xonligiga dastlabki harbiy yurishlarini mahalliy o'lkashunos tarixchi Ishoqxon To'ra o'zining "Tarixi Farg'ona" asarida tasvirlagan. U shunday yozadi: "1281 xijriyda Turkiston va Avliyo ota Rossiya tasarrufiga o'tdi. Andin Chimkandg'a qasd etg'oni amirlashkarg'a eshitildi. Xo'qand askari bilan qish vaqtida Chimkandg'a keldi, unda Rusiya askari Turkistondan chiqqani yo'q ekan... Amirlashkar Turkistonga borib, urush

qilmoqchi bo‘lib Qo‘qonga bordi. Turkistondan Rusiyaga hech pisand bo‘lmay, ahamiyat bir oz soldat ila urushga kirdi".

1864 yilning oktyabrida rus qo‘shinlari Toshkent shahriga dastlabki hujumni uyushtirdilar. Mana shu va keyinchalik Toshkentni bosib olish va Muhammad Solih Toshkandiy "Tarixi Turkiston", "Tarixi jadidi Toshkand" kabi asarlarida juda yaxshi bayon qilingan.

Shahar ahli va sarbozlari shaharni ruslar hujumidan mudofaa qilganliklarini tarixchi shunday tasvirlaydi: "Qo‘shfarmanchi Qipchoq boshchiligidagi askarlar Qo‘qon darvozasi, Mirzo Ahmad Qushbegi sarbozlari Qashqar darvozasi, orasidagi devor ustiga o‘rnashdilar. Mudofaaga barcha shahar aholisi otlanib, g‘ariblar, fuqarolar, qariyalar, hatto ibodati nomozdan ko‘ra qo‘limizdan kelgancha xizmat qilish yaxshi va savob deyishib, mujohidlarga va g‘oziyalarga suv hamda oziq-ovqat etkazib turdilar".

Ruslarning 1864 yil oktyabridagi yurishi muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Ularning keyingi harbiy yurishi 1865 yilning mayida boshlandi. Toshkent mudofaasini tayyorlashda Alimqul sarkardaning xizmatlari katta bo‘ldi. U 8 may kuni o‘zining katta qo‘shini bilan Qo‘qondan Toshkentga etib keldi. 1865 yil 9 may kuni ikki tomon kuchlari to‘qnashdi. Jang kutilgandan ham og‘ir va shiddatli kechdi. Bu voqealarni Mirza Olim Toshkandiy "Tarixi Turkiston" asarlarida quyidagicha tasvirlaydi: "Bir necha kundan keyin Rusiya askarlari Toshkand ustiga kelib, qaytadan Xo‘qand darvozasidan xujum qila boshladilar. O‘sha vaqtda Toshkand shahrining tamom atrofni aylantirib, bino qilingan qalin va baland qo‘rg‘on, tashqari atrofida zovur qazilgan va o‘n ikki darvozasi bor edi.

Bu jangni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Muhammad Solih Toshkandiy "Tarixi jadidi Toshkand" nomli qo‘lyozma asarida quyidagicha tasvirlaydi. "Butun osmonni tutun va chang qoplab oldi, nihoyat ruslar yaqindagi tepalik tomon chekinib, mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldilar. Qamalda yotgan shaharliklar buni ko‘rib juda quvondilar. Etti yashar boladan tortib, etmish yashar chollargacha g‘alabani kutlab, sarbozlarga ovqat, sharbat, issiq non, mevalar keltirib turdilar. Lekin o‘rus qo‘shinlari o‘zlarini o‘nglab, qayta hujumga o‘tib, Toshkand qo‘shinlarini orqaga chekintirdi".

Dahshatli jang shunday qizib ketdiki, eru ko‘k larzaga keldi, butun osmon chang bilan qoplandi, odamlar qaerda-yu qurollar qaerda ekanligini ajratish mumkin bo‘lmay qoldi. Nihoyat, toshkentliklar engilib qocha boshladilar. Alimqulga o‘q tegib, halok bo‘ldi. Shahar ruslar tomonidan 15 iyunda deyarli egallab bo‘lindi.

Toshkent bosib olingach, Rossiya imperiyasining Turkiston masalasiga daxldor harbiy siyosiy masalalarni hal qiladigan, rus qarorgohi xizmatini bajaruvchi makonga aylantirila boshladi. Toshkent O'rta Osiyoni mustamlakaga aylantirish xujumlarini ijro qiluvchi tayanch harbiy-siyosiy ma'muriy markaz xizmatini bajardi.

Buxoro xonligining, asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya bilan chegaradosh bo'lgan davri tarixi Mirzo Salimbekning asarlarida o'z aksini topdi. U so'nggi Buxoro amirlari davrida yuqori mansablarni egallagan va shu bois Buxoro amirlari shaxsini ulug'lashga intilgan. Muallif asosan, xonlik siyosiy hayotining tashqi jihatlarini yoritib, xalq hayotini ham tasvirlagan. Mirzo Salimbek o'z asarlarida XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya Buxoro munosabatlariga to'xtalib o'tgan bo'lsa-da, urush davridagi shaharlar aholisi ahvolini kam yoritgan.

U Buxoro xonligiga qarashli, ruslar bosib olgan shaharlarni sanab o'tish bilan cheklangan, Samarqand aholisining 1868 yil aprel-mayidagi amirga qarshi ko'tarilishining asosiy sabablarini ochib bermaydi.

U ruslar Samarqandni asosan eroniy beklar sotqinligi, "darvozalarni ochib" berganliklari sababli egallashdi, deb hisoblaydilar.

Buxoro xonligi tarixi mirzo Abdul Azim Somiyning asarida XIX asrning tarixiy voqealari, 1866-1868 yillardagi Rossiya-Buxoro urushi haqida keng ma'lumotlar, Samarqandga rus qo'shinlari hujumi oldidan Oqtepa qishlog'ida o'tgan harbiy kengashga oid faktlar bor. Boshqa zamondoshlariga qaraganda, u bu davr voqealarini mufassalroq tasvirlagan. U jamiyatdagi turli siyosiy guruhlarining faoliyati natijalarini bayon qiladi. Jumladan, 1868 yil aprelda amir Samarqand begi qilib tayinlagan SHERALI inoqning zulmiga qarshi xalq qo'zg'olonini mufassal yoritgan.

Ushbu asarni 1962 yilda rus olimasi L.M.Epifanova forschadan tarjima qilib nashr ettirgan. Biroq, Mirzo Somiyning asari kamchiliklardan ham xoli emas. Ularni L.M.Epifanova so'zboshi va izohlarida ko'rsatgan. Shu bilan birga L.M. Epifanovanning ba'zi xulosalari bilan ham kelishib bo'lmaydi.

Jumladan uning so'zboshisi bilan tanishar ekanmiz, O'rta Osiyo tarixi, uni Chor Rossiyasining bosib olishi davriga bag'ishlangan Ahmad Donish asari mazmunan Mirzo Somiyning asaridan past qo'yiladi.

L.M.Epifanova hisoblashicha na Ahmad Donish, na Mirzo Salimbek Samarqandni ruslar bosib olishi oldidan shahar aholisining SHERALI Inoqdan juda noroziligi, rus qo'mondoniga murojaat xususida to'xtalishmaydi. L.M.Epifanova

"So'zboshi"sida Salimbekning asariga to'g'ri baho berish bilan birga Ahmad Donishning O'zbekiston F.A.Sharqshunoslik ilmgohida saqlanayotgan "Tarjimat-ul-ahvoli amiron Buxoroi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad " asari Ahmad Donish "Buxoroning mang'it amirlari qisqacha tarixi" asarida 1866-1968 yilgi Buxoro-Rossiya munosabatlari, Erjar voqealari, Jizzaxning olinishi, Samarqand aholisi isyonlarini mufassal yoritib, amir Muzaffar va amaldorlarining maqtanchoqligini fosh etgan. U Buxoro amirligi mag'lubiyatining sababi - amirlikning texnikaviy-iqtisodiy qaloqligida, deb to'g'ri ta'kidlaydi.

Ruslarning Samarqandni egallashi sanasida ham Mirzo Somiy kabi, L.M.Epifanova ham noaniqlikka yo'l qo'ygan. Mirzo Somiy Jizzax olingach "15 kun o'tgach, qo'shinlar Ilon o'tti orqali Samarqandga yo'l olgani"ni yozadi. So'zboshida L.M.Epifanova bunday deb yozadi: "Somiy bu erda nohaq bu voqealar o'rtasidagi farq 15 kun emas, bir necha oydir. Jizzax 1866 yilning oktyabrda Samarqand 1867 yilning mayida egallagan. Bu fikr barcha adabiy va arxiv materiallariga zid keladi. Ma'lumki Samarqand 1867 yilda emas, 1868 yilning 2 mayida egallagan. Buxoro xonligi Rossiya bilan sulh shartnomani imzolashga majbur bo'lgan".

1873 yilda Xiva xonligi ham rus qo'shinlari tomonidan bosib olindi va sulx shartnoma tuzildi. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishini o'rganilish masalasini yoritganda bir narsaga ahamiyatni qaratish kerak. XX asrning 90 yillarigacha tarixshunoslikda xususan sovet tarixchilarining asarlarida Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgani emas, aksincha O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi deb nomlab kelindi. Shuningdek bu qo'shib olinishga progressiv hodisa sifatida ko'proq urg'u berildi. Rus armiyasining bosqinchilik yurishlari, ularga qarshi mahalliy aholining milliy ozodlik harakati ochiq-oydin yozilmadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach tarixshunosligimizda ushbu masalada juda katta o'zgarish, yangilanish yuz berdi.

Chorizmning mustamlakachilik siyosati tarixshunosligi. Podsho Rossiyasi O'rta Osiyoni bosib olgach, bepoyon hududlarga ega bo'ldi. U dunyoning eng yirik mustamlakachi mamlakatiga aylandi. Shuning uchun ham usha vaqtda Rossiya to'g'risida "ulkan miqdordagi mulk o'g'risi" degan haq gaplar aytilgan edi. Rossiyaning mustamlakachilik davri tarixshunosligini 3 davrga bo'lib o'rganish mumkin.

1. Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgandan to Sho'ro tuzumi qaror topguncha bo'lgan manbalar.
2. Sho'rolar tuzumi qaror topgandan to 80 yillarning oxirigacha bo'lgan davr.
3. O'zbekiston mustaqillik yillari tarixshunosligi.

Rossiyaning O'rta Osiyoda yuritgan mustamlakachilik siyosati ularning boshqaruv tuzilishida yaqqol ko'rinadi.

Turkiston general gubernatori K.Kaufman rus harbiylarining eng faol istilochi jandarmi graf D.Milyutinga 1876 yili yo'llagan ma'ruzasida Rossiya va Angliya kabi nosroniylar davlatlarining osiyodagi maqsadi mushtarak ekanligini alohida ta'kidlab, "bu joyda bizning umumiy dushmanlarimiz - musulmonlik va yovvoyilikdir" deb, harbiy vazirdan qattiq siyosat o'tkazishda keng vakolatlar so'ragan. Xududi shunday siyosatni podshoning yaqin mulozimi, general-leytenantga teng unvondagi maxfiy maslahatchi F. Girs Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqida tuzgan qonun loyihasida ham aks ettirgan edi.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda yaratgan 1865-1917 yillar davomida meteropoliyadagi idoralar tomonidan muhokama etilgan qonun loyihasi bir necha bor pishitilib, mohiyatini tushunish uchun o'lka boshqaruvi tizimlari idoralari tarkibini bilish lozim.

Rus mustamlakachiligining mohiyati va uning o'zga xalqlarni ruslashtirishi siyosatining bosh yo'nalishini venger olimi Herman Vemberi 1871 yilda ilg'ab, bunday deb yozgan edi: "Rusiya shiddat bilan o'smoqda, Buyuk Pyotr zamonida uning aholisi 15 mln edi. Katerina taxtga chiqqan yili 25 mln bo'ldi. Aleksandr 1 o'lgan yili 58 mln,ga chiqdi, hozir (1871y) esa 77 mln bo'libdi. Nufuzning bunday shiddat bilan ko'payishi ruslarda ko'p tug'ilish qobiliyatidan emas. Aksincha, ishg'ol etgan o'lkalardagi aholini tezkor ruslashtira olishlari bilan izohlanadi".

Rus mustamlaka hokimiyatining dabdabali raishda e'lon qilgan "Turkiston aholisini harbiy xizmatdan ozod qilish haqida"gi ehsonning Girs g'oyat nozik ta'birda fosh qilgan edi. Turkiston tadqiqotchilari ana shu masalaga o'z vaqtida oydinlik kiritganliklarini eslash o'rinlidir. "Ilgargi Turkistonda - deb yozgan edi Ahmad Zaki Validiy, - eski odatga ko'ra askarlikka rag'bat va havas bo'lar edi. Hozir turkistonliklar askarlikdan ozod etilganliklari sababli asta-asta shijoatlari so'nib, bo'shshib ketdilar... Rusiya Osiyoda g'oyat uzoqni ko'zlovchi siyosat ketidan quvuvchi va bu keng qamrovli harakatlari hech qanday chek-chegara bilmagan, hirs va ishtahasi esa kun sayin oshib boruvchi imperialistik davlatdir. Rus millati ham buyuk davlatchilikka nihoyatda bog'langan, xususiy mulkka qarab qolmay, hukumat ko'rsatgan har qanday joyga, har qanday o'lkaga borib joylashishga chamadoni tayyor, harakatchan g'ayrati keladi. Rus milati bu harakatchanlik va g'ayratni alohida bir uddaburonlik deb biladi.

Mustamlakachi ma'muriyat o'lkani Rossiyaning xom ashyo bazasiga aylantirishga zo'r g'ayrat bilan kirishadi. Sug'oriladigan joylarda paxtachilik va

paxta yakka hokimligining o'sishi, hunarmand-kosibchilikning inqirozga yuz tuta borishi bilan dehqonlar keng ommasi, mayda hunarmandlar va shahar kambag'allarining boshqa tabaqalari ham qoshshoqlashib bordi. Natijada XIX asrning 80 yillari oxiri 90 yillarda xalq ommasining turmush tarzi keskin pasaya boshladi. Buni mahalliy tarixchi Ibrat o'zining "Farg'ona tarixi" asarida shunday tasvirlaydi: "Farg'onani suvi serob, havosi toza, mevasi pokiza, erlari mahsuldor bo'lib, Rusiya davlatida bo'lgandan buyon necha daraja tijorat va ziroat ishlari murovvaj bo'lub, temir yo'llar inshosi vositasi bilan hamma ishlar oson bo'lub, dehqonlari aksariyatida paxta ziroati ilan rivojlanib, paxta tijorati bo'lak ishlardan rivojda bo'lib, muning foydasiga aldanub, ziroati milliyarlari - bug'doy, juvari, arpa ekmoq yo'q bo'lub, ovqatga sarf bo'ladurg'on donlarni ekishlarini eslaridan chiqarib, 1913 melodiyda paxta ziroati va tijoratiga urungan kishilar qarz daryosiga g'arq bo'lganlarini mushohoda qilib, avqot ekmoqg'a tushdilar, hatto hukumatdan avqot ekmok uchun necha marotabadan targ'ib bo'lsa ham, paxtani aqchasi bularni avqot ekmokdan qo'ydi. Alholda avqotlarni hayvonot avqotini sotib olmoqqa majbur bo'lganlari bularni yana eski ekunlari yaxshi ekanini bildurdi".

Turkistonda mustamlakachilik tuzumini uzoq vaqt saqlab qolish uchun buyuk rus davlatchilik g'oyasini amalga oshirishga kirishildi. Bu ishga rus ziyolilari ham safarbar etildilar.

Sho'rolar hukmronligi davrida yaratilgan tarixiy asarlarda ushbu masalaga yana bir tomonlama yondoshish davom etdi. Ularda ko'proq Turkiston qoloq feodalizm tuzumida yashab kelganligi, Rossiya tarkibiga qo'shib olingach bu katta progressiv ahamiyat kasb etganligi haqida ko'proq gapirildi. Sho'rolar davrida ruslashtirish siyosati, iqtisodiy qaramlik, paxta yakkahokimligi yanada kuchaytirildi. Podsho Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining uzviy davomi edi.

Faqat O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin tarixshunosligimizda ushbu masala haqqoniy yoritila boshladi.

Ayniqsa bu O'zbekistonning yangi tarixi kitobining 1-qismida o'z aksini topdi. Unda aniq faktlar bilan Rossiyaning Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosatining aniq basharasi ochib berilgan. Tariximizning xolis yoritilishiga qariyb bir yarim asrdan so'ng erishdik. O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilik tuzumining o'rnatilishi 1958 yildan to 1989 yilgacha bo'lgan davrda xato talqin qilib kelindi. Ular bosib olinishning reaksiyon mohiyatini xalqdan yashirishga harakat qildilar. Rossiya qo'shinlari xonliklarni "bosib olgan emas", balki "qo'shib olgan" deb katta-katta kitoblar, risolalar va maqolalar yozdilar. Mustamlaka davrini to'liq va har tomonlama yoritib bera olmadilar.

Mustamlakachilikning xalqimizni bosib turgan muz tog'lari mustaqillik nuri taftidan erib ketdi.

Tarixiy adabiyotlarda chor mustamlakachilariga qarshi milliy-ozodlik kurashning yoritilishi. Chorizmning ijtimoiy va milliy mustamlaka zulmining chidab bo'lmaydigan darajaga etishi natijasida xalq norozilik harakatlari yuz berdi. Turkiston xalqlarining Rossiyaga qarshi milliy-ozodlik harakatlari tarixshunosligi ham xuddi mustamlakachilik siyosati tarixshunosligi kabi davrlar va ularning xususiyatlariga o'hshashdir.

Bunlay qo'zg'olonlarga 1892 yil Turkistondagi vabo isyoni, 1898 yil Andijondagi Dukchi Eshon qo'zg'oloni, 1916 yildagi Jizzax va Turkistonning boshqa joylaridagi qo'zg'olonlar misol bo'la oladi.

1898 yilda Andijonning Mingtepa qishlog'ida ko'tarilgan "Dukchi Eshon" qo'zg'oloni xalqimiz ozodlik harakatining yorqin sahifalaridan biridir. Bu ozodlik harakati haqida bizga ma'lumot beruvchi tarixiy asarlardan biri Fozilbek Otabek o'g'lining "Dukchi Eshon voqeasi" asari hisoblanadi. Fozilbek Otabek o'g'li (1879-1938) asli andijonlik, mashhur Otabek qozining ikkinchi o'g'li, Fozilbek rus-tuzem maktabini, 1923 yil Moskvada qishloq xo'jalik akademiyasining bitirgan, so'ng Turkistonga qaytib, yangi paxta navlarini etishtirish bilan shug'ullangan.

1927 yilda "Dukchi Eshon voqeasi" asarini nashr ettiradi.

1916 yilgi xalq harakati haqida ma'lumotlar 20 yillarda paydo bo'ldi, u davrda tadqiqotchilar orasida 1916 yil qo'zg'olonining sabablari, xarakterli va unga baho berishda turlicha fikrlar mavjud edi. G.Broydo va T.Risqulovlarning ta'kidlashicha, chor ma'muriyati ushbu qo'zg'olonni tayyorlash orqali yangi bosqinchilik va zulmga bahona qidirgan. Bu fikr Shestakova va E.Fedorova tomonidan keskin tanqid qilingan, ular fikricha, chor hukumatiga bu qo'zg'olondan hech qanday foyda yo'q edi.

30-yillarda podsho arxividan 1916 yil qo'zg'oloniga oid qimmatli xujjat va materiallar e'lon qilindi. 1932 yilda O'rta Osiyo xalqlarining qo'zg'olonlari tarixiga oid xujjatlar to'plami dunyo yuzini ko'rdi.

1935 yilda Z.Kostelskiy ushbu qo'zg'olonga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1916 yil qo'zg'olonini tadqiq qilishga P.A.Kovalevning ham hissasi katta bo'ldi. Unda qo'zg'olonning Turkiston aholisini front ortiga mobilizatsiya qilinishi muammosi, o'sha ishchilarning hayoti va qismati, shuningdek, rus burjuaziyasining tub joy aholining front orti ishlariga

mobilizatsiya (safariylik) qilinishi va qo'zg'olonga munosabati masalalari tadqiq etilganligi qimmatlidir. 1916 yil qo'zg'oloni bo'yicha tarixchilar tomonidan juda ko'p ishlar qilingan. Ko'plab arxiv materiallari, chor hukumatining xujjatlari, juda ko'plab qo'zg'olon qatnashchilarining xotiralari ishga jalb qilingan. Ko'plab monografik asarlar yaratilgan.

Sho'rolar hukmronligi davrida yaratilgan asarlarda Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik harakati bir tomonlama yoritildi. Xalq ozodlik harakatlari reaksion qo'zg'olonlar deb baholandi. Masalan, Dukchi Eshon qo'zg'oloni o'zining haqiqiy bahosini ola olmadi. Bu haqdagi kitob va maqolalar asosan rus arxiv manbalariga asoslangan holda yozildi, ular tanqidiy qiyos qilinmadi, mualliflar sharq tillaridagi manbalardan juda kam foydalandilar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, Turkiston xalqlarining mustamlakachilik zulmiga qarshi olib borgan milliy-ozodlik kurashlari o'zining haqiqiy bahosini oldi.

Milliy qahramonlarning nomlari tiklandi. Ularga oid arxiv materiallari, xujjatlar oshkor etildi, tarixiy, badiiy asarlar yaratildi. Haq qaror topdi, tariximizdagi oq dog'lar yuvildi. 2001 yilda Jizzax qo'zg'olonining 85 yilligi nishonlandi. Joylarda ushbu sanaga bag'ishlab konferensiyalar o'tkazildi. Shuningdek, 1916 yil qo'zg'oloni tarixshunosligi masalasida D.Ziyaeva bir qancha tadqiqotlar e'lon qildi. O'zbekistonning yangi tarixi kitobining 1-qismida ushbu masala juda xolis va to'g'ri yoritildi. Kitobxonlar va qiziquvchilar uchun to'plamlar e'lon qilinmoqda. Turkiston xalqlarining chorizmga qarshi milliy-ozodlik harakati yurtimiz tarixining yorqin va shonli sahifasi bo'lib qoldi.

Chor Rossiyasi mustamlakachilik tuzumiga qarshi milliy ozodlik xarakatining sovet davri tarixshunosligida yoritilishi. O'rta Osiyoda XX boshlarida ishchilar inqilobiy harakatining tarixini tadqiq etish 60 yillarda partiya organlaridan berilgan yo'l-yo'riqlar asosida davom ettirildi. Tadqiqotchilar O'rta Osiyodagi sinfiy kurash Chor Rossiyasidagi umumiy inqilobiy harakatning bir qismi ekanligini ta'kidlaydilar. Bunda burjua demokratik talablar bilan milliy ozodlik harakati vazifalari uyg'unlashib ketgan edi. 1905-1907 yillarda O'rta Osiyoda feodal burjua doiralarida millatparvarlik kayfiyatlari jonlanib ular mehnatkashlarning milliy zulmdan ozod bo'lish yo'lidagi harakatidan o'z maqsadlari uchun intildilar. O'rta Osiyo xalq ommasi rus proletarining shovinizmga nisbatan chiqisha olmaslik tuyg'usini do'stona qabul qilib, 1905-1907 yillar inqilobda bevosita ishtirok etdilar. Tarix burjua safsatabozliklarining 1905-1907 yillar inqilobining sof «rus» xususiyatga ega ekani to'g'risidagi afsona va to'qimalarni rad etdi deyiladi. Tarixchilar o'z asarlarida O'rta Osiyodagi

Markisistik Mafkurani tarqatishda jonbozlik ko'rsatib, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borgan rus inqilobchi proletoriti vakillari - V.D.Konyushin, A.R. Baxarev, M.R.Verdyanin. T.L. Ivanov kabi ko'plab o'z hayotini O'rta Osiyo bilan bog'lagan inqilobchilarning katta xizmatlarini alohida taqidlab o'tishni unutmaydilar. Noiloj o'sha davrdagi ijtimoiy siyosiy ahvol shuni taqozo etar edi. Turkistonning bosib olinishi va chor ma'muriy xukumronligi davriga (1865-1917 yillar) oid sovet tarixshunosligi solnomasida 1916 yil qo'zg'olonini – o'lka xalqlarining hayotida 1917 yil oktyabr «inqilob» arafasidagi eng yorqin voqeani tadqiq etish va yoritishga alohida o'rin ajratilgan. Tadqiqotchilar bu qo'zg'olon Rossiya proletoratining samoderjaviyaga va burjajiyaga inqilobiy kurashi bilan o'lkadagi ilg'or mehnatkashlar ommasi ozodlik xarakatining qo'shiluvi natijasida xurriyat uchun kurash miqiyosining kengayishi tomon yuz bergan burilish hisoblanadi degan xulosani yakdillik bilan olg'a suradi. Mazkur qo'zg'olon mahalliy mehnatkashlarning shakllanib bo'lgan milliy burjaziyadan yuz o'girishni boshlab berdi. 1916 yil qo'zg'oloni xalq ommasining mustamlakachilik zulmi va feodal hamda kapilatistik ekpulatatsiyasiga qarshi qisqa muddatli tarqoq va stixiyali isyonlari ko'rinishida boshlanib, CHor Rossiyasi milliy o'lkalaridagi ezilgan xalqlar ozodlik kurashining, binobarin Birinchi jahon urushi davridagi barcha mustamlaka mamlakatlarda ro'y bergan milliy ozodlik harakati qudratli tulqiniga aylanib ketdi. O'rta Osiyo tarixchilari bu murakkab ommaviy harakatning xususiyatlari bosqichlari o'ziga xos tomonlari to'g'risida yagona bir fikrga kelishgan. Mazkur siyosiy isyon yarim yildan ortiq davom etib, har qaysi mintaqada turlicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar xukum surgan, kattagina xududni qamrab oldi. SHu bois qo'zg'olon turli erda o'ziga xos ko'rinishda nomoyon bo'ldi. 1916 yil qo'zg'olonning 70 yilligi munosabati bilan «O'zbekiston komunisti» (1986yil 7son) va «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» (1986y. 7 son) jurnalida X.Tursunov, M. Vahobov, S.M. Nomozov, D.Ziyoevaning maroqli maqolalari e'lon qilindi. Ularda qo'zg'olonning tarixiy axamiyati va ayrim qirralari ochib berilgan.

1916 yil qo'zg'oloniga tadqiqotchilarning qiziqishi mustaqillikka erishgan hozirgi kunda yana ham ortib borishi tabbiy. Zero, milliy ozodlik harakatining ifodasi sifatida yuzaga kelgan bu siyosiy voqeaga xolisona yondashishi haqqoniy ilmiy baho berish imkoniyati endilikda, avvalgi mafkuraviy g'oyaviy cheklashlar olib tashlanganligidan so'ngina yaratildi. 60 yillardagi ilmiy tadqiqotlarga majburan singdirilgan «bu isyon umumrossiya inqilobi harakatining tarkibiy ajralmas qismi bo'lib Rossiya imperiyasining barcha xalqlarni Fevral va Oktyabr inqiloblari sari etaklab boradi», degan zo'rma-zo'raki xulosalarga endi ehtiyoj yo'q. Turkistonda inqilobiy harakatning yuzaga kelishiga doir tarixnavislik

materiallarini tahlil etish A.I. Sidorov kabi mualliflarning dadil chiqishlarini ham e'tirof etish zarur. Masalan: «u o'zbeklar, turkmanlar va O'rta Osiyoning boshqa xalqlarning turli shakldagi isyonlar bilan chiqishini olar ekanmiz, samoderjaviyaning mustamlaka siyosatiga qarshi kurash progressiv bo'lganligini ham tan olmaslik xalq ommasining tarixiy jarayondagi progressiv ahamiyatini inkor etish bilan barobardir. U holda nimani progressiv deb hisoblash zarur? Millionlab kishilarga qonli zulm o'tkazgan Chor samoderjaviyasining mustamlaka siyosatini yoki bu rejimga qarshi kurashnimi? Chorizmning mustamlakachilik siyosati ayniqsa Rossiya imperiyasining cheka o'lkalarida eng mudxish shaklida nomoyon bo'ldi, shubhasiz bu qonuniy ravishda mustamlakachilikka qarshi xalqlarning g'azabi va qarshiligini keltirib chiqardi.

Milliy ozodlik xarakatining mustaqillik yillari tarixshunosligi. Professor N.I. Veselovskiyning bu boradagi bir mulohazasi diqqatga loyiq: Biz bo'ysundirilgan osiyoliklarga tinchlik, xotirjamlik, xavfsizlik berdik degan hayoldamiz. Ammo yana bir oliy bularning hammasidan yuqoriroq turuvchi ezgulik mavjud. Bu millat, milliylik tuyg'usi bo'ysundirilgan musulmonlar ahvolini o'zimizni ular o'rniga qo'yibgina tushunish mumkin. Siyosiy o'lim og'ir, milliy jihatdan o'lmoqlik esa undan ham og'irroqdir. Bizning hukmronligimiz ostida xuddi shu milliylik to'yg'usi taxqirlanmoqda. Millatni qandaydir boshqa xayrli ishlar bilan almashtirib bo'lmaydi! Shunday ekan, bizning hukmronligimizga qarshi ko'tarishlar yuz bersa ajablanish noo'rin. Milliy masalaning shunday jihatlari borki xalq to'qmi-ochmi, boymi-yalong'ochmi, ular baribir nomoyon bo'lar edi».

Mustaqillikka erishgandan so'nggina xalqlarning chorizmga qarshi mustamlakachilikka qarshi ko'rashining qaxromonona saxifalariga munosib baho berish uchun e'tibor ajratilmoqda. Bu borada dastlabki ishlar 1989 yilda Toshkentda chop etilgan, «O'rta Osiyo va Qozog'istonda XIX asrning ikkinchi yarmida va XX boshlaridagi ozodlik harakatini tarixi va tarixshunosligi: yakunlar, izlanishlar, tadqiqotlar, istiqboli» kitobini K.R. Nesipboevning «Chorizmning Qozog'istonda olib borgan soliq siyosati (1867-1914 yil)» nomzodlik dissertatsiyasini (1988 yil); X.Bobobekovning «Qo'qon xonligidagi xalq xarakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar» (1990 yil Toshkent) kitobini ko'rsatib o'tish mumkin.

1994 yilda N.A. Abdurahimova tomonidan «Turkistondagi xukumatning mustamlakachilik tizimi (XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr)» doktorlik dissertatsiyasini va X.J. Sodiqovning «Chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik siyosati va XX asr boshlarida milliy ozodlik harakati»

mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining yoqlanishini O‘zbekistonning eng yangi tarixi tarixshunosligida ro‘y bergan quvonarli voqea sifatida ta’kidlash zarur. H. Ziyoevning «O‘zbek xonliklari Chorizm asoratida», «Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash», Majid Xasaniyning «Turkiston bosqini» kitoblarida Chorizmning Turkistonda xukumronlik qilgan davr va unga qarshi yangi va ommabop talqin etilgan.

1998 yilda O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov bir guruh tarixchi olimlar bilan uchrashib mustaqillik yillarida tarixga munosabat, yangi tarixni yaratish masalasiga alohida ahamiyat qaratish kerakligini uqtirdi va tarixchilar oldida muhim vazifalar qo‘ydi. Shundan so‘ng O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida Yangi tarix markazi tashkil etildi. Qisqa muddat ichida O‘zbekistonning yangi tarixi asarining 3-tomi nashrdan chiqarildi. Ushbu kitobning 1-tomida Rossiyaning O‘rta Osiyoni bosib olishi va unga qarshi milliy ozodlik harakati yangicha nuqtai nazardan juda yaxshi bayon qilingan. Bu asar shu masala bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga juda ko‘p ishonchli ma’lumotlar bera oladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Qaysi mahalliy tarixchi rus qo‘shinlarining Qo‘qon xonligiga dastlabki harbiy yurishlarini o‘z asarida tasvirlagan?
2. Kimning asarida XIX asrning tarixiy voqealari, xususan 1866-1868 yillardagi Rossiya-Buxoro urushi haqida keng ma’lumotlar berilgan?
3. Chor Rossiyaning mustamlakachilik davri tarixshunosligini necha davrga bo‘lib o‘rganish mumkin?
4. Kim rus mustamlakachiligining mohiyati va uning o‘zga xalqlarni ruslashtirishi siyosatining bosh yo‘nalishi haqida ma’lumot beradi?
5. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin tarixshunosligimizda Chor Rossiyasi davrida xususida qanday yangi tadqiqotlar yuzaga keldi?
6. 1898 yilda Andijonning Mingtepa qishlog‘ida ko‘tarilgan "Dukchi Eshon" qo‘zg‘oloni haqida kimning, qaysi asarida muhim ma’lumotlar beriladi?

10-mavzu: MUSTAQIL O‘ZBEKISTON TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

Reja:

1. Mustaqil O‘zbekistonda tarix fani va uning taraqqiyotidagi yangi bosqich.
2. O‘zbekiston xalqlari tarixining dolzarb muammolari.
3. Jahon tarixi fani tarixshunosligini o‘rganishni rivojlantirishning asosiy tamoillari.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: *Mustaqil O‘zbekistonda tarix fani va uning taraqqiyotidagi yangi bosqich, O‘zbekiston xalqlari tarixining dolzarb muammolari hamda jahon tarixi fani tarixshunosligini o‘rganishni rivojlantirishning asosiy tamoillari haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish.*

Tushunchalar va tayanch iboralar: *“Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asari, O‘zbekistonning yangi tarixi markazi, M.Ishoqov, O‘zbekiston xalqlari tarixnavisligining dolzarb vazifalari, Karim Shoniyozov, D.Alimova, «qayta qurish» davri tarixiy asarlari, mustaqillik yillarida chop etilgan asarlar tahlili.*

Mustaqillik O‘zbekistonda tarix faning davlat siyosati darajasida o‘rnatilishi. Istiqlol yillarida tarix, tarixiy ong va xotira xalqqa ruriy kuch kuvvat bag‘ishlovchi, unga ma‘naviy ozuqa beruvchi murim omil sifatida maydonga chiqdi. O‘zbek xalqining haqqoniy tarixini tiklash va xalqni shu tarix bilan qurollantirish zaruriyati kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Zero, mustaqillikka qadar, ya‘ni mustabid tuzum hukmronligi sharoitida haqqoniy tarixni tiklash va uni xalqqa etkazishga yo‘l berilmadi. Chunki mustabid tuzum manfaatlariga xizmat qilgan kommunistik mafkura va uning tazyiki ostida bo‘lgan sovet tarixshunosligining uslubiy, nazariy, g‘oyaviy asoslari haqqoniy tarixni yoritishga imkon bermas edi. Ular xalq tarixini emas, marksizm, leninizm ta‘limotini, sinfiy kurash g‘oyalarini va kommunistik mafkura aqidalarini targ‘ib etishga bo‘ysundirilgan edi. Bu g‘oyalar va aqidalar jamiyat taraqqiyot qonunlariga, xalqning tabiatiga, real voqelikka zid bo‘lib, ular nafaqat hayotdan, balki o‘tmishdan ham uzilib qolgan edi. Mazkur ta‘limot aqidalariga va tamoyillariga asoslangan sovet tarixshunosligida nafakat o‘zbek xalqining, balki jahon tarixinini ham juda ko‘p muhim masalalarai mutlako noto‘g‘ri buzib talqin etildi. Natijada tarixiy hakikat yashirilib, xalq o‘z o‘tmishidan va demak, o‘zligidan uzoklashtirildi.

1998 yil iyulda O‘zbekistonning 1-prezidenti I.A.Karimov bir guruh etakchi tarixchilar va ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan uchrashdi. Bu

uchrashuvda I.Karimov tarix fanining muammolari haqida mutaxassislar bilan fikr almashdi. Mustaqil O`zbekiston tarixchi olimlar oldida turgan va tezda hal qilinishi kerak bo`lgan qator masalalarni ochiq-oydin ko`rsatdilar. Ushbu masala bilan bog`liq bo`lgan aniq vazifalar haqida so`z yuritib, shunday deydilar: “Haqqoniy tariximizni barpo etish ishini nimadan boshlash lozim? Avvalo ko`p ming yillik boy o`tmishimizni tadqiq etishning yaxlit kontsentsiyasini, ya`ni, dasturini, ilmiy izlanishlarining uslubini, qo`yilgan vazifani amalga oshiradigan ilmiy muassasalarni, ulardagi potentsial kadrlar masalasini aniqlab olishdan” boshlamoq lozim.²

Haqiqatdan, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q” asarida asl manbalar va ularning tahlili asosida Vatanimiz tarixini haqqoniy yaratish muammosi alohida ta`kidlandi. “Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo`lgan xulosalargina bizga to`g`ri yo`l ko`rsatishi mumkin” – deb yozadi Islom Karimov. Mazkur asarda muhim ahamiyatga ega bo`lgan tarixiy muammolarni echish yo`llarini o`rtaga qo`yish bilan birga, bu asarda O`zbekistonda tarix fanining bugungi ahvoli va tarixchi-mutaxassislar tayyorlash masalasi ham ochib berildi. Ma`lumki, ayrim yo`nalishlar bo`yicha mutaxassis tarixchi olimlarimiz sanoqlidir. Antropalogiya, etnologiya, numizmatika, manbashunoslik mutaxassisliklari shular jumlasidandir. Qadimgi va o`rta asrlar tarixini chuqur biladigan va maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarimiz ham juda oz.

Umuman olganda, Islom Karimovning “O`zbekistonning yangi tarixi markazi”ni tashkil etish haqidagi farmonidan (1996), “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q” (1998) nomli risolasi, tarixchi olim va ijodiy ziyolilar bilan uchrashuvidagi (1998), “Turkiston” (1999) va “Fizokor” (2000) gazetalari muxbirlarining savollariga bergan javoblaridan, “O`z FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to`g`risida” gi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroridan (1998) so`ng tarix fani davlat siyosati darajasida ko`tarildi.

Natijada, nafaqat respublikamizda milliy qadriyatlarini tiklash, necha ming yillik ma`naviy-ma`rifiy merosni asrab-avaylash, mustamlakachilik davrida chetga olib chiqib ketilgan madaniy yodgorliklarni aniqlash va yurtimizga qaytarish borasida ko`plab xayrli shilar amalga oshirila boshladi. Bu shiga xorijda yashayotgan hamuyrtlarimiz ham o`z hissalarini qo`shmoqdalar.

Xususan, Turkiyada istiqomat qilayotgan bir guruh vatandoshlarimiz ulug` bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiyning “Xazoyinul - maoniy” majmuasining o`tgan asrning yigirmanchi yillarida O`zbekistondan olib chiqib ketilgan

² I.A.Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”. T. O`zbekiston. 1998. 9 bet.

qo`lyozma nusxasini O`zbekistonning 1-prezidenti Islom Karimovga yuborishdi. Islom Karimov bu benazir “Ma`nolar xazinasini” asarini she`riyat mulki sultonining ramziy uyi – Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyiga tuxfa etdi. Mazkur qo`lyozma XVIII asrda Samarqandda Usta Bobojon o`g`li Mulla Muqimjon Samarqandiy ismli xattot tononidan ko`chirilgan. Bunaqangi nodir qo`lyozma, arxiv hujjatlari ham chet elda ko`p bo`lib ularni qaytarish yoki nusxa olish burch va vazifamizdir.

O`zbekiston xalqlari tarixining dolzarb muammolari. O`zbekiston halqlari tarixini yozish o`z tarixshunosligiga ega bo`lib, bugungi kunda ham dolzarb vazifalardan biridir. Mustaqillik sharafoti bilan O`zbekistonning hech qachon o`zgarmaydigan, xolisona tarixini yozish imkoniyati tug`ildi.

O`zbekiston xalqlari tarixining tarixshunoslik tahlili shuni ko`rsatadiki, soxta yoritilgna tarix, hech qachon haqiqiy tarix asari bo`lolmaydi. Uning tarbiyaviy ahamiyati ham bo`lmaydi, yo`q desak ham adashmaymiz, aksincha bunday asarlar xalqni chalg`itadi, ongini o`tmaslashtiradi. O`zbekiston xalqlari tarixni bilishligi dolzarb vazifasi – tarixiylik-haqqoniylikdir, haqqoniylik esa tarixning jon ozig`idir.

O`zbekiston xalqlari tarixnavisligining dolzarb vazifalaridan biri davlatchilik tarixini yoritishdir. Bu yo`nalishda eng qadimgi davr tarixini o`rganish muhim bo`lib, birinchi galdagi vazifa yozma manbalar tarixiga katta e`tiborning qaratilishidir. Bu borada bir guruh olimlar tomonidan “Qadimgi yozma yodgarliklar” kitobining nashr etilishidir.

O`rta Osiyo tarixi bo`yicha ilk yozma manba “Avesto” ni o`zgarish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. M.Ishoqov tomonidan “Avesto” ning “Yangi kitobi” o`zbek tilida o`girildi, nashr etildi. (Avesto yangi kitobi /Mirsodiq Ishoqov tarjimasini. – Toshkent, 2001). Ayni paytda o`zbek davlatchiligi tarixini o`rganish bo`yicha ham izlanishlar boshlanib, uning ilk natijalari rus va o`zbek tillarida “O`zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari” sifatida chop etildi. (O`zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari / Mas`ul muharrirlar D.A.Alimova va E.V.Rtveladze. Mualliflar. T.Shirinov, M.Filanovich, B.Kochnev, R.Mukminova, G.Agzamova, N.Abdurahimova, D.A.Alimova, S.A`zamxo`jaev, Q.Rajabov, A.Golovanov. – toshkent, 2001). Ushbu asarning o`rta asrlarda o`zbek davlatchiligining tarixiga bag`ishlangan qismida turk haqonligi, G`aznaviylar davlati, Qoroxoniylar xonligi va Amir Temur davlati haqida so`z uyritilgan. Shuningdek, XVI-XIX asrlarda hukm surgan Buxoro, Xiva va Qo`qon xonlarida davom ettirilgan davlatchilik an`analari hamda Rossiya imperiyasi va sovet davridagi boshqaruv tizimi tahlil etilgan.

Bu davrda o`zbek xalqining shakllanish tarixini o`rganish borasida ilk izlanishlar boshlandi. Bu masalada Karim Shoniyozovning qarluq davlati tarixiga va o`zbek xalqining shakllanishiga bag`ishlangan kitoblari nashr qilindi. (Shoniyozov K. Qarluq va qarluqlar – Toshkent 1999: O`zbek xalqining shakllanish jarayoni D.Alimova, Z. Orifxonova va boshqalar – Toshkent 2001).

O`zbekistonning mustamlaka davri tarixini o`rganish borasida ham ma`lum natijalarga erishildi. Turkistonning XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar tarixi bo`yicha “Turkiston v nachale XX veka” nomli asar mualliflar guruhi tomonidan tayyorlanib, R.Rajabova tahriri bilan chop etildi. (Turkiston v nachale XX vka: k istorii Ismonov natsional`noy nezavisimosti /Ruk.proekta D.Alimova, nauch.rezaktor R.Radjabova, avtorы R.Rajapova, R.Abdullaev, S.Agzamxodjaev, I.Alimov, A.Golovanov, R.Nurullaev, V.Ivanov, E.Prilutskiy, K.Rajabov, V.Semennok, M.Xasanov, -Toshkent, 2000).

O`zbekiston xalqlari tarixshunosligining yana bir dolzarb vasifasi, bu XX sar tarixini yoritishdir. XX asr insoniyat tarixida erkinlik, shu bilan birga inson huquqlarining paymol bo`lishi, tug`ilishning ko`payib, insoniyat sonining keskin o`sishi, eng ayanchlisi millionlab insonlarning qirilib ketishi, ayniqsa ikkinchi jahon urishi yillaridagi fojialardir. Mazkur davrda O`zbekiston xalqlari tarixlarida yana bir bor mustamlakachilik sirtmog`iga tushdilar. Turkiston o`lkasining rus mustamlakachiligi va sho`ro hukmronligi davrida kechgan hayoti tarixiy ilmiy adabiyotlarda qay nuqtai nazardan bo`lmasin har holda nisbatan to`laroq ifoda etilgan deyish mumkin. Bu adabiyotlarni mazmun va mohiyat jihatdan 4 davrga ajratsa bo`ladi.

Birinchi davr - asosan 1917 yilgacha yozilgan tadqiqotlarni, ikkinchi davr - 20-50 yillarda, uchinchi davr esa 50 yilda to 80 yillar birinchi yarmiga qadar yaratilgan asarlarni qamrab oladi.

To`rtinchi davrga oid adabiyotlar tarixshunoslikda «qayta qurish» deb nom olgan 80 yillarning ikkinchi yarmidan to O`zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga qadar va mustaqillik yillarida vujudga kelgan asarlar majmuidan iboratdir.

Tarixshunosligimizdagi yana bir muhim muammo shundan iboratkim, mustaqilligimiz tufayli siyosiy, madaniy ongning o`sishi, milliy ong va milliy g`urur uyksalishiga sabab bo`lmoqda.

Imperiyaning parchalarish jarayoni nechog`liq qiyin kechgan bo`lsa, undan so`ng uyzaga kelgan “Postimperiya” MDX makonidagi siyosiy, iqtisodiy, ma`daniy munosabatlar tarzi ham shu qadar murakkab tus oldi va bu xol davom

etmoqda. Bu murakkablikning kamida ikki asosiy jihati mavjud. Birinchi jihati – mustaqil davlatlarning mundan buyongi taraqqiyot yo`li qanday kechadi? Ikkinchisi – “Postimperiya” hozirgi MDX makonida o`zaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy, manaviy munosabatlar jarayonining bugini va kelajagi qanday bo`ladi.

Quyida mustaqillik yillarida tarixchi olimlarimiz tomonidan chop etilgan mustaqillik davri tarixshunosligi oid asarlar keltirilgan:

- Axmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari. 1991 y.
- Axmedov B. Tarixdan saboqlar. 1994 y.
- Saidqulov T. O`rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavxalar. 1993 y.
- Karimov Sh., Shamsiddinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida. 1995 y.
- Kamoliddinov S. Istoricheskaya geografiya Yujnogo Sogda i Toxaristana po araboyazichnim istochnikam IX nachalo XIII veka. 1996 g.
- Choirov Z. Turkiston mardikorlari: safarbarlik va uning oqibatlari (1916-1917 yillar) 1999 y.
- Rahimov J. O`zbekiston tarixini o`rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. 1995 y.
- Bobobekov X. Qo`qon tarixi. 1996 y.
- O`zbekiston tarixini o`rganish va o`qitishning dolzarb masalalari. 1993 y.
- O`zbekistonning yangi tarixi (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida) 2000 y.

Jahon tarixi fani tarixshunosligini o`rganishni rivojlantirishning asosiy tamoynlari. O`zbekistonda tarixshunoslik fanining rivojini jahon xalqlari tarixini o`rganmasdan tasavvur qilib bo`lmaydi, albatta. Shuning uchun jaxon mamlakatlari, xususan g`arb davlatchiligi tajribasi to`g`risida, uning davlatchilik an`analargi haqida gap kelganda nusxa ko`chirish emas, balki umuminsoniyat ahamiyat kasb etgan tamoyillarni milliy davlatchilik an`analari bilan uyg`unlashtirish nazarda tutiladi. Biz Angliya, Frantsiya, GFR, RF va boshqa davlatlar tarixini o`rganar ekanmiz, o`zimizning davlatchiligimiz tarixshunoslik haqida ham mushohada qilishimiz mumkin.

O`zbekiston Respublikasi siyosiy tizimlarining shakllanishi bir tomondan chuqur milliy tarixiy ildizlar asosida kechayotgan bo`lsa, ikkinchi tomondan jahon, qolaversa G`arb dunyosining eng maqbul tajribalarini o`zlashtirishning zamirida sodir bo`lmoqda. Bu jarayon ham O`zbekistonning jahon hamjamiyati bilan nechog`liq integratsiyalashuvini nanoyish etmoqda.

Agar biz O`zbekiston tarixini mustaqil davlat tarixi sifatida ko`rishni istasak, unga jahon tarixi bilan bir butunlikda qarashimiz zarur. Uning uchun esa har bir tarixnavis oldigi chet el tarixshunosligini albatta bilish va undan foydalanish talabini qo`yishimiz kerak. Biror – bir muammo tadqiqi faqat mamlakatimiz

adabiyotlarigagina asoslanib qolmasligi darkor. Binobarin, faqat ichki emas, balki tashqi manbalardan (masalan arxivlar, taqdir taqozosi bilan chet elda voqealarning bevosita ishtirokchisi bo`lganlarning xotira materiallaridan) ham foydalanish taqozaga etiladi. Ham mahalliy, ham chet el manba va adabiyotlarini bilish tadqiqotchini eng xolis xulosalar chiqarish uchun kuchli vosita bilan ta`minlaydi.

Jahon tarixi fani tarixshunosligini o`rganishni rivojlantirishning vazifalari - tarix fani taraqqiyot yo`nalishlari va istiqbollarning aniqlash, bu taraqqiyoti ta`sir etuvchi muhim omillar, ijtimoiy-siyosiy tuzim, davlatning fanga munosabati, xur fikrlik imkoni, hukmron mafkuraning ta`sirini o`rganishdan iborat. Shuningdek tarixshunoslik tadqiqodlari muhim va dolzarb muammolar haqida, fanda shakllangan ilmiy qarashlar, munozarali va mavxum masalalarni ham aniqlash imkoni beradi. Bu esa o`z navbatida vatanimiz haqida nafaqat o`z xalqimiz yurtimizda, balki butun jahonda shakllangan tarixiy bilimlar darajasini aniqlash va taxlil etish imkoni beradi. Demak, jahon tarixi fani tarixshunosligini o`rganish va rivojlantirish birinchi navbatda manbalarni chuqur o`rganish, eski o`zbek yozuvi, arab, fars, tillari mutaxassislarini mujassamlashtirishni talab qilsa, ikkinchidan ingliz, fransuz, nemis tarixshunosligiga ixtisoslashgan kadrlarni etishtirishni talab etadi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Sobiq sovet davrida tarix qanday g`oyalarni targ`ib etishga yo`naltirilgan edi?
2. O`zbekiston Respublikasining 1-prezidenti Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q" asarida tariximizni o`rganishning qanday dolzarb muammolari haqida fikrlar keltiriladi?
3. Mustaqillik yillarida qaysi farmon va qarorlardan so`ng tarix fani davlat siyosati darajasida ko`tarildi?
4. O`zbekiston xalqlari tarixnavisligining dolzarb vazifalari haqida o`z fikringizni bildiring?
5. O`zbekistonning mustamlaka davri tarixini qaysi olimlarning ishlarida o`z aksini topgan?
6. Turkiston o`lkasining rus mustamlakachiligi va sho`ro hukmronligi davrida kechgan tarixini necha davrga bo`lib o`rganish maqsadga muvofiq?
7. Mustaqillik yillarida tarixchi olimlarimiz tomonidan chop etilgan mustaqillik davri tarixshunosligi oid asarlarni sharhlab bering?
8. Jahon tarixi fani tarixshunosligini o`rganishni rivojlantirishning vazifalari haqida o`z fikringizni ayting?

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Asqarov O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T.: "Universitet", 2007.
2. Azamat ZiyO'zbek davlatchiligi tarixi. T. "Sharq", 2001.
3. Abdurahimova N., R.Ergashev. Turkistonda chor mustamlakichilik tizimi. T.: "Akademiya", 2002.
4. Amir Temur Ko'rog'on. T.: "Maxpirat nomidagi O'rta Osiyo xalqlari instituti", 2007.
5. Axmedjanov G.A.Rossiyskaya imperiya v Sredney Azii. Istoriya i istoriografiya kolonialnoy politiki parizma v Turkestane (1867-1917). T.Fan.1995.
6. Atajonov Sh va boshqalar. O'zbek xonliklari tarixshunosligi. T. 2011

7. Axmedov B.A. Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii XVI-XVIII vv. Pismennye pamyatniki. T.1985
8. Abushiy Hasan Ato. Turkiy qavmlar tarixi. –T.: Cho‘lpon, 1993. –240 bet.
9. Bahodirov R.M. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan //Mas`ul muharrir M.M.Xayrullaev. –T.: O‘zbekiston, 1995, - 144 bet.
- 10.B. Axmedov. Amir temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida. T.: “O‘qituvchi”, 1996.
- 11.B.Axmedov. Tarixdan saboqlar. T.: “O‘qituvchi”, 1994.
- 12.Ibn Arab shox. Amir Temur tarixi. T.: “Mehnat”, 1992.
- 13.E.Azimov. Amir Temur saltanati. T.: "G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va sanhat nashriyoti", 1996.
- 14.M.Matniyozov, A.Sotlihov. Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm. Urgench "Xorazm", 1999.
- 15.A.Sagdullaev. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: "O‘qituvchi", 1996.
- 16.Temur va Ulug‘bek davri tarixi. T.: "Qomuslar bosh tahririyati", 1996.
- 17.Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.: “O‘zbekiston”, 1996.
- 18.R.Shamsuddinov. O‘zbekiston tarixidan materiallar. II kitob. Andijon, 2004.
- 19.O. Bo‘riev. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. T.: “O‘zbekiston”, 1997.
- 20.O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. T.: “Sharq”, 1999.
- 21.O.Rahmatullaeva. Amir Temur saltanati tarixnavisligi. T. 2010.
- 22.U.Uvatov. Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. T.: “Sharq”, 1997.
- 23.Saidkulov T.S.Ocherki istoriografii istorii narodov Sredney Azii chast 1 –T. O‘qituvchi. 1992
- 24.Munirov Q.Xorazmda tarixnavislik (XVII-XIX asr va XX asr boshlari) T. G‘.G‘ulomov nashriyoti 2002.
- 25.Saidkulov T.S.Ocherki istoriografii istorii narodov Sredney Azii chast 1 –T. O‘qituvchi. 1992
- 26.Xolboev S. Tarix fanining metodologik asoslari va tamoyillari (I.Karimovning asarlari misolida) //Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari № 1, 2004. 140-146 betlar
- 27.Xolboev S.Tarix fanining muhim metodologik masalalari. //UzMU xabarlarlari 2011. maxsus son 375-375-betlar
- 28.Gerodot. Istoriya . Drevnegrecheskiy tekst, perevod. L.1972
- 29.Gumilev L.N.Drevnie tyurki - Moskva.1967
- 30.O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: (Ocherklar) / Mas`ul muharrirlar: D.A.Alimova, e.V.Rtveladze. – T.: Sharq, 2001.
- 31.Masharipov O. Xorazm tarixidan sahifalar. –T: O‘zbekiston,1994,-234 bet.
- 32.Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy Sulton Jaloliddin manguberdi hayoti. -Matyoqubov tarj. –T.: O‘zbekiston, - “Yozuvchi”, 1999.
- 33.Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. – T.: “Fan”, 1994.

34. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. –T.; Fan, 1993.
35. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. K.1. –T.: Mehnat. 1991, -328 bet. K.2. – T.: Mehnat. 1991.
36. Turkiston chor mustamlakachiligi davrida. 1- qism. T. “Sharq”, 2000.
37. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. 2 - qism. T. “Sharq”, 2000.
38. O‘zbekiston mustaqillik yillarida. 3-qism. T. “Sharq”, 2000.
39. Norjitova N. Turkistonda “Bosmachilik harakati tarixshunosligi”. Tarix fan. nomzod. T. 1995.
40. Masalieva O. XX asr ingliz-amerika tarixshunosligida Buxoro, Xiva va Qo‘qon tarixi tarixshunosligi. Tarix fan. nomzod. T. 1999.